



MASUDA ABBUBANNAYEVNA ABDULLAYEVA

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA



O‘ZBEKISTON RESPUBLAKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MASUDA ABDUBANNAYEVNA ABDULLAYEVA

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

**70110201 – Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va
metodikasi (maktabgacha ta‘lim) magistratura
mutaxassisligi uchun**



“USMON NOSIR MEDIA”

Namangan – 2023

KKK: 37.013

KKK: 74.10

A-12

Abdullayeva, Masuda

Pedagogik akmeologiya / darslik / Masuda Abdullayeva, Namangan: "Usmon Nosir media" nashriyoti, 2023. – 256 bet.

Uzvi o'qitishdan maqsad – pedagogik akmeologiya, shaxs kamoloti muammasining ilmiy-psixologik jihatlari, professionalizm, pedagogik akmeologiyaning metodologik asoslari, pedagogik akmeologiyaning qonuniyatlari, pedagogning psixologik-akmeologik kompetentligi masalalari haqida bilim berish.

Annotatsiya

Ushbu darslik pedagogika oliy o'quv yurtlarining magistrleri va akademik litsey, pedagogika kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ushbu o'quvchilari va tarbiyachilariga bag'ishlangan. Darslikda pedagogik akmeologiyaning metodologik asoslari, masalalarining ilmiy-amaliy yo'nalishlari, shakllari, vositalari va metodlari yoritilgan.

Аннотация

Данный учебник предназначен для магистров педагогических ВУЗов, лицеев и профессиональных педагогических колледжей, методистам и воспитателям учреждений дошкольного образования. В учебнике излагаются направления, формы, средства и методы, а так же научные основы управления дошкольными организациями.

Annotation

This text-book is intended for bachelor and master students of pedagogical higher educational institutions and methodists and educators of pre-school institutions. There elucidated the ways, forms, means and methods of development of the pre-school children's speech.

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent M.Mirsoliyeva
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent
Sh.Xo'jamberdiyeva

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023-yil, 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan, № 394712-raqamli nashr ruxsatnomasi asosida chop etildi.

ISBN: 978-9910-743-17-7

© M.A.Abdullayeva, 2023
© Usmon Nosir media, 2023

KIRISH

Hozirda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketish muammolari ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi. Har qanday mamlakatning kuchi, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi. Ta'lim va tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyotining asosidir. U ijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisiyligini hamda jamiyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu darslik pedagogik akmeologiya, shaxs kamoloti muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlari, professionalizm, pedagogik akmeologiyaning metodologik asoslari, pedagogik akmeologiyaning qonuniyatlari, pedagogning psixologik-akmeologik kompetentligi masalalari haqida bilim berish. Nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pedagogik akmeologiya, shaxs kamoloti jarayonlariga yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, pedagogik akmeologiyaning qonuniyatlari ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali pedagogik akmeologiyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 – 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risidagi qarorida; maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi¹. Bu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi. Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda «2017 – 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli Qarori.

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA PREDMETI VA UNING FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI

Tayanch tushunchalar. Pedagogik akmeologiya, paydo bo'lishi, akmeologiyaning ilmiy asoslari, predmeti, akmeologiyaning fanlar tizimidagi o'ri.

Pedagogik akmeologiya predmeti va uning fanlar tizimidagi o'ri

Hozirgi paytda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining tabiiy qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb-hunarga layoqati va say-harakatlaridan oqilona foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari, hayotiy istiqbol-larini belgilab olish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, etuk professional kadrlarni ahloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu mexanizmlardan biri – inson resurslarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo'llarini izlab topish, ya'ni o'ta muhim echimlaridan biri – akmeologiyaning ijtimoiy ahloqiy muam-molarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixiolog B.G.Ananov, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi.

Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlik va etuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi, degan nazariyalar ham yo'q emas.

Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etukligi bo'lmog'i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, AA.Derkach va boshqalar), degan qat'iy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal etuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga

yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N.V.Kuzmina).

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksaklikning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» – bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchali ko'z o'miga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir.

Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha etuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini «akme» deb ataganlar. Akme – yunoncha («yuksalish», «cho'qqi») kamolot, yuksalish, etuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona echishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Bu degani, ularni integrativ-kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning echimiga olib kelishi mushkul. Yetakchi faylasuf olim Xatima Shayxova bu borada: «Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganishdir.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat», deydi.

Pedagogik akmeologiyaning paydo bo'lishi

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning etuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandir. Bunda

biz Sharq allomalarining «komil inson» g'oyalarini akmeologiyaning ob'ekti «akmeshaxs» tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundamenti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, «ake» tushunchasini albatta yuksak cho'qqi, avj nuqta, eng oliy hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi bo'lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi. Akmeshaxs – akmeologiyaning asosiy predmeti bo'lib, uning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rganadi. Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo'lib, insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarini shakllanishiga olib keladi. Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun zarur qonuniyatlari o'rganuvchi fan bo'lgani uchun «akmeologiya» atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Buning boisi, birinchidan, akmeologiya sohasida ilk davrlarda asosan pedagoglar, psixologlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlar, etika ixtisosligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari fanning yoki bu jihatlarinigina qamrab olganligi sababli ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi. Bugungi kungacha akmeologiya sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari shaxsning psixologik xaritasi, uning xarakter xususiyatlarini aniqlash hamda uning u yoki bu sohaga qiziqishini alohida organishga qaratilgan. Ikkinchidan, akmeologiyaning tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak takomiliga erishishi, insonning etuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi hamda bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o'rganishi, ya'ni biron kasbga, sohaga astoydil mehr qo'yib, bilim va tajribaga tayanib,

maqsad sari intilib yashashini bildirishi hamda akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi ekanligining fanlar integratsiyasi kesimida kompleks o'rganilmaganligidadir. Shu bois ham fikrimizcha, akmeologiyani faqat shaxs kasbiy faoliyatining psixologik va pedagogik jihatlarini tadqiq etish inson resurslarining barcha imkoniyatlarini kompleks tarzda o'rganish y o'lida etarli emasligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalaridan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatilib kelingan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va ahloqiy nuqtayi nazardan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida to'la o'rganilmagan. «Akmeologiya», agar ularni hududga moslashtirilsa, insonshunoslikdagi barcha tajribalardan o'zining yuqori samaradorligi va ta'lim berishdagi ayrim qulayliklari bilan ajralib, o'quv jarayonining sifatini pedagogik mahoratdan ozod qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonining faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishini kafolatlashi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini beradi. Akmeologiya quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi. Birinchisi, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda maktabgacha ta'lim bosqichidan barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichidan bolalarni ta'limlashda sog'lom ijtimoiy-axloqiy muhitni yaratish, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e'zozlash, ahloqan pok, intellektua etuk, yuksak professional mutaxassis, ilg'or fikrli, salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan yuksak g'oyali kadrlarni tayyorlash hozirgi paytda ustuvor vazifalardan bo'lmog'i lozim. Ikkinchisi, zamonaviy tafakkur rivojida akmeshaxs qiyofasiga ahloqiy munosabat zarur. Zero, yurt ravnaqi, millat rivoji, barqarorligini akmeshaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bosqichidan barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatlar kabi uch asosiy jihatga e'tibor berish o'ta muhim va dolzarb masala bo'lib, maktabgacha ta'lim bosqichidan ijtimoiy jarayonlarning faol kechishida muhim omillardan hisoblanar ekan, shaxsning intellektual boy, yuksak ma'naviyatli akmeshaxs bo'lib etishishi «vaqt o'zagi» elagidan o'tgan ma'naviy merosga bog'liqligi maktabgacha ta'lim bosqichidan bolalar ongiga singdirib borilishi lozim. Uchinchisi, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan bir

davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim bosqichidan bolalar muammosini respublika oldidagi umumiy vazifalardan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Shu bois, maktabgacha ta'lim bosqichidan bolalar shaxsining shakllanishi, kamol topishi muammosini o'rganishda akmeologik bilimlardan foydalanish usuvor vazifalardan biri bo'lib qolmo'hi lozim. Umuman olganda, B.G.Ananovning fikriga ko'ra, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetqonda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bolishi mumkin». Va bularning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich, o'smirlik va etuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etukligi bo'lmog'i lozim.

Pedagogik akmeologiyaning ilmiy asoslari

Akmeologiya atamasi 1928-yilda rossiyalik psixolog N.A.Ribnikov tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kintilgan. Inson ontogenezidan keyingi bosqichlarida rivojlanib boradigan, etuklik bosqichigacha shakllanadigan, individual shaxsiy va subyektiv taraqqiyotida ko'tarilib boradigan cho'qqini ilmiy maktabning bu namoyondalari ko'pincha kulminatsiya yoki optimum deb ataydilar. Insoniyat tarixida fan, madaniyat rivojlanishida tub o'zgarish yasagan Uyg'onish davrining akmeologik tomoni shundaki, bunda insonning o'z -o'zini anglash tizimi va uning darajalarini aniqlovchi tashkiliy tuzilmalarning turli-tumanligidir. Bir soha akmesi, masalan, falsafa, boshqa soha va yo'nalishlar – astronomiya, matematika, meditsina va boshqa fanlar akmesi bilan bog'lanib ketdi. Ayrim manbalarda akmeologiya B.G.Ananov, V.M.Bexterev, V.N.Myasishev, E.S.Kuzmin, N.V.Kuzmina, N.A.Ribnikov va boshqalar tomonidan yaratilgan yangi fan, degan qaydga nazarimiz tushadi. Ammo bu kabi ta'rifning qanchalik to'g'ri ekanligiga albatta ilmiy nuqtayi nazardan qarash maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Sababi, akmeologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari tarixiy-falsafiy davrlar silsilasi bilan bog'liq. Ya'ni, akmeologik dunyoqarash qadimgi Yunoniston mutafakkirlari va zardushtiylik ta'limotining kitobi «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Hind episi «Kalila va Dimna» hamda Kaykovusning «Qobusnoma» asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda «akme» so'zi o'rnida «mukammallik», «oliy

nasab» kabi tushunchalar ishlatilgan, Kaykovusning «Qobusnoma» asarida har bir yosh kasb-hunar yolida ilm-bilim egallashi, aql-zakovatni charxlashi bilan birga eng oliy insoniy fazilatlariga ega bo'lsagina yuksak maqsadlarga erisha olishi mumkinligi to'g'risida so'z boradi. «Barcha donish va hunarimng sarmoyasi, – deydi Kaykovus, «adab, tavoze, hayo, pokdillik, bezorlik, sabr va matonatdir. Fazl egasi bo'lay desang, so'zlash va so'zlashish san'atini egalla, chunki aql, idrok bilan aytilgan so'z yoki harakat aql va hikmat ko'zining surmasi va do'sti yog'idur». Bizningcha, ilm-bilim va hunar egallash eng zaruriy jihat bo'lsa, ikkinchi muhim jihat – kishilar bilan doimiy muloqotda, munosabatda bolish har bir yoshdan ma'naviy, ahloqiy madaniyatni chuqur egallashni talab qiladi. Inson yoshi, vazifasi, faoliyatidan qat'i nazar doimo insonlar orasida yashaydi, o'qiydi va o'z faoliyatini namoyon etadi. Chunki har kim ilm-hilim egasi bo'lsa ham, o'z muomala, xattiharakati va odobida xato qilsa, saodatdan, boshqalar hurmatizmati, obro'si va qadrlashdan mahrum bo iadi. Zero, mustaqil yurtimizda maktabgacha ta'lim bosqichidan bolalari yanada aqli, dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega etuk va mukammal shaxs bo'lib etishlihlari uchun, eng avvalo, o'zlarida insoniy sifatlarni jo etmoqilari muhim.

Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, Sug'diyonada o'g'il bola besh yoshga etgach, yozuv va hisobga o'rgatilgan, 20 yoshga kirganida biron kasb, hunarni egallagan bola savdo-sotiqni o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi. Xalifalikning yangi poytaxti Bog'dodda 832-yili «Baytul hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil etilib, uning ehtiyoji uchun katta mablag' ajratildi. Uning qoshida ikkita rasadxona, ilmiy markaz tashkil etilib, dunyoning turli erlaridan avvallari bitilgan, ilmga oid adabiyotlar to'plandi. Ular yunon, lotin, hind, xitoy, fors va boshqa tillardan arabchaga tarjima qilindi, o'rganildi. Bunday ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish matematika, astronomiya, geografiya kabi fanlarning yaratilish va rivojlanish davri bo'ldi, desak, aslo adashmaymiz. Xorazmshox davlatiga xos osoyishtalik asosida moddiy ishlab chiqarish va madaniy rivojlanish jarayoni jadallashdi, shahar hayoti yuksala bordi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik turlari ko'paydi. Tog' jinslarini ishlash, shishasozlik, savdo-sotiq kuchaydi, Davlat boshqaruvi tizimida madaniyatni yaxshi anglagan, ilmli insonlar ko'paydi. Bu davrga kelib san'at, ayniqsa, devoriy tasvir, haykaltaroshlik, badliiy yog'och o'ymakorligi ham rivojlaridi. E'tirof etish lozimki, insoniyat olarni o'zining echilmagan jumboq va mo'jizalari bilan tabiatning ajoyib gultoji sifatida boshqa jonli mavjudotlardan o'z tafakkuri va aqli bilan ajralib

turadi. Shu bois ham, insoniyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich riyojlanishiga nazar tashlasak, har bir bosqichda o'ziga xos yangi-yangi cho'qqilar, muvaffaqiyatlar va komillik sari intilishini kuzatishimiz mumkin:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida inson o'z qo'l mehnati natijasi sifatida tanasining mukammallashishi va turli mehnat qurollarini shakllanishiga erishdi.

2. Quldorlik tuzumi davrida qishloq xo'jaligi va davlat boshqaruvi (siyosat)da o'ziga xos daraja, pog'onalariga erishdi.

3. Feodal boshqaruv va kapitalistik tuzumlarda inson nafaqat qishloq xojaligi, madaniyat, balki sanoat va ishlab chiqarishda (jumladan, paxtani qayta ishlash) katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

4. Sobiq turg'unlik davrida ham insoniyat ishlab chiqarish va sanoatni texnikalashtirishga erishdi. Ko'rinib turibdiki, insoniyat o'z taraqqiyoti davomida faqat mukammallik sari intilib, turmush sharoitini yanada yaxshilashga harakat qilib kelgan.

5. Hozirgi globallashuv davrida mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasiga yaqinlashmoqda desak, aslo xato qilmaymiz. Albatta, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan barcha dalillar, hammaga birdek malum. Ammo mukammallik, pog'ona, daraja, yuksaklik kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatib kelingan bo'lsada, uni ta'limot sifatida e'tirof etilmagan deyish to'g'riroq bo'lar edi.

Tabiiyki, akmeologiya fanining tarixiy va madaniy ildizlari uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Bu o'rinda bizga Avestoning kitobi, Bexustin bitiklari va hatto ajdodlarimiz qabr toshlaridagi yozuvlar ham muhim tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi «Avesto»da mukammallik haqida ayrim qaydlarni ko'rish mumkin: Ey olamni yaratgan Zot! Ey Haqiqat! Zamin, hammadan ko'ra baxtliroq bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qae? Axura Mazda javob berdi: — Bunday joy bir Ashavan uy tiklagan makondir. O'sha uyda Mo'bat ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi... Tevalar xo'raki farovon, yaxshi itlarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor. Farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go'zal bir hodisasi yaxshilikka qovushadi».

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida akmeologik qarashlar yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, kabi

allomalar asarlarida tariximiz va madaniyatimiz yorqin ravishda ko'zga ko'rinadi. IX – XII asrlarda va undan keyingi davrlarda mintaqamiz tarixiga oid solnomalar va risolalar talaygina yaratildi. Bular orasida «Buxoro tarixi», «Kesh va Nasaf o'tmishi», «Samarqand tarixi», «Xorazm tarixi» kabi i yoki bu hudud o'tmishi, aholi turish-iurmushi, siyosiy ijtimoiy ahvoli to'g'risida katta-kichik asarlar vujudga keldi. Mahmud Qoshg'ariyning uch jildlik «Turkiy so'zlar lug'ati» o'zbek va boshqa turkiy tillar tarixini o'rganishdagi muhim manbadir. Akademik B.Axmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» kitobida o'lka-miz tarixiga oid o'rta asrlarda yaratilgan etnish olti asarga izohlar beriladi.

Vatanimiz tarixini chuqurroq o'rganishda «Nizomul-mulkning «Siyosatnomasi», An-Nasaviyning «Sulton Jamshiddin Manguberdi», Sohibqironning «Temur tuzuklari», Ali Yazdiyning «Zafamomasi» Mirzo illug'bekning «To'rt ulus tarixi», Zahiriddin Boburning «Boburnoma», Abulg'ozixonning «Shajarayi turk», M.Solihning «Shayboniynoma» asarlari ham muhim manbadir. Akmeologiyada ob'ektiv va subyektiv omillarga katta e'tibor qaratiladi. Bu omillar o'zaro aloqadorlikda bo'lib, katta yoshdagi insonni akme darajasiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi. Markaziy Osiyoda IX – XII asrlar fan va madaniyatning yuksalishi, «uyg'onish», «tiklanish» ma'nosidagi renessans jarayoni bilan ifodalaniishi mumkin. Bunday holat ma'lum bir davrdagi alohida jamiyatning «akme»sini ifodalabgina qolmay, balki moddiy va ta'naviy taraqqiyotga erishish omillarini ham ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Kaykovus, Nizomulmulk, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tug'ma aks holda fikriy fazilatda mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmasligi, agar kasb-hunar fazilati tug'ma boiganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy bir majburiyat bo'lib qolishi, kasb-korlikda mukammallikka erishish uchun ham fikriy va aqliy fazilat, va ham tug'ma qobiliyatlarni birdek ishga solish, ta'lim va ta'lim, o'rganish orqali malaka hosil qilishi mumkinligi uqtiriladi. Me'morchilikdagi yangi g'oyalar, yangicha naqsh uslublarining rivojlanishi, binokorlikda pishgan g'isht ishlatish shular qatoridan o'rin olishi mumkin. Yoki Markaziy Osiyoda so'fiylik ta'limoti sifatida paydo bo'lgan qarashlarda insonning pok bo'lishi, Alloh yo'lida har qanday noma'qul ishlarni qilmaslik, adolatli bo'lish kabi xislatlarni rivojlantirgan.

XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida paydo bo'lgan jadidchilik harakati davri tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik kategoriyalarining shakllanishiga olib keldi. Jadidchilik harakatining fidoyilaridan Mahmudxoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziylarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G'arb ma'rifatchilari, faylasuflarining nazariy merosini egallashga intilish, ular mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishning garovi G'arb va Sharq madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqning ko'zini ochish va shu asosda mukammal jamiyatga ega bo'lish g'oyasi tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik tushunchalarining shakllanishiga olib keldi. Jumladan, Abdurauf Fitrat millatning saodati va izzati, albatta, shu millat oilalarining intizomiga tayanishi, qaerdaki oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va mastahkam bolishligi haqida fikrlarni e'tirof etadi. Umuman olganda, Sharq mutafakkirlarining qarashlarida kasb egallashda kamolotga erishish bilan birga uning ma'naviy-ahloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog'liqligi haqida so'z boradi.

G'arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar I.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, V.G.Ananov tomonidan shakllantirilgan va A.A.Bodalyov tomonidan rivojlantirilgan. Zarnonaviy akmeologiyaning vakili rossiyalik psixolog, akademik A.A.Derkachning ilmiy izlanishlari bu fanni institutsional bosqichga ko'tardi. Akmeologiyaning tabiiy fan sifatida shakllanishini izohlashda Frensis Galtonning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. U ijodiy faoliyatida insonning o'xshash qobiliyatlari, ozod iroda kuchli o'rgana turib uning toza nasli, ya'ni evgenik jihati atrof-muhitning holati bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqqidagi g'oyani ilgari suradi, I.Perna inson qobiliyatlari sifat mahsuldorligining turli psixobiologik omillarga bog'liqligini isbotladi. Insonning oliy va tuban nuqtalari, shaxsning etuk, mukammal, professional mutaxassis sifatida shakllanishi, uning «akme» cho'qqilarga erishishi barobarida ijtimoiy-axloqiy muhit hamda irsiy sabablar ta'sirida tubanlikka yo'l tutishi haqidagi g'oyalar bir guruh frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu olimlar ilgari surgan nazariyaning asosiy mazmuni inson tabiatining asosiy shakllanish sharti, avvalo, uning irsiylikida bo'lsa, so'ngra sog'lom turmush tarzining takomillasha borishidadir. Akmeologiya sohasi tadqiqotchilari – psixolog, pedagog va

faylasuflar B.B.Barsis, I.A.Bespalov, G.P.Verbitskaya, L.E.Elshina, S.E.Zakoviyashina, Y.P.Kostenko, N.V.Kurbet, N.V.Kozlova, Y.A.Lixachyova, O.V.Mixaylov, K.V.Petrov, V.N.Sofma, V.A.Semikov, I.N.Stepanova, O.V.Faller psixologik nuqtayi nazardan akmeformni o'rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmi rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish, turli kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning ish jarayoni, usullari ustida kompleks tekshiruvlar o'tkazish asosida yangi yutuqlarga erishishning institusional shaklini yaratish taklifini ilgari surdilar. Lekin, shuni aytish lozimki, ko'pchilik adabiyotlarda kasbhunar va kasbiy mahorat alohida, shaxs ma'naviy-ahloqiy kamoloti alohida tahlil qilinadi. Ammo bizning akmeologiya sohasida tahlil qilgan ilmiy asarlarimizda, olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda akmeologiyaning faqat psixologik, pedagogik va sotsiologik muammolari o'rganilgan. Jumladan, G'arb falsafasida kasb-hunar egallash moddiyunchilik nuqtayi nazaridan qaralib, mukammallikka erishish ijtimoiy-ahloq, xulq-odob qoidalari bilan chambarchas bog'liqligi hisobga olinmaydi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng olimlarimiz kasb-hunar egallashda mukammallikka erishish, kasbiy mahorat to'g'risida o'tmish mutafakkirlarining qarashlari, hozirgi zamonda turli kasblarning ijtimoiy-ahloqiy jihatlari to'g'risida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar.

Jumladan, akademik M.Xayrullaev, faylasuf olimlar X.A.Shayxova, Y.Jumaboev, A.Q.Qodirov, R.Nosirov, G.Navro'zova, M.M.Qahhorova, X.Rahmatovalar, filologlardan N.Komilov, S.Olim va boshqa mutafakkirlar turli kasb egalarining ahloqiy qiyofasi, ularning qanday ahloqiy fazilatlar va xulq-odob qoidalarini egallashlari lozimligi to'g'risidagi fikrlarni tarixiy falsafiy jihatdan o'rgandilar. Umuman olganda, mavjud tadqiqotlarda akmeologiya yaxlit va tizimli holda o'rganilmagan, uning maxsus fan sohasi, ta'limot silatida, qirralari, muhim xususiyatlari kasbiy etikasiz tasavvur qilib bo'lmasligi ochib berilmagan.

Shular asosida barcha fanlar qatori akmeologiyaning o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari yuzaga keldi.

- Birinchidan, tabiiy ilmiy yo'nalish – klassik tabiiy fanlarni murakkablashtiruvchi metodologik jihatdan intizom standartlari bilan (dalillar, mexanizmlar, qonuniyatlar, matematik modellashtirish) mustaqil fan sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan.

- Ikkinchidan, bir qator akmeologik masalalarni, tabiiy qobiliyat, genetik va psixofiziologik qobiliyatlar tarkibiy qismlari va professional mahoratli bo'lishda psixologik ko'nikma va boshqalarni hal qilishda

yoshlar fiziologiya; psixogenetika, mehnat psixofiziologiyasi tabiiy bilimlari apellyatsiya o'rnini egallaydi. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish yanada ko'p qirrada namoyon bo'ladi. Akmeologiya bir tomondan, inson haqidagi bu fanlarning genetik manbasi sifatida tarixan birgalikda rivojlanadi, ikkinchi tomondan, uarning fan sifatida erkin rivojlanishini shakllantirish orqali o'z ontologik ahamiyatini ko'rsatadi. Demak, akmeologiya fan sifatida kirib kelgunga qadar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika fanlari akmeologik masalalarga o'xshab ketuvchi professionalizm, ijod, salohiyat va gerontologiya masalalari bilan shug'ullangan. Ammo aynan mahoratning kamol topishi – akmeform cho'qqisiga erishishda asosiy urg'u berilishi avvaliga maxsus akmeologik masalalar tug'ilishi hamda keyinchalik o'ziga xos akmeologik texnologiyalarning konseptual-metodologik tuzilishiga olib keldi. Taraqqiy qilgan sayin asosiy fan, ya'ni akmeologiyaning maxsus ob'ekti va uslubi paydo boldi. Texnologik yo'nalish – bu nafaqat bir qancha texnik fanlar (kibernetika, tizimli texnika, ma'lumotlar nazariyasi va boshqalar) ning o'zaro harakati bo'lmay, balki ularni mavjud bilimlarni amaliyotga yo'naltirishda aniq dasturdan foydalanish hamdir. Bunda akmeologiyaning texnik qoidalar bilan o'zaro aloqasi o'z-o'zidan hosil bo'lmay, balki inson omillarini texnikaga moslashtirishga yo'naltirilgan ergonomika bilan bog'lanadi. Shu o'rinda, ya'ni qayd qilish lozimki, boshqa tarafdin ikki tomonlama ko'rinishda: gumanitar bilimlarning o'sishi (masalan, psixotexnika va o'yin texnikasi, innovatika va refleksika kabilari) natijasida texnik fanlarning insonparvarlashishi (bionika, sotsionika, sinergetika va boshqalarning paydo bo'lishi) – zamonaviy praktsiologiya doimo akmeologiya diqqatida bo'ladi. Umuman olganda, akmeologiya bugungi insonshunoslik fanlari orasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, yuksak professional kadrlar tayyorlash siyosatining ajralmas qismi desak, aslo xato qilmaymiz.

Akmeologiya predmeti va uning fanlar tizimidagi o'rnini

Akmeologiya bir qancha fanlar tizimida shakllangandir – *pedologiya* [grek tilidan pais (paidos) – bola + logiya, so'zma-so'z bolalar haqidagi fan] – bola rivojlanishining psixologik, biologik, sotsiologik va pedagogik qarashlari majmui;

– *gerontologiya* [grek tilidan gerontos – qariya + logiya, so'zma-so'z qariyalar haqidagi fan] – insonning qarish hodisalarini o'rganuvchi tibbiy-biologik va psixologik fanlar majmu;

– *akmeologiya* [grek tilidan akme – nimaningdir yuqori darajasi + logiya, so'zma-so'z eng yuksak darajalar haqidagi fan] – alohida inson va

odamlar uyushmasining rivojlanishidagi yuqori darajalarni va ularga erishish sharoitlarini o'rganuvchi fanlar majmui;

– *fenomen* [grek tilidan phainomenes – mavjud bo'luvchi, hodisa demak]. Akmeologik hodisalar – bu birinchidan, insonning individ – murakkab tirik organizm sifatida voqelikning turli tomonlariga munosabatlarning shakllanganligida namoyon bo'luvchi shaxs, arbob, va avvalambor mutaxassis sifatidagi aniq ko'rinishlaridir, ikkinchidan, bu avvalambor ulardan har birining jamiyatda bajaradigan roliga tegishli bo'lgan odamlarning kichik va katta uyushmalarini turmushi va hayot-faoliyati ko'rinishlaridir.

Ko'plab ilmiy tasniflarda insonning rivojlanishi ontognezda bolalik, kamolga erishganlik va qarilik davridan iborat bo'ladi. Insonni bolalik bosqichida o'rganuvchi fanlar doirasini pedologiya deb nomlash odat tusiga kirgan. Qarish va qariyalikni birgalikda o'rganuvchi fanlar majmui gerontologiyani tashkil etadi. O'rganish predmeti maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'limni va keying ta'limni kirishi bu fanni tez-tez akmeologiya deb nomlashmoqda. Ushbu fan ilmiy bilimning tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnik sohalarining to'qnashuvida yuzaga keldi, va u maqsadli va izchil ravishda maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'limni va keying ta'limni kirishi insonning erta, o'rta va kechki yetuklik (o'ta murakkab tirik organizm), shaxs sifatida (bu holatda, avvalambor inson tomonidan o'zlashtirilgan voqelikning turli tomonlariga bo'lgan munosabat) va faoliyat subyekti sifatida (asosan mutaxassis sifatida) shakllanishi fenomenologiyasi, qonuniyatlari va mexanizmlarini belgilab beradi.

Insonning etuklik davri ko'pincha uning oilada, maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda fuqaro, turmush o'rtog'i, ota-ona, mehnatini qandaydir muayyan sohasining mutaxassisi sifatidagi etukligi bilan tenglashtirilgan ekan. Akmeologiya muhitida tadqiqot olib boruvchi ayrim olimlar etuklik tushunchasini barkamollik tushunchasi bilan almashtiradilar, garchi bu tushunchalar bir-biriga teng bo'lmasa ham. Akmeologiyada bir biri bilan o'zaro ta'sirlashgan holda katta yoshli kishiga akme darajasiga etish imkonini beruvchi ob'ektiv va subyektiv omillarga katta e'tibor qaratiladi. Bu erda "Akme" tushunchasi haqida gap borib, bu yangi ilmiy fanning asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Va garchi "akme" tushunchasi mazmuni katta yoshli inson rivojlanishi haqidagi fan ixtisosligiga mos kelgan nashrlarda ko'proq qo'llanilib kelinayotganligiga qaramasdan, ushbu nashrlarda bu tushun-

cha turlicha talqin qilinadi. Ayrim holatlarda mualliflar "akme" haqida gapirar ekanlar inson salomatligida yuqori cho'qqini nazarda tutadilar, yoki uning oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda shaxs sifatida rivojlanishining yuqori darajasini, yoki uning subyekt sifatida qandaydir faoliyat bilan shug'ullangan holda o'zi uchun eng yuqori natijalarga erishgan holatini nazarda tutadilar. Bu holatda inson tomonidan erishiladigan akme qisqa vaqt oralig'i bilan chegaralangan holda bo'ladi.

Tadqiqotchilarning boshqa guruhi esa akme muammosini yoritir ekanlar, oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda inson hayotining ishga layoqatlilikning yuqori darajasiga xos bo'lgan, va uning shaxs sifatidagi fuqarolik faolligini amalga oshiruvchi hamda shu bilan birga o'z kasbiy imkoniyatlarini mehnatning o'zi uchun muhim bo'lgan kasbiy imkoniyatlarini samarali va ijodiy jihatdan unumli bo'lgan nisbatan uzoqroq vaqt oralig'ini nazarda tutadilar. Va nihoyat, "akme" atamasini ontogenezdagi inson rivojlanishi haqidagi bo'lim nomiga kirituvchi tadqiqotchilar mavjud. Ular sirasiga N.A.Ribnikov, undan so'ng B.G.Ananov va uning o'quvchilari va izdoshlari bo'lgan A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmin va boshqalarni kiritish mumkin. Aynan ular oilada, maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda insonni kompleks ravishda o'rganuvchi fanni akmeologiya deb nomladilar va bunda aynan etuklik pillapoyalarida ontogeneznining avvalgi bosqichlarida to'g'ri shakllangan inson odatda o'zini voqelik bilan boy aloqalarga ega bo'lgan faol arbob, mutaxassis sifatida namoyon qiladi, deb alohida ta'kidlab o'tadilar.

Katta yoshli kishi o'zining individga oid, shaxsiy va subyektga oid rivojlanishida ko'tariladigan cho'qqilarni esa ushbu ilmiy maktab vakillari odatda kulminatsiya (eng avj nuqta) yoki optimumlar deb ataydilar. Va agar B.G.Ananovning ilmiy maktabida insonning ontogenezdagi rivojlanishi jarayonini tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarni yoritishda va mos ravishda insonning psixikasi va ichki dunyosida bir yosh chegarasidan ikkichisiga o'tishda yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatadi.

Ushbu o'zgarishlarning sabablarini chuqurroq izohlashda psixologiyaga yondash bo'lgan ilmiy fanlar ma'lumotlarga murojaat qilinsa, katta yoshli kishining u tomonidan avvalgi yoshga oid bosqichlarda oilada, maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda mikroakme erishish yo'lini bosib o'tuvchi o'z akmesi yoki optimumiga tomon harakatlanishi va ushbu katta akme

o'zining barcha xususiyatlari bilan birgalikda ko'p yo'nalishli, bosqichli ravishda, ko'plab ob'ektiv va subyektiv sharoit va vaziyatlarning insonning shaxsiy hayot faoliyatini qamrab olgan holda o'zaro munosabati natijasi sifatida o'rganiluvchi, mohiyati akmeologiyada boshqa – tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnik fanlar bilan chambarchas bog'liqlikda ochib beriluvchi hodisa sifatida o'rganiladi.

Bugungi kunda predmeti yuqorida ochib berilgan akmeologiyadan tashqari, inson faoliyatining doimiy ravishda ko'p jihatli tabiatga ega bo'lgan, oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda ,ma'lum sohalarida kasbiy shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bilan bog'liq ravishda akmeologiyaning boshqaruv, pedagogik, harbiy, sport akmeologiyasi kabi tarmoqlari shakllanib bormoqda. Bundan tashqari, akmeologiyaning insonning oilada, maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda etukligi pillapoyasida va ayniqsa u tomonidan o'z jismoniy salomatligida, o'zining ma'naviy va fuqarolik imkoniyatlari ko'rinishlari va harakatlarida, shuningdek professional sifatidagi hatti-harakatlaridagi rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish qonuniyatlarida markazlashgan predmetini yuqorida aytib o'tilgani kabi tushunilishidan tashqari oxirgi yillarda ilmiy doiralarda akmeologiya predmetini nisbatan kengroq talqin qilish taklif etildi va bugungi kunda yanada mustahkamlanib bormoqda.

Uning tarkibiga oila, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va keying ta'limlarning mayda va yirik uyushmalarini, masalan, boshqaruv jamoalarini, sport jamoalarini, ishlab chiqarish uyushmalarini, siyosiy partiyalarni, etnos va davlatlarni, shuningdek, yangi fanning predmetini an'anaviy ravishda tushunilgani kabi, ular tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning natijasi akmega erishish bo'lgan, ularni rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish qonuniyatlari va mexanizmlarini izlash va tahlil qilishni ham kiritib boshladilar. Va bu holatda ular erishgan cho'qqilar, yoki ularning akmesi ham umumiy, o'ziga xos va ayrim xususiyatlari yuqorida aytib o'tilgan uyushmalarda ob'ektiv va subyektiv omillar sababli yuzaga kelgan o'zgarishlarni o'rganish jarayonida maqsadli va izchil ravishda aniqlanuvchi va ta'riflanuvchi asosiy hodisalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, boshqaruv jamoasi faoliyatida optimum qanday amiyatga ega, uni qanday xususiyatlar ifodalaydi va ushbu jamoa o'z akmesiga erishdi, deb ta'kidlash uchun u qanday talablarga javob berishi lozim, va nihoyat aytib o'tilgan jamoa o'z faoliyatida optimum darajasiga ko'ta-

rilishi, yoki o'z akmesiga erishish uchun qanday mexanizmlar ishlashi yoki harakatga keltirilishi lozimligihaqidagi vazifalar hal etiladi. Yoki boshqa misol: davlat o'z yuksalishiga erishdi, degani, uning siyosiy hayoti, iqtisodiyoti va huquqiy munosabatlari, uning madaniyati, oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda, fuqarolarining jismoniy va ma'naviy salomatligi, ularning ahloqliligi va farovonligining qaysi jihatlari aniq namoyon bo'lishi lozimligi, davlat haqiqatan ham gullab-yashnashi, va albatta, ushbu gullab-yashnash haqiqitan ham amalga oshishi uchun qanday mexanizmlar ishga tushirilishi va harakatga keltirilishi lozimligini aniqlash demakdir.

Shunday qilib, akmeologiya predmetining faqatgina insonning oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda etuklik bo'sag'asidagi rivojlanishi va u ushbu rivojlanish jarayonida qanday shartlar asosida optimumga etishi va bunda uning optimumi qay jihatda bo'lishi bilan chegaralanganidagi kabi, uning predmetini turli ko'rinishdagi uyushmalarning rivojlanishi va ular tomonidan rivojlanishning eng yuqori darajalarining egallanishiga imkoniyat yaratuvchi kengaytirilgan holda tushunilishida ham bazaviy daraja sifatida har birida u yoki bu inson o'z rivojlanishida erishgan cho'qqining muayyan jihatlari ob'ektlashtiriluvchi yoki birlashtiriluvchi shakllarning keng ko'lamlı kontinuumida aniqlashtiriluvchi akme namoyon bo'ladi. Shu sababli akmeologiyaning birinchi darajali vazifalaridan biri ushbu shakllarning qat'iy ilmiylik talablariga javob beruvchi tadqiqoti, ta'rifi va klassifikatsiyasidir. Va akmeologiya uchun yana boshqa bir muhim va o'ta darajada murakkab hisoblangan vazifa sifatida oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda o'zaro ta'siri natijasi inson yoki uyushma tomonidan "akme"ga erishish bo'lgan ob'ektiv va subyektiv majmualarning aniqlanishi namoyon bo'ladi.

Ko'pincha mehnatning bir-biridan o'ta uzoq bo'lgan sohalarida faoliyat yurituvchi odamlardagi akmening mohiyatga oid va qonuniy ta'riflari bir-biridan amiyatli jihatlariga ko'ra katta farq qiladi (masalan, lashkarboshining akmesi qishloq xo'jalik masulotlarining yangi turlarini topish bilan mashg'ul seleksioner-olim akmesidan). Ushbu akmelarning mohiyatiga kirib borish va ulardagi umumiy, alohida va yagonani tushunish, shuningdek, alohida odamlar yoki uyushmalar o'z akmesiga erishgan har bir alohida holatda harakatlangan qonuniyatlar va mexanizmlarni anglash uchun insonning ontogenezda rivojlanishini o'rganish

jarayonida (agar sizni aynan uning akmesi qiziqtirsa) va ko'plab fanlar tomonidan kichik va katta uyushmalarni o'rganish (agar bu safar ularning akmesi qiziqtirsa) hosil bo'lishi va faoliyatini o'rganish jarayonida olinadigan bilimlarga tayanish zarur. Shuningdek, ushbu bilimlarning hal etilayotgan vazifaning tabiatiga mos kelgan holda rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Agar inson yoki odamlar uyushmasining akmesi – ularning undan so'ng yoppasiga tanazzulga yuz tutish, ortga qaytish, va hattoki insonning o'limiga yoki har qanday uyushmaning yo'qolib ketishiga olib keluvchi stagnatsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan, rivojlanish jarayonining yagona global umumiy yakuniy avji yoki yuksak cho'qqisi degan xulosaga keladigan bo'lsak, bu holda biz umuman akmeologiya mohiyatini va rivojlanish natijalari moddiylashtiriluvchi “akme”ning mohiyatini dag'allashtirib yuborgan bo'larniz. Albatta, kundalik voqelikda aynan shu kabi yakun alohida shaxs va alohida uyushmalar uchun xaqiqatga aylanishi mumkin. biroq, ma'lumki, odam ham, ko'plab uyushmalar ham o'z ko'pincha o'z turmushlari davomida rivojlanish imkoniyatlarini turli yo'nalishlarda to'plab boradilar. Bir yo'nalishda rivojlanishning cho'qqisiga erishganlaridan so'ng, ular o'z harakatlarini o'sish darajasida davom ettiradilar, biroq endi boshqa yo'nalishda. Va bu erda oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda ob'ektiv holatlarning ularning o'z intilishlari bilan samarali jihatda uyg'unlashuvida maqbul ravishda kechishi natijasida ular ko'pincha o'z rivojlanishining keyingi akmesiga erishadilar. Shundan so'ng, inson yoki uyushma tushib qolishi mumkin bo'lgan yana yangi vaziyatlarning bir-biriga aniq mos kelishi, shuningdek ularning individual yoki jamoaviy harakatlar subyekti sifatida avvalgi yo'nalishda rivojlanishda davom etishi ularni yangi akmeга ega bo'lishlariga sabab bo'ladi. Yangi “yakme” aniqroq ko'rinishda taraqqiy etuvchi tabiatga ega bo'la boshlaydi, ayrim hollarda esa inson yoki uyushmada avval hech qachon bo'lmagan yo'nalish bo'yicha rivojlanishning majburiy sharti yoki asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, haqiqiy hayotda borar ekanmiz, oilada maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, umumiy o'rta ta'limda va keying ta'limda biz inson, ayrim hollarda uyushma rivojlanishining, rivojlanishning bir chizig'i va u tomonidan ushbu jarayonda erishilgan barcha narsalarini bir tomonga surib qo'ygan holda o'z rivojlanishini umuman boshqa, tamomila yangi yo'nalishda davom ettirgan holatlarga ham duch kelishimiz mumkin. oxirgi yillardagi Rossiyadagi voqelik rivojlanishning, odamlar

faoliyatini tashkillashtirishning umuman yangi shakllariga yo'naltiruvchi, ushbu uyushmaning avvalgi maqsadlaridan tamomila farq qiluvchi maqsadlarga erishishi, va ularning mohiyatini tubdan o'zgartirib yuboruvchi qator ahamiyatli o'zgarishlarga yo'naltiruvchi andozalarining maqsadga muvofiqligini yorqin tasdiqlarini namoyon qilmoqda.

Tabiiyki, agar akmeologiya doimiy ravishda hal etishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni nazarda tutadigan bo'lsak, ular faqatgina odamlarning individ, shaxs va faoliyat subyektlari sifatidagi odamlar (avvalambor, professionallar sifatidagi) "akme"sining aniqlanishi va tizimlashtirilishigagina bog'liq bo'lmaydi. Va ular insonlar o'z rivojlanishi jarayonida faqat birgina "akme" darjasiga erishsalar yoki birinchi "akme" ortidan ularda boshqa "akme"lar vujudga kelganda harakatga keluvchi qonuniyatlardagi o'xshash va farq iqluvchi holatlar aniqlanganda ham tugab qolmaydi. Akmeologiya tomonidan uyushmalar akmesining turlari va shakllarini aniqlash hamda uyushmalar tomonidan ularning "akme"sig'a erishishni belgilab beruvchi ob'ektiv va subyektiv omillarni o'zaro ti'sirida kuzatib borish vazifalarini hal etishda ham xuddi shu kabi holatni kuzatish mumkin.

Psixologik-akmeologik jihat mohiyati inson omilining davlat xizmatining qonuniy-me‘yoriy tizimidagi rolini o‘rganishdan iborat. Aynan akmeologiya o‘z e‘tiborini kasbiy mahorat va ijodiy mohirlikning davlat xizmati tizimida inson omilining asosiy jihatlari sifatida o‘rganilishi va rivojlanishiga qaratadi, ayni vaqtda psixologiya o‘z e‘tiborini uning individ-davlat xizmatchilariga xos bo‘lgan va ular tomonidan huquqiy jihatdan qonuniy-me‘yorlashtirilgan xizmat vazifalarini bajarishda faollashuvchi psixik jarayonlar va holatlar kabi tarkibiy qismlariga qaratadi. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan davlat xizmatini o‘rganishning huquqiy, siyosiy, psixologik va akmeologik yondashuvlarning turli jihatlarini o‘rganish endilikda uning ilmiy ta‘minlanganligining umumiy predmetini qurish maqsadida rivojlantirishga o‘tish imkonini beradi. Bu kabi rivojlantirishning ontologik asosi bir vaqtning o‘zida bir tomondan bu kabi voqelikning har bir fani uchun xos bo‘lgan jihatini aks ettiruvchi, boshqa tomondan esa uning faoliyatining asosiy vaziyatlariga ham kirib boruvchi mufassal, bazaviy toifalarni ajratib ko‘rsatishdan iborat. Davlat xizmatini (uning psixologik-akmeologik o‘rganishning hamda huquq va siyosatshunoslik bilan o‘zaro munosabatda ilmiy ta‘minotning asosiy predmeti sifatida) darajalarga ajratuvchi bu kabi mufassal tushunchalar sifatida quyidagi bazaviy umumpsixologik tushunchalarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq: o‘zini tutish, faoliyat, muloqot, tafakkur.

Haqiqatan ham, davlat xizmatining barcha sohalarida (huquq, siyosatshunoslik va akmeologiya tomonidan o'rganiluvchi) individ-davlat xizmatchisining ijtimoiy-kasbiy faoliyati tafakkur, faoliyat, muloqot, o'zini tutish haraktlarida amalga oshiriladi. Bu huquqiy sohada xoh qonun yaratish yoki huquqiy munosabatlar bo'lsin, xoh siyosiy sohada siyosiy etakchilik yoki elektoratning jalb qilinishi bo'lsin, xoh kasbiy sohada malakani rivojlantirish yoki karera qurish bo'lsin. Albatta, ushbu psixik faolliklarni ko'rsatib o'tilgan sohalarning har birida amalga oshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Faqatgina masalan, "qonunga bo'ysunish (yoki aksincha, qonunga qarshi)", "siyosiy xulq" va "professional (ishbilarmonlarga oid) xulq", shuningdek, "huquqiy faoliyat", "siyosiy faoliyat", "kasbiy faoliyat" yoki "huquqiy muloqot (o'zaro munosabat)", "siyosiy muloqot (kommunikatsiya)", "kasbiy muloqot" va nihoyat, "huquqiy ong", "siyosiy ong", "professional tafakkur" o'rtasidagi farqlarni aniqlagan holda bunga ishonch hosil qilish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan, ya'ni aynan kasbiy mahorat davlat xizmati tizimidagi inson omiliga yaxlitlik taqdim qiluvchi va bu bilan uning huquq va siyosatshunoslik bilan o'zaro munosabatidagi psixologik-akmeologik o'rganish va ilmiy ta'minlashning predmetini belgilagan holda tizim hosil qiluvchi bog'lanish hisoblanadi. Haqiqatan ham, oddiy fuqaro uchun "huquqiy tafakkur" faqatgina uning ko'p jihatdan g'ayrihuuriy ravishda harakatlanuvchi o'z-o'zini anglashning faqatgina dunyoqarashga oid elementi hisoblanadi.

Aksincha, aynan davlat xizmatchisi uchun ushbu "huquqiy tafakkur" uning professional tafakkurining (predmetga oid: bilimlar, qadriyatlar, mazmunlar va h.k. bir qatorda) asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Faoliyat, o'zini tutish va muloqot bilan ham shunday holat sodir bo'ladi – ularning barchasi faoliyati albatta professionallashtiriluvchi, qat'iy me'yorlashtirilgan davlat xizmati bilan qiyoslaganda etarli darajada betartib ravishda shakllanadi va amalga oshiriladi, o'zining aynan shu xususiyati tufayli ular davlat xizmatchisi (yoki har qanday menedjer kabi) yoki siyosatchining kasbiy mahoratining ajralmas qismiga aylanadi. O'z navbatida asosiy (davlat xizmatini ilmiy o'rganish predmetini aniqlab olish uchun) muammo vujudga keladi: aynan davlat xizmatchisiga bog'liq tarzda kasbiy mahorat tushunchasini aniqlashtiruvchi, uning o'ziga xosligini qamrab oluvchi mufassal toifa qanday ekan o'zi. Bu kabi mufassal toifa, davlat xizmatining ijtimoiy-huquqiy tizimida inson omilining bir butunligini tasvirlash va bu bilan uni huquq

va siyosatshunoslik bilan o'zaro ta'sirida psixologik-akmeologik jihatdan o'rganish va ilmiy ta'minlash predmetini izohlash imkonini beradi.

Davlat xizmatini o'rganish predmetini faqatgina uning psixologik-akmeologik jihatinigina ajratib ko'rsatishga qadar soddalashtiruvchi "professional tafakkur" tushunchasidan farqli ravishda "professional mentalitet" toifasi o'zida yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatni va shu kabi davlat xizmatining huquqiy va siyosatshunoslikka oid jihatini ham rivojlantiradi (vaholanki bunda ularni siyosatshunoslik va huquq darajasiga qadar soddalashtirmaydi). Bunda davlat xizmatchilarining kasbiy mentaliteti tuzilmasi turli darajalarning o'zaro munosabatlari yordamida ifodalangan: akmeologik, konseptual, texnologik, reflektiv, kommunikativ, axborotga oid. Shunday qilib, akmeologik darajada davlat xizmatchisining kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali uning o'zga davlat jamiyati, madaniyati va muayyan qadriyatlar tizimi, xulq va faoliyat, hamda sharoitdan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilish vositasida amalga oshiriluvchi, insonparvarlik, demokratik va huquqiy prinsiplar asosida quriladigan davlatchiligi bilan aynan tenglashtirilishi ta'minlanadi. Konseptual darajada esa ushbu tenglashtirish, amalga oshirilayotgan boshqaruv va ijro faoliyatining (yoki xulqning) uning ijtimoiy-huquqiy me'yorlashtirilishi kabi ilmiy-uslubiy va moddiy-axborot ta'minoti tomonidan belgilab berilgan maqsadlari, mohiyati, shakllari va vositalari haqidagi professional tasavvurlar tizimini shakllantirish orqali yuz beradi.

Texnologik darajada bajarilayotgan faoliyatni (yoki xulqni) amalga oshirishning professional usullari tizimini shakllantirish orqali uning maqsadlari, qabul qilingan qarorlari va hokazolarga erishish tomonga qo'yilgan aniq qadamlar (harakatlarni) izchil ravishda amalga oshirish ta'minlanadi. Reflektiv darajada – professional tahliliy, tanqidiy, prognostik va tashkiliy jarayonlar tizimini shakllantirish orqali amalga oshirilayotgan faoliyatning uni bajarish jarayonini optimallashtirish va olingan natijalarni izohlash uchun to'liq anglash, nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirish ta'minlanadi. Kommunikativ darajada professional kommunikatsiya tizimini shakllantirish orqali natijalarni bevosita tasvirlash va tushunish (qabul qilish)ga, sheriklar tomonidan uning bajarilishi bo'yicha faoliyatning amalga oshirilishiga erishiladi. Axborotga oid darajada kasbiy hujjatlar va boshqalar tizimini shakllantirish, qayd qilish (matbuot, faks, kompyuterlar vositasida), davlat xizmati tizimida ushbu ixtisoslik mutaxassislari uchun amalga

oshirilgan faoliyat natijalarining samaradorligi va ahamiyati haqidagi axborotni asoslash va etkazish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu erda biz tomonimizdan taklif etilgan davlat xizmatchisini o'rganishning bir butun predmeti va davlat xizmatining samaradorligini ilmiy jihatdan ta'minlash sifatidagi kasbiy mentalitetning refleksiv-akmeologik konsepsiyasi ushbu mentalitetni bir tomondan ijtimoiy-kasbiy tafakkurning o'ziga xos shakli sifatida, boshqa tomondan esa ijtimoiy-faoliyatga yo'naltirilgan refleksiyani refleksiv-professional madaniyat sifatida o'rganishni taqozo qiladi. Zamonaviy psixologiya va akmeologiyada biz tomonimizdan ajratib ko'rsatilgan davlat xizmatchisining kasbiy mentalitetining darajaga oid jihatlarini o'rganish va rivojlantirish konsepsilari va usullarining boy va konstruktiv vositalari mavjud. Ushbu usullar qadriyatga oid ko'rsatmalar, sabablar, o'z-o'zini baholash, tahlil qilish, refleksiya, ijtimoiy tafakkur, shaxs akmeologikligi, kasbiy va ijtimoiy o'sish, akmeogramma va kasbiy faoliyatning samarali algorimtlari, o'z-o'zini professional darajada takomillashtirish usullari, professional, refleksiv, kommunikativ ko'nikmalar va h.k. kabi elementlarni namoyon qilish, tuzatish va faollashtirish imkoniyatini beradi. Muayyan akmeologik tadqiqotlarning konstruktiv vazifalaridan biri yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullarni davlat xizmatchilarining kasbiy mentalitetiga tashhis qo'yish va uni rivojlantirishning samarali uslubiy tizimiga joriy qilishdan iborat.

Individga oid, shaxsiy va subyektga oid rivojlanishda odamlar tomonidan erishiladigan mikro va makroakmelarni aniqlash

Akmeologiya hal etishi lozim bo'lgan keyingi vazifa, insonda maktabgacha bo'lgan yoshda, o'spirinlik va o'smirlik yillarida shakllanishi lozim bo'lgan xislatlarni aniqlashdan iborat, bundan maqsad esa u o'zini etuklik pallasida barcha munosabatlarda muvaffaqiyatli namoyon qila olishidir. Shu bilan birga, garchi insonning etuklik pillapoyasida kuzatiladigan individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatidagi xususiyatlari doimo uning rivojlanishning avvalgi pillapoyalaridagi xususiyatlari bilan sababiy-oqibatga oid bog'lanishlar bilan bog'langan bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida birinchilari, ikkinchilari va uchinchilari ham doimo insonning hayoti kechgan umumiy va shaxsiy vaziyatlariga bog'liq bo'lib qoladi.

Insonda individga, shaxsiga va subyektga oid xususiyatlarning namoyon bo'lish tabiati va darajasini etuklik pillapoyasining jamiki davomiyligida zichlangan tekislik ko'rinishida tasavvur qilish mumkin emasligi haqida yuqorida gapirib o'tilgan. Ushbu pillapoyani bosib o'tar

ekan, inson parvoz va tushkunlik holatlarini boshidan kechiradi. Bu salomatlik holatiga ham, uning shaxsiy xususiyatlariga ham, va u o'zini faoliyatning turli ko'rinishlarida namoyon qilishiga ham tegishli. Ko'pincha katta yoshli inson organizmida tashqi tomondan sezilmaydigan, sekin yuz beradigan, uning atrofdagi voqelikni va undagi o'z o'rini tafakkur qilishida sodir bo'ladigan, muloqot tajribasini orttirish va faoliyat yuritish jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlar, uning jismoniy holati, harakatlarining ijtimoiy ahamiyati, faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichlarida ko'p yoki kam darajadagi ko'tarilishlar yuz berishiga sabab bo'ladi. Ayrim odamlarda individga, shaxsga, subyekt-faoliyatga oid xususiyatlari bir nechta, boshqalarda esa faqat bittagina bo'lishi mumkin. Va ularda inson uchun fuqarolik, mehnat qobiliyati, insonparvarlikning yuqori darajasiga erishilganligi ifodalanadi. Ushbu har bir inson uchun etukligining qaysidir vaqtga oid bo'lagiga mos keluvchi rivojlanish darajasi uning "akme"si, u erishgan cho'qqi hisoblanadi. U erishgan bu "cho'qqi" qanchalik yuqori bo'lishi, u qanchalik ko'p qirrali va boy bo'lishi, uning o'z akmesiga erishishdagi harakatlari natijalari qanchalik ulkan va yangilikka oid bo'lishi, bu albatta, inson o'z "akme"sigacha qadar bosib o'tgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yo'lga, u etuklikka erishgan davrida tushib qolgan ijtimoiy-psixologik vaziyatga bog'liq bo'ladi. Biroq, kamroq darajada uning "akme"sining miqdoriy-sifatga oid ko'rsatkichlar, insonda qanday dunyoqarash hosil bo'lganligi, qay darajadagi umumiy va maxsus intellekt shakllanganligi, qanday ma'naviy asos vujudga kelganligi va ijodkor qobiliyati qay tarzda rivojlanishiga qarab belgilanadi. Odamlar bir-biridan nomuvofiq vaziyatlarga qarshi tura olish va ularga qarshi chiqqan holda o'z niyatlarini amalga oshirish ko'nikmasi bilan farq qiladilar. Ularning o'zini namoyon qilishning muayyan sharoitlarini e'tiborga olgan holda baholanuvchi "akme"si doimo ular individ sifatida, shaxs va faoliyat subyektini sifatida nimaga arzishini (munosibligini) ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tilganlar bizga akmeologiya hal etishi lozim bo'lgan vazifalarning keyingi guruhini ochib beradi: bu akme hodisasini ilmiy jihatdan yoritib berish, turli odamlardagi umumiy va farq qiluvchi jihatlarni ob'ektivlashtirish, akmening sifat va miqdorga oid xususiyatlarini belgilab beruvchi omillar harakatini kuzatish. Oxirgisi inson tomonidan to'laqonli ravishda akme erishish va uning amalga oshishi uchun zarur bo'lgan qonuniyatlar va mexanizmlarni ochib berishning muhimligini anglatadi.

Inson tomonidan kasbni egallash jarayonini o'rganish

Insonning etukligi, uning tarkibida esa uning akmesi o'z ifodasini topgan xususiyatlari majmuining rivojlanishini o'rganishdan tashqari, akmeologiya etuklik va akmeni faqatgina inson tomonidan kasbni egallash va o'z kasbida mahorat darajasiga erishishni nazarda tutgan holda ilmiy tahlil qiladi. Kasbiy mahorat mohiyatini, unga olib boruvchi yo'llarni ko'rish va tushunish nafaqat nazariy, balki ulkan amaliy ahamiyatga ham ega ekanligi tushunarli. Mamlakatda siyosat, iqtisodiyot, boshqaruv muhitida, fanda, faoliyatning ko'plab boshqa sohalarida faoliyat olib borayotgan va shu bilan birga professional bo'lmagan odamlar soni nihoyatda ko'p. Va jamlangan holda bu kabi noprofessionallik davlatchilikni qurishda, iqtisodiyotda, tashqi va ichki siyosatda, sanoatda va qishloq xo'jaligida, ularni boshqarishda, ta'lim va tarbiya sohalarida hamda jamiyatning boshqa barcha jabhalarida katta yo'qotishlarga olib keladi. Noprofessionallik millatlararo munosabatlardagi keskinlikka, shaxslararo nizolarning ortib ketishi va odamlarni o'zini his qilishdagi noqulayliklarga olib keladi. Bundan akmeologiya muammolari doirasini ishlab chiqish qanchalik dolzarb muammo ekanligi ko'rinib turibdi: "kasbiy mahorat va uning asosiy xususiyatlari", "kasbga oid salbiy o'zgarishlarning oldini olish usullari", "kasbiy mahoratga erishish usullari" va boshq.

Insonning yuqori darajadagi kasbiy mahorati nazarda tutilganda u bilan nafaqat qobiliyatlarning yorqin rivojlanishi bog'lanadi, balki kasbiy mahorat namoyon bo'layotgan faoliyat sohasidagi keng ko'lamli bilimlar, shuningdek, ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish bilan ham aloqador ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Albatta, haqiqiy kasbiy mahorat doimo aynan shu faoliyatni amalga oshirishga kuchli va barqaror sababiy-hissiy yo'naltirilganlik va unda o'ziga xos, noodatiy natijalarga erishish bilan birga kechadi. Tabiiyki, agar insonda ushbu kasbiy mehnatni amalga oshirish uchun zarur salomatlik holati mavjud bo'lmasa oxirgisiga erishish imkoni mavjud emas.

Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq ravishda akmeologiyaning keyingi vazifasi faoliyatning turli sohalaridagi yuqori malakali professionallarning mehnat faoliyatini o'rganishda ularni birlashtirib turuvchi umumiyani aniqlash va shu yo'sinda yuqori darajadagi kasbiy mahorat kabi, unga muvofiq bo'lgan tushunchalarni ham ilmiy jihatdan aniqlashdan iborat. Haqiqiy chuqur va keng ko'lamli kasbiy mahorat (uni ko'plab etuk insonlar tomonidan egallanishi bunga guvohlik beradi) inson

u o'zini baxsh etgan faqat birgina faoliyat natijasida shakllanishi mumkin emas, ayniqsa, bu faoliyat o'z tabiatiga ko'ra o'ta murakkab bo'lsa. Yuqori darajadagi kasbiy mahorat garchi insonda o'z mohiyati kabi, shakliga ko'ra ham muayyan faoliyat talablari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maxsus qobiliyatlarining rivojlantirilishisiz mavjud bo'la olmasada, bu kabi kasbiy mahoratga erishishning muhim sharti, shuningdek, insonda umumiy insoniy qobiliyatlarning rivojlantirilishi va uning shaxsining ma'naviy ta'limlanganligini anglatuvchi, umuminsoniy qadriyatlarni o'zining shaxsiy qadriyatlariga aylantirilishi hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqori darajaga erishish imkoni, odatda, insonga etuklik davrida vujudga keluvchi kasbiy mahoratning eng muhim jihatlari anglab olish uchun, uni tashkil etuvchi psixik hosilalar insonning keng ko'lamda o'rganilayotgan shaxsiy va subyektga oid tuzilmasiga kiruvchi boshqa barcha xususiyatlari to'plami bilan bog'liqligini aniq ko'ra bilish uchun zarur. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda biz uchun akmeologiyaning vakolatiga kiruvchi yana bir muammo namoyon bo'lmoqda – bu etuklikka erishgan insonning kasbiy mahoratining o'ziga xos xususiyatlari va uning kasbiy faoliyati sohasidan tashqaridagi oxirgi boshqa ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqliklardir. Hayotdagi kasbiy mahoratning yuqori ko'rsatkichlarini kuzatish ko'pincha uning o'sishi, ayrim hollarda esa uning yo'qotilishi yoki professional shaxsning o'zining salbiy tomonga o'zgarishini qayd qilish imkonini beradi. Bu kabi holatlar sodir bo'lgan hodisalarni ta'riflash, ularni klassifikatsiya qilish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish – bu ham akmeologiyaning vazifasiga kiradi.

Agar mavhum sxemalarga emas, balki hayotning o'ziga u qanday bo'lsa, shundayligicha murojaat qilsak, biz unda umuman kasbiy mahoratni topa olmaymiz, balki faoliyatning muayyan sohalarida namoyon bo'luvchi odamlarning kasbiy mahoratiga duch kelamiz. Faoliyatning umumiy jihatlari bilan bir qatorda har bir holatda o'ziga xos xususiyatlari – muayyan sohalarini sanab o'tadigan bo'lsak, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: “inson – tirik tabiat”, “inson – umumiylik”, “inson – texnika va jonsiz tabiat”, “inson – inson”, “inson – belgili tizimlar”, “inson san'at ko'rinishlari”.

Faoliyat ob'ektlari, turli sohalarida faoliyat yurituvchi insonlar hal etishlari lozim bo'lgan vazifalardagi farqlar, har bir faoliyatda o'ziniki bo'lgan, yuqori darajaga erishish uchun qo'llash lozim bo'lgan “texnologiyalarning” bir-biridan farq qilishi. Bularning bari birgalikda aytib o'tilgan sohalaridagi kasbiy mahorat mohiyati va shakllarining

o'ziga xosligini belgilab beradi. Bundan tashqari, faoliyatning aytib o'tilgan sohalarining to'qnashuvida mavjud bo'lgan alohida turlari mavjud ekanligini nazarda tutish lozim, undan keyin, axir bo'ylamasi kabi ko'ndalangiga qaraganda ham har bir sohaning ichida doimo shu faoliyatni amalga oshirayotgan odamlarga bir-biriga muvofiq keluvchi talablarni qo'yuvchi ish o'rnlari, lavozimlar mavjud. Va albatta, sanab o'tilgan holatlarda haqiqiy professional qatorida bo'lish uchun inson o'zida tegishli qobiliyatlarni shakllantirishi va maqsadli tarzda bilim, ko'nikma, mahoratlarni mujassamlantirishi, shuningdek, ularni manzilli, ijodiy ravishda qo'llashni o'rganishi zarur.

Shunday qilib, akmeologiya tomonidan chuqurlashtirilgan holda va keng ko'lamda yoritib berilishi lozim bo'lgan yana bir, ko'p jihatli muammo namoyon bo'ldi. Shu bilan birga aytib o'tilgan yangi fan nazariyasini yaratish nuqtai nazari kabi, amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda o'z xususiyatlariga ko'ra o'ta murakkab bo'lgan kasbiy mahoratni o'rganishga yana bir yondashuv zarur. Iqtisodiyot, siyosat, sanoat va qishloq xo'jaligi, mafkura, fan, boshqaruv, ta'lim, harbiy ish, sog'liqni saqlash, madaniyat (tor ma'noda), huquqni himoya qilish organlari faoliyati, ommaviy axborot vositalari faoliyati, sport, xizmat ko'rsatish kabi sohalarida kasbiy mahoratning turli ilmiy darajalarda o'rganish, o'z ishining ustasi bo'lgan, mutaxassislarni o'rganish jarayonida olingan amaliy ma'lumotlarni anglashda albatta, ularning individlar, shaxslar, subyektlar sifatidagi xususiyatlari, ular mehnatini ta'riflash va klassifikatsiya qilishda yuqorida keltirilgan prinsipga ko'ra amalga oshirilgan o'ziga xos xususiyatlari ham uchrashi mumkin. Shu bilan birga, ulardan bir qismi har bir soha mutaxassisi uchun umuman yangi bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy xususiyatlarni ko'ra bilish zarur. O'z-o'zidan tushunarlik, bu holatlarning barchasida nafaqat ular qaysi kontekstga kiritilishi mumkinligini, balki uning tarkibiga qaysi ma'noda, qanday "salmoq" bilan kirib kelganligini aniqlash zarur. Aniqlangan kontekstdagi xususiyatlar bosqichma-bosqichligini aniqlar ekanmiz, ularning qay birlari aytib o'tilgan sohalaridagi haqiqatan ham yuqori darajadagi professional uchun o'rmini to'ldirib bo'lmaydigan va ularning qay birlari faoliyatga ziyon etkazmasdan turib boshqalari bilan almashtirilishi mumkin ekanligini belgilab olish zarur. Albatta, ushbu savollarga javoblarni faoliyatning yuqorida aytib o'tilgan mohiyatlaridan, ularda vujudga keladigan "shtatga oid" va "shtatdan tashqari", professional o'z faoliyati davomida foydalanishi mumkin bo'lgan muayyan vaziyatlardan va yana qator boshqa omillardan ajratgan holda

izlash mumkin emas. Bir soʻz bilan aytganda, akmeologiya va uning doirasida koʻzlangan yoʻnalish doirasida ilmiy izlanishlar uchun keng maydonni namoyon qilmoqda. Isbotlarsiz koʻrinib turibdiki, kasbiy mahorat choʻqqilariga erishish yoʻli uzun va murakkabdir. Har qanday usta – omilkor, oʻzi uchun asosiy boʻlgan, xoh u payvandchi yoki samolyotlar yaratuvchi boʻlsin, xoh tikuvchi yoki sarkarda boʻlsin, chorvador yoki ichki ishlar xodimi boʻlsin, oʻz faoliyatida betakror boʻladi.

Biroq, oxirgi aytilgan fikr, maktabgacha va boshlangʻich maktab yoshida boʻlgan bolaning faoliyati, munosabatlarini chuqur oʻylangan holda tashkillashtirilishi, maqsadli ravishda kasbga yoʻnaltirish, nazariy va amaliy jihatdan chuqur ishlab chiqilgan va samardorlikka tekshirilgan kasbiy taʼlimga yoʻnaltirish talab etiladi. Kasbiy rivojlanish yoshlarning umumshaxsiy rivojlanishi bilan birgalikda umumlashtirilsa, ularning hayotdagi asosiy holatlardan biriga aylanuvchi faoliyat turiga kirishib ketishlarini ahamiyatli darajada osonlashtirilishi inkor qilinmaydi va ularning har biriga faoliyatning individual uslubini ishlab chiqish va yuqori kasbiy mahoratga olib boruvchi xulq algoritmini izlash imkonini beradi. Oxirgi holatni alohida taʼkidlab oʻtish lozim, chunki agar insonda oʻz-oʻzini taʼminlash uchun talab vujudga kelmasa, uning tarbiyasi toʻliq amalga oshgan deb hisoblash mumkin boʻlmaganidek, kasbga qadar va kasbiy tayyorgarlikni ham, agar ushbu tayyorgarlikdan oʻtgan odamda kasbiy oʻsishga doimiy intilish namoyon boʻlmasa, toʻlaqonli amalga oshgan, deb hisoblab boʻlmaydi. Yuqorida aytilganlardan akmeologiya oldida turgan vazifa majmuaviy ishlanmalar orqali oʻz mustaqil faoliyatini boshlayotgan mutaxassisni kasbiy mahoratning nisbatan yuqori darajalariga olib chiqishni tashkillashtirish va amaliy jihatdan amalga oshirishning texnologik strategiyasi va taktikasini tashkil qilish ekanligi tushunarli boʻlib qoldi.

Ushbu oʻta sermashaqqat vazifani hal etish muayyan-sotsiologik, muayyan-iqtisodiy, pedagogik, psixofiziologik, psixogenetik, yoshga oid-psixologik, ijtimoiy-psixologik, differensial-psixologik tadqiqotlar, va albatta, koʻtarilgan muammo bilan bogʻliq boʻlgan mehnat psixologiyasi muammolarini bir butun tizimga birlashtirishni talab etadi. Olinayotgan maʼlumotlarni bir-biri bilan qiyoslashni amalga oshirish va ularni bir tizimga keltirish qanchalik murakkab boʻlmasin, hozirgi kunda akmeologiya tomonidan amalga oshirilmoqda. Kasbiy mahorat nuqtai nazaridan nafaqat mehnatning muayyan sohasida faoliyat olib borayotgan alohida inson, balki ular hal etilayotgan, bir-biridan hajmiga va tabiatiga

ko'ra farq qiluvchi uyushma – brigada, ekipaj, pedagogik jamoa, sport jamoasi, teatr truppassi, institut kafedrasi, hokimiyat va boshqalar vazifalari baholanishi mumkin va zurur. Va bu ham akmeologiya tomonidan yoritilishi lozim bo'lgan ko'plab muammolarga ega bo'lgan ob'ekt hisoblanadi. Bugungi kunda akmeologiya tomonidan hal etilayotgan eng muhim vazifa. Bu alohida inson kabi, odamlar uyushmasi tomonidan ham erishilgan kasbiy mahorat darajasini aniqlash imkonini beruvchi uslubiy vositalarni yaratishdan iborat.

Barchaga ma'lumki, akmeologiya hayotimizga ilmiy fan sifatida kirib kelar ekan, faoliyat sohasi insonlarning etuklikning individga, shaxsga va faoliyatga oid pillapoyalarni optimal darajada egallash va ularning har birining ushbu pillapoyalarda o'zlarini ijtimoiy jihatdan qadrligi va ijodiy jihatdan samarali namoyon qila olish sharoitlarini tashkillashtirishdan iborat bo'lgan mutaxassislar tomonidan uning chuqur o'zlashtirilishini talab etadi. Shu sababli akmeologiya bir vaqtning o'zida o'quv fani ham hisoblanadi. Shunday ekan, akmeologiya o'z vazifasini to'laqonli ado etishi uchun, akmeologiya va uning ahamiyatini, inson va jamiyat haqidagi bilimlar tizimidagi o'rnini chuqur va har tomonlama ochib berish, akmeologiya tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan qonuniyatlar va mexanizmlarni, shuningdek, akmeologiyaning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritib berish va yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu fan tinglovchilari e'tiboriga insonning individ, shaxs, faoliyat subyektini sifatidagi va etuklik pillapoyasidagi individualligi hamda uning keng tarqalgan yutuqlari yoki o'z rivojlanishining ushbu pillaposida erishgan cho'qqilarining asosiy jihatlari va turlarining ilmiy xususiyatlarini taqdim qilish usullarini ishlab chiqish zarur.

Agar turli hayotiy "o'zlashtirish mantig'i" kontekstlarga ishonchli ravishda kirishib ketgan etuklik "manzarasi"ning u yoki bu muayyan ko'rinishlari to'liq kuzatib borilmasa, shuningdek, insonga etuklik davrida o'zini shaxs sifatida va mehnatkash-ijodkor sifatida namoyon qila olishi uchun yordam ko'rsatishning muayyan samarali va ijtimoiy, psixologik usullari muhokama qilinmasa, ushbu holatlar mohiyatigina ta'kidlab o'tishning o'zi etarli bo'lmaydi. Va albatta, bu erda doimo katta yoshli inson nazarda tutilar ekan, akmeologiyani o'rganish jarayonida, ushbu fanni o'zlashtirgan holda biz amaliy jihatdan ushbu katta yoshli kishiga uning o'zining jismoniy salomatlik, fuqarolik, ma'naviyat, va albatta, uning uchun asosiy bo'lgan faoliyatdagi kasbiy mahoratga tomon harakatlanish "texnologiyasi"ni etkazib berish "tizimi"ni qurol qilib olishimiz zarur.

Shuningdek, jamiyatning turli ko‘rinishlari uchun rivojlanish fenomenologiyasi, qonuniyatlari va mexanizmlarini aniqlash va ushbu bilimlarni jamiyat oldida turgan vazifalarni nisbatan muvaffaqiyatliroq hal etish maqsadida qo‘llash o‘ta muhim.

Nazorat savollari

1. Akmeologiya vazifalarini tushuntiring.
2. Insonni etuklik pillapoyasida rivojlanishini majmuaviy ravishda o‘rganishni tushuntiring.
3. Individda oid, shaxsiy va subektga oid rivojlanishda odamlar tomonidan erishiladigan mikro va makroakmelarni aniqlashni tushuntiring.
4. Inson tomonidan kasbni egallash jarayonini o‘rganishni tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. “Akmeologiya asoslari”. – T.: Tafakkur bo‘stoni.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug‘at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. “Filosofiya va akmeologiya”. M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING METODOLOGIK PRINSIPLARI VA YONDASHUVLARI

Tayanch tushunchalar: *metodologiya, umumilmiy ta'limot, muayyan-ilmiy ta'limot, majmuaviy yondashuv, tizimli yondashuv, subyektga oid yondashuv. determinizm, rivojlanish, insonparvarlik prinsiplari, faoliyat subyektini, hayot faoliyatini, yashirin va dolzarb, operatsional-texnologik, aks aloqani o'rganish prinsipi.*

Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlar, majmuaviy, tizimli, subyektga oid

Pedagogik akmeologiya o'ziga xos ilmiy metodologiyaga egadir.

– *metodologiya (ta'limot)* – nazariy va amaliy faoliyatni tashkil-lashtirish va qurish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, ushbu tizim haqidagi ta'limot;

– *umumilmiy ta'limot* – ilmiy fanlarning etarli darajadagi katta majmuaga tarqaluvchi umumilmiy mohiyatga oid qarashlar tizimi, prinsiplar, yondashuvlar, umumilmiy tushuncha va toifalar;

– *muayyan-ilmiy ta'limot* – u yoki bu maxsus ilmiy fanda qo'llaniladigan prinsiplar, usullar, jarayonlar.

Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Majmuaviy yondashuv. XX asrda majmuaviy yondashuvning rivojlanishi polideterminatsiyalangan, murakkab tizimlashtirilgan ob'ektlar va mavjudlik sohasining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib qoldi. U bilim va fanlarning turli sohalarining o'zaro munosabatlarining ortib borishi tamoyilini, fanlararo tadqiqotlarning zarurligini ifodalaydi. Majmuaviy (kompleks) yondashuvning dastlabki rivojlanishi yondash biokimyo, geobiokimyo, psixofiziologiya kabi fanlarning tadqiqot sohalari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Keyinroq, bilimlarning ushbu yangi chegara sohalaridan tashqari, inson hayot faoliyatining chegaradoshlik prinsipi bilan ifodalanmagan turli sohalarini qamrab oluvchi muammolar vujudga kela boshladi. Ushbu muammolarning ko'pchiligi gipotetik mavhum tabiatga ega bo'lmagan, balki insoniyatning XX asrdagi rivojlanishining amaliy vaziyati tufayli vujudga kelgan. Bu atom va ekologik halokatlar, insonning kosmosga uchishi, OITS va saraton kabi o'lim darajasi yuqori bo'lgan kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishi, shuningdek, inson omilining turli jihat va o'zgarishlaridagi muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnik taraqqiyotining uzluksiz o'sib borishi.

Insonni anglashning yangi sohasiga olib kelgan majmuaviy yondashuvni ishlab chiqish taniqli pedagog olim B.G.Ananevning nomi bilan bog'liq. U insonni to'laqonli o'rganish va u haqidagi bilimlarni bilimning mustaqil sohasiga aylantirish yondashuvini izlash maqsadiga to'liq javob bergan. U tashkil etgan va rahbarlik qilgan kompleks tadqiqotlar ham aynan shu maqsadga yo'naltirilgan. Biroq, tabiatning turli jihatlar va insonning ijtimoiy mohiyati o'rtasida izlanayotgan aloqalar umumiy metodologik-nazariy andozalarga tayanmaganda, ular ushbu andozani izlash usullariga aylanib qolgan bo'lar edi. B.G.Ananev tomonidan ishlab chiqilgan kompleks yondashuvni tarixiy-psixologik jihatdan retrospektiv tahlil qilar ekan, uning o'quvchisi N.A.Loginova kompleks yondashuvning ko'p jihatlilik, ko'p omillilik, ontologik determinant va ontologik tarkibiy qismlar kabi ayrim umumiy ta'riflarini keltirib chiqardi. Uning nuqtai nazariga ko'ra ob'ektning yoki uning faoliyat sohasining umumiyliigi, tartiblilik va tashkillashtirilganligidan iborat bo'lgan tizimli yondashuvdan farq qiladi.

Kompleks yondashuvning psixologiyadagi o'ziga xosligini ochib berar ekan, B.F.Lomov, uni rivojlantirish tamoyili kompleks ravishda o'rganishni talab etuvchi fundamental muhim muammolarni aniqlash bilan bog'liq, degan fikrni ilgari surdi. Qator mualliflar kompleks yondashuvning jamlanmaligini, ko'p jihatlilikini, muammoga oid ekanligini darajalarga ajratadilar.

Akmeologiyaning mantiqqa to'g'ri kelmasligi shundan iboratki, umumiy metodologik prinsiplar va yondashuvlar unda yo'naltiruvchi vazifasini, uning predmetini aniqlovchi vazifasini bajargan holda osongina o'z ifodasini topadi.

Akmeologiyada kompleks yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u insonni o'rganishdagi umumiylik va haqiqiy amaliy takomillashtirilishida yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. U haqiqiy va ideal holat, tabiiy ravishda shakllangan va optimal xususiyatlar kabi turli jihatlarga ega bo'lgan aniqlovchilarni taqqoslashga yo'naltiradi. U rivojlanishning shaxsiy darajasini oliy, eng maqbul darajaga o'zgartirish usullarini taqdim qiladi, u ko'pincha inson faoliyati va uning rivojlanishining tarqoq jihatlarini birlashtiradi. Akmeologiyadagi kompleks yondashuv individuallik va subyekt sifatidagi istiqbollarni ochib beradi. U hayot va faoliyatdagi shaxs haqidagi tasavvurlarni birlashtiradi. Boshqacha aytganda, akmeologiyadagi kompleks yondashuvning asosiy vazifasi inson mavjudigining turli xislatlari, xususiyatlari, holatlari, modalliklarini rivojlantirishdan iborat. Shu jihatidan u Ananevning inson

haqidagi fanlarni insonni anglashning alohida sohasiga qadar rivojlantirish fikrlarining bevosita davomi sifatida o'rganilishi mumkin. Biroq, agar insonni anglashda, Ananevning fikriga ko'ra, kompleksning asosi *inson* bo'lsa, akmeologiyada kompleksning asosi inson mavjudligining eng murakkab va aniq darajasi sifatidagi *shaxs* hisoblanadi.

Akmeologiyadagi kompleks yondashuv nafaqat inson haqidagi fanlar, bilimlarning birligini, balki uning ontologik jihatdan turlicha bo'lgan xislatlari aloqalarining birligi va usullarini aniqlashga yo'naltirilgan. U gnoseologik emas, balki ontologik rolni bajaradi. Akmeologik kompleksdagi eng murakkab holat, tadqiqot va diagnostika yordamida shaxs rivojlanishining jarayon-amaliyotga oid bo'g'imi uning eng maqbul ravishda o'zgartirilishi bo'lgan dastlabki bosqichini aniqlashdir. Tadqiqot odatdagi kabi amaliyotga tatbiq qilinmaydi, yoki u tomonidan tasdiqlanmaydi, balki keyingi bosqichi akmeologik qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan kompleksning vazifaga oid mustaqil bo'g'imi bo'lib xizmat qiladi. Akmeologik qo'llab-quvvatlash diagnostik va tadqiqot bosqichi kabi, shaxsning hozirda mavjud bo'lmagan, biroq, kelajakdagi maqbul holati, maqbul modeli bilan ham bog'liq. Kompleks bo'g'imlari izchil ravishda va bir vaqtning o'zida nazariy maydonda ochib berilgan.

Tizimli yondashuv. *Tizimli yondashuvni* ishlab chiqish XX asrning Bertalanfi, Eshbi, Parsons (sotsiologiyada) nomlari, hamda kibernetika, semantika, sotsiologiya, psixologiya bilan bog'liq bo'lgan asosiy modernistik tamoyilni ifodalaydi. Tizimlilik prinsipi dastavval qonuniyatlar, aloqalar, tuzilmalarni izlashda ifodalagan holda muvofiq fanlar metodologiyalarida implitsit ravishda mavjud bo'lgan. Ma'lum bosqichda, fan metodologiyasining maxsus sohasida rivojlanishida u refleksiya predmetiga, ilmiy bilimning o'ziga xos mantig'iga aylanadi. N.F.Ovchinnikov, V.N.Sadovskiy, G.P.Shedrovskiy, E.G.Yudin va mamlakatimizning boshqa faylasuflari va ta'limotchilari tizimlilik prinsipini anglash va aniqlashtirishga ulkan hissa qo'shdilar.

Psixologiyada tizimlilik prinsipining rivojlanishi, uning asosiy holatlarini psixologiya muammolarini hal etish bilan birgalikda ishlab chiqqan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananevlarining nomi bilan bog'liq. B.F.Lomov tizimlilik prinsipining muayyan refleksiya, rasmiylashtirilishini amalga oshirgan holda mamlakatimiz psixologiyasida tizimli yondashuvning mashhur etakchisiga aylandi. Birinchidan, u psixologik bilimni tartibga keltirish, tizimlashtirish vazifasida amalga oshirdi. Ikkinchidan, tizimli yondashuv darajalarida

qator muammolarning aniqlanishi tufayli u yangi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini ochib berdi.

Akmeologiyadagi tizimli yondashuvning o'ziga xosligi, uning predmeti aniq darajaga oid tuzilmaga ega emasligidan iborat va ontologik jihatdan bir xil bo'lmagan, biroq, vazifasiga ko'ra yagona, maqbul holatga tomon harakatlanuvchi tizimni aks ettiradi. Tizimlar umumiy nazariyasida, ilmiy bilim sohasi mezonlariga ko'ra ijtimoiy, biologik va boshqa tizimlarga klassifikatsiya qilinishi bilan bir qatorda, sun'iy va tabiiy tizimlar bo'limlari ham mavjud. Akmeologiya sun'iy tizim bilan ham, tabiiy tizim bilan ham ishlamaydi, balki u tizimning tabiiy ravishda shakllangan holati va xususiyatidan maqbul holatga, oxirgisining mohiyatini modellashtirish vositasida haqiqiydan idealga o'tish va unga amaliy ravishda erishish mexanizmi va usuli bilan ishlaydi. Akmeologik tizim maqsadli, loyihalashtiruvchi modellashtiruvchi tabiatga ega. Ushbu tizim mohiyatiga kirib borish, tizimning o'zgarishi yo'nalishiga urg'u bergan holda tizimlarning tashkillashtirilganlik yuqoriligi va darajasiga ko'ra qiyoslash jihatini ajratib ko'rsatgan M.I.Setrov g'oyalarini o'rganish imkonini beradi. Tashkillashtirilganlik darajasining yuqoriligi nisbatan yuqoriroq sifatga oid darajaga o'tish, ya'ni vertikal bo'ylab tashkillashtirishning o'zgarishiga, tashkillashtirish darajasi esa ushbu xususiyat sarhadlarida, ya'ni gorizontol bo'yicha o'zgarishga olib keladi. Boshqacha aytganda, u tomonidan darajalar ierarxiyasi sifatidagi tizim emas, balki jamiki tizimning eng maqbulga o'tishi, o'zgarishi demakdir, ya'ni *nisbatan yuqoriroq darajada tashkillashtirilgan holat*. Bu yerda akmeologiyadagi tizimlilik mohiyati o'z vaqtida A.A.Malinovskiyning sharhlari K.A.Abulxanov-Slavskiyning e'tiborini unga jalb etgan "tashkillashtirish" tushunchasi vositasida aniqlashtiriladi. Bu tushuncha juda muhim, chunki gap, B.G.Ananevning ta'rifiga ko'ra sotsium, ijtimoiy munosabatlar tizimiga, mehnat, kasb, shaxsiy hayot tizimiga "qo'shib ketgan" shaxs tizimi haqida boradi. Ushbu tushunchaning afzalligi shundan iboratki, u shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan tashkillashtirish usullarini, ya'ni o'z-o'zini tashkillashtirishni, va unga bog'liq bo'lmagan, anglangan va anglanmagan, ob'ektiv, shuningdek, tashqi va ichki tashkillashtirilganlikni taqozo qiladi. Tizimni tashkillashtirishning yangi usuli ortiqchalik, betartiblikni minimallashtirgan holda nisbatan oddiy, yoki o'ta murakkab bo'lishi mumkin. Akmeologiyada tashkillashtirishning, quyida o'rganib chiqiladigan maqbullik yoki maqbullashtirish prinsipini ochib beruvchi *eng maqbul usuliga erishish talab etiladi*.

Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlar

Tizimning o'zgarishi jarayonida eng maqbul holatga erishish o'zgarishlar konstruktivligi, algoritmlar, akmeologik ko'makning vositaga oid-operativ vositalarining mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Subyektga oid yondashuv. Agar akmeologiyadagi kompleksning asosi avval aytib o'tilganidek, shaxs bo'lsa, akmeologik tizimning *tizim hosil qiluvchi omili* (B.F.Lomov ta'rifi ko'ra) *subyekt*, ya'ni *subyekt sifatida namoyon bo'luvchi shaxs* hisoblanadi. Bu akmeologiya shaxsni ob'ekt sifatida o'rganmaydi, degani emas, biroq, bu faqatgina ma'lum chegaralarga qadar shunday demakdir: uning dastlabki holatini o'rganish, diagnostika qilish, malakalashtirish. Shaxsni ob'ekt sifatida diagnostik jihatdan o'rganish natijalari shaxsni amaliy, real takomillashtirish jarayonlarining, ham subyektning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan (I.N.Semenovga ko'ra, o'z-o'zini takomillashtirishning refleksiv usullar asosi sifatida) takomillashtirish jarayoni kabi, ham akmeolog tomonidan subyekt bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan akmeologik qo'llab-quvvatlash, treninglar, o'yin texnikalari kabi zahiralari, manbalariga aylanadi. Pedagogika o'zining ta'sir ko'rsatuvchi, vazifa bajaruvchi, shakllantiruvchi yo'naltirilganligi bilan akmeologiyaga yaqin. Yaqin kunlarga qadar aynan pedagogika nafaqat shaxsda takomillashtirish jarayoni subyektini ko'rmagan, balki uni hattoki, shakllantiruvchi ta'sirlarni shaxsning real, mavjud xususiyatlari va xislatlariga bog'lash uchun tadqiqot, o'rganish ob'ekti sifatida ham nazarda tutmagan.

Subyekt prinsipi akmeologiya uchun paradigmal hisoblanadi. Shaxs bevosita takomillashtirish kabi, o'z faoliyati va akmeologik texnologiyalari vositasida bilvosita ifodalangan takomillashtirish subyektiga aylanadi. O'z-o'zini takomillashtirish muammosi faqatgina bir qarashda o'ta oddiy bo'lib ko'rinadi. S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra inson ichidagi mohiyatga oid dunyo uning hayoti va faoliyati natijasidir. Aslini olganda insonni o'z-o'zini takomillashtirish muammosiga ham aynan shu narsa taalluqli: o'zini yaxshilash emas, balki hayotda nimadir yaxshilik qilish zarur, maqsad shunday bo'lishi lozim, o'z-o'zini takomillashtirish esa faqatgina uning natijasidir.

Avval aytib o'tilganidek, *subyektga oid yondashuv* yoki prinsip akmeologiya paradigmasi hisoblanadi. Falsafa tarixida, mamlakatimiz psixologisi doirasida asrlar davomida u yoki bu darajadagi sur'atlar bilan o'rganib kelinayotgan subyekt prinsipi S.L.Rubinshteyn tomonidan uning ko'p jihatli va shu bilan birga tizim hosil qiluvchi sifatida faollashtirilgan va ishlab chiqilgan. Subyektning Gegel ta'rifi ko'ra tafakkur faolligi

manbai sifatida tushunishdan farqli ravishda Rubinshteyn uning ta'rifining boshqa toifalari, jihatlarini ajratib ko'rsatdi. XX asrning 20-yillaridayoq u subyektini insonning dunyodagi chekka emas, balki markaziy holatini ko'rsatib bergan holda mavjudlikni tashkillashtirish markazi sifatida belgilab berdi. U uning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini aniqlashtirish, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini ochib berdi. Subyektning asosiy jihati sifatida Rubinshteyn uning takomillashtirish qobiliyatini, insonning o'z rivojlanishi, idealining eng maqbul darajasiga erisha olish qobiliyatini ajratib ko'rsatdi. Shu vaqtdan boshlab rivojlanish ta'limoti gorizental bo'ylab harakatlanish, bosqichma-bosqichlikka bog'lanmaydigan bo'ldi. Inson rivojlanishidagi "vertikal", uning yuqoriga yo'naltirilgan tabiati namoyon bo'ldi. Shubhasiz, subyektini bu kabi anglash g'arbning insonning loyiha sifatidagi falsafiy g'oyasiga, Sh.Blyurning shaxsning o'z-o'zini amalga oshirishga bo'lgan tug'ma ehtiyoji haqidagi g'oyasiga juda yaqin. Biroq, S.L.Rubinshteyn tomonidan subyektga takomillashishga bo'lgan talabi va qobiliyati orqali berilgan falsafiy ta'rifi, gap shaxs haqida borganda psixologik va akmeologik jihatdan aniqlashtirishga muhtoj. Shaxs sifatida o'sish, shaxsni "etishtirish" (V.V.Davidov g'oyasiga ko'ra) g'oyasi avval aytib o'tilganidek, inson e'tiborini o'z "Men"iga yo'naltirishni anglatmaydi, o'z yutuq-kamchiliklarini reflektiv tarzda qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmaydi, o'z-o'zini takomillashtirishni bevosita hayot maqsadiga mujas-samlashtirmaydi.

L.S.Vigotskiy shaxsni insoniyat madaniyatiga olib kirish kabi muhim vazifani qo'ydi, biroq, uni o'rgatish, ta'lim berish vazifasiga bog'ladi. Aslida, shaxsni takomillashtirish bu nafaqat shaxs tomonidan insoniyat madaniyatini egallash, balki shaxs tomonidan "madaniy darajaga" erishish, shaxs tomonidan madaniyatni ishlab chiqish deb aytish mumkin. Ushbu vazifa faqatgina subyektning o'zi tomonidagina hal etilishi mumkin. Insoniyat uchun subyektlilik prinsipi tarixiy taraqqiyot g'oya-sida namoyon bo'ldi (garchi tarix na xukmdorlar, na xalqlar, umuman tarixiy jarayon taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olmasligini isbotlab bergan bo'lsa-da). Shaxs uchun subyektlilikka erishish avvaldan belgilab qo'yilgan me'yorga erishish emas (garchi shaxsga oid madaniyat mezonlari akmeologi va unga yaqin bo'lgan yo'nalishlarda izohlangan bo'lsa-da), balki *uzluksiz ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga intilish* demakdir. Shu nuqtai nazardan "akme" tushunchasi hayotiy harakat va rivojlanishning yakuniy nuqtasini emas, balki kelgusida harakatlanish uchun yangi sarhadlarni ochib beruvchi cho'qqini anglatadi. Bir vaqtning

o'zida subyekt bu muxtorit, mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyat demakdir.

Subyektning ko'plab turli yondashuvlari va ta'riflari shakllantirilgan. Subyektning falsafadagi, madaniyatdagi, revolyusiyaga qadar, Rossiya va chet el psixologiyasidagi turli konsepsiya va tushunchlarni tahlil qilish V.A.Tatenko tomonidan "Subyektg a oid o'lchamlar psixologisi" kitobida keltirilgan. Psixologiyadagi subyekt muammosiga bag'ishlangan mono-grafiya muallifi A.V.Brushlinskiy, shaxs doimo subyekt bo'ladi, deb hisoblaydi. Subyektning akmeologik prinsipining o'ziga xosligi egotsentrizm bilan ham emas, o'z-o'ziga munosabat bilan ham emas, tahlil qilish qobiliyatiga ham emas, va hattoki tashabbuskorlik va mas'uliyat faolligining namoyon bo'lishi bilan ham emas, balki avvalambor *turli ko'rinishdagi qarama-qarshiliklarni hal etish bilan*, ya'ni K.A.Abulxanova shaxsni subyekt sifatida baholashda birinchi va asosiy sifatda ajratib ko'rsatgan mezoni bilan bog'liq. Aynan qarama-qarshiliklarni hal etish subyektg a erkinlik, o'ziga ishonch, mustaqillik kabi tajribalarni taqdim qiladi, mutanosiblikka erishishiga sabab bo'ladi.

Qanday qarama-qarshiliklar nazarda tutiladi? Shaxs rivojlanishining mavjud holati, sifati, darajasi o'rtasidagi, uni tashkillashtirish va ijtimoiy sharoitlar hamda ideal bilan muvofiqlashtirish o'rtasidagi ziddiyatlar demakdir. Bu ushbu shaxs qobiliyatlari, individualligi, o'ziga xosligi, ehtiyojlari va u tegishli bo'lgan jamiyat va hayot talablari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Bu shaxsning genetik jihatdan belgilab qo'yilgan ehtiyojlari, uning imkoniyatlari va ularni amalga oshirish me'yori, u erisha olgan o'z-o'zini amalga oshirish darajasi o'rtasidagi ziddiyatlardir. Bu shaxs faoliyati, intilishlari va ularning natijalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va h.k. Ularni hal etar ekan shaxs subyekt sifatida o'z etukligiga erishadi.

Akmeologiya uchun subyektlilikning *ikkinchi mezoni* o'z hayot faoliyatining tashqi va ichki sharoitlariga egalik qilish erkinligi, shaxsning o'zini va boshqa odamlarni hayot munosabatlarining tarixiy etuk munosabatlari subyekti sifatidagi eng maqbul rivojlanishini qurish qobiliyati hisoblanadi. Shaxsning hayotiy munosabatlari tizimi va uning rivojlanishining umumiy psixologik-pedagogik prinsipi. Va nihoyat, shaxs subyektliligining eng muhim mezoni, shubhasiz bazaviy shaxsiy ta'limni aks ettiruvchi "Men-konsepsiyasi"ning mavjudligi, biroq, u o'zining muayyan arxitektonikasida, o'zining mutanosibligida shaxsning subyektliligi darajasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. O'z davrida shaxsg a oid tuzilmaning asosiy tarkibiy qismlarini o'zining "Umumiy

psixologiya asoslari” asarida ta’riflar ekan, Rubinshteyn uning tarkibiy qismlari sirasiga uch jihatni kiritadi: inson nimani *xohlaydi* (bu uning talablari, sabablari, faoliyati), u nima *qila oladi* (uning qobiliyatlari, imkoniyatlari, manbalari), va nihoyat uning *o’zi nima* (uning dunyoqarashi, tabiati qanday va h.k.). Agar istaklar qobiliyatlarga mos kelmasa, tabiat esa qobiliyatlarni istaklarni amalga oshirish yo’lida qo’llash imkonini bermasa, shaxsiy ziddiyatlar sotsium bilan qarama-qarshiliklarga olib keladi. Ushbu tarkibiy qismlarni uyg’unlashtirish subyektning yuqori darajadagi imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Psixoijtimoiy yondashuv mamlakatimiz fani uchun, garchi u chet el asarlarida ancha yildan buyon o’rganib kelinayotgan bo’lsa-da, etarli darajadagi yangi metodologik tabiatga ega. Mamlakatimiz psixologiyasida K.A.Abulxanova-Slavskaya Rossiya mentaliteti va ijtimoiy tafakkur krossmadaniy tadqiqotlarini olib borish bilan bog’liq ravishda ushbu prinsipni ishlab chiqishga murojaat qildi. Psixoijtimoiy yondashuv mohiyati o’rganilayotgan ob’ektga tomon aprior andoza yoki nazariyadan emas, balki uning *haqiqiy holatining* tarixiy, ijtimoiy, madaniy, shaxsga oid determinatalarini aniqlashdan, harakatlanishdan iborat. Psixoijtimoiy tadqiqot predmeti mavhum shaxs emas, balki muayyan Rossiya, Fransiya yoki boshqa jamiyatda yashovchi shaxs, uning tafakkurining o’z hayotining tarixiy, biografik holatlari, hayotiy qarashlari, milliy, kasbiy tegishliligi, yoshi, jinsi bilan belgilanuvchi o’ziga xosligidir.

Akmeologiya aynan shu turdagi tadqiqotlarni olib boradi. Avval aytib o’tganimizdek, uni davlat xizmatchisi, boshqaruvchi, pedagog shaxsi, ushbu shaxsning kasbiy maqomi, uning ta’limi, kasbiy staji, yoshi va h.k.lar qiziqtiradi. Tadqiqotning bu kabi turi mumtoz psixologik tadqiqotlardan nimasi bilan ajralib turadi? Axir psixologiyada tanlovlar sifatida shakllangan holda goh o’qituvchilar, goh talabalar, goh vrachlar o’rganiladi, ularning yoshi va jinsi e’tiborga olinadi. Biroq, akmeologiyada tanlov asosiy emas, balki qo’shimcha o’zgaruvchi sifatida xizmat qiladi, vaholanki bunda kompleks o’zgaruvchi sifatida o’z jihatlarining jamiki majmuida kasbiy faoliyatining muayyan turi subyektii sifatidagi shaxs namoyon bo’ladi.

Pedagogik akmeologiyaning umumiy metodologik prinsiplariga determinizm, rivojlanish, insonparvarlik kabilar kiradi.

Determinizm prinsipi. Subyektga oid paradigmaning hukmronligiga, subyekt toifasi rolining tan olinishiga, asr boshida fizikada tanqidiy ravishda engib o’tilgan, biroq, psixologiyada hukmronlik qilishda davom etib kelayotgan determinizm prinsipining mexanik chiziqli tushunilishini

engib o'tish kabi murakkab jarayon sabab bo'lgan. Biroz oldinga o'tgan holda, shaxsning gumanitar fanlarda ijtimoiy determinatsiyasi prinsipiga murojaat qilar ekanmiz, aytish mumkinki, mamlakatimiz dunyoqarashida mexanistik determinizm, qat'iy tashqi determinatsiyaning tan olinishi ijtimoiy determinatsiyaning hal etuvchi rolini mafkuraviy tan olinishiga, marksistik mafkuraga asoslangan holda mavjud bo'lgan. S.L.Rubinshteyn determinizmning yangicha, psixika, shaxs tabiatining o'ziga xos xususiyatlari talablariga javob beruvchi prinsipini shakllantirdi.

Bu kabi prinsipga ko'ra, tashqi sharoitlar ob'ekt mohiyatini va unga ta'sir ko'rsatish natijasini qat'iy va bir ma'noda emas, balki ichki sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilab beradi. S.L.Rubinshteynga ko'ra, har bir hodisaning boshqasiga har qanday ta'siri, ushbu ta'sir ko'rsatilayotgan hodisaning ichki xususiyatlari orqali o'zgartiriladi. Hodisa yoki predmetga ko'rsatiladigan ushbu ta'sir natijasi nafaqat unga ta'sir ko'rsatayotgan hodisa yoki jismga bog'liq bo'ladi, balki ushbu ta'sir ko'rsatilayotgan predmet yoki hodisaning shaxsiy ichki xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Inson hayotiga nazar tashlar ekanmiz, biz psixik hodisalar unga qay tarzda o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'lovchi sifatida, hayot sharoitlariga bog'liq bo'lgan va insonlar xulqini belgilab beruvchi ravishda kirib borishi hamda ular vositasida ushbu sharoitlarning o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

S.L.Rubinshteyn, deb ta'kidlaydi K.A.Abulxanova-Slavskaya, nafaqat tashqi ta'sirning ichki ta'sir roliga o'zgartiruvchi, bilvosita ta'siriga, balki uning faollik, o'ziga xoslik, tanlab olish kabi xususiyatlariga ham e'tibor qaratadi. Determinizm prinsipini bu kabi izohlashda nafaqat sabab va oqibatlarining aloqasi qonuniyatga aylanadi, balki ichkining roli ham qonuniyatga aylanadi.

Akmeologiyada determinizm prinsipining o'ziga xosligi bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. *Birinchi* yo'nalish shundan iboratki, dastavval "ichki" holat "tashqi" bilan o'z birligida va statik, ayni vaqtda berilgan, betartib yoki avvalroq tasodifiy ravishda shakllangan jihatda o'rganiladi. Akmeologiya "ichki"ni uning eng maqbul yo'nalishda rivojlanish mantig'i sifatida ochib beradi. Rivojlanish qonuniyatlari bu chiziqli gorizontol rivojlanish emas, balki yuksalish qonuniyatlaridir, bu haqda quyida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Ushbu ichki qonuniyatlarni, rivojlanish mantig'ini bilish, rivojlanish jarayonini tezlashtirish, uni amalga oshirish usulining konstruktivligi uchun qo'llanishi mumkin.

Determinizmning ikkinchi o'ziga xos xususiyati akmeologiyada shundan iboratki, rivojlanishni tizimli tashkil qilish omili yoki harakatga

keltiruvchi kuch shaxsning o'zi hisoblanadi, uning mexanizmi sifatida esa o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tashkillashtirish namoyon bo'ladi (rivojlanish jarayonini tashqaridan boshqarishdan farqli ravishda).

Uchinchisi, shaxsni takomillashtirish jarayoni qo'shaloq, ya'ni ham ichki, ham tashqi determinatsiyaga ega ekanligidan iborat, bunda hal etuvchi rolni ichki determinatsiya, ichki harakatga keltiruvchi kuchlarning ozod etilishi, implitsit imkoniyatlarni aniqlash o'ynaydi. Biroq, tashqi akmeologik yordam faqatgina u shaxsga subyekt sifatida yo'naltirilganligi sababli ko'rsatilishi mumkin, ya'ni ichki mexanizmlar, sharoitlarning hal etuvchi rolini tan olishga quriladi. Manipulyatsiya, odamlarni qattiqqo'llik bilan boshqarish, o'rgatish (dressura) turidagi o'qitishlar, ko'pincha qisqa muddatlarda natijaga erishish imkonini bergan holda, hech qachon odamlarning mustaqil faoliyati sohasida, dressura bilan qamrab olinmagan, murakkab vaziyatlarda hech qachon samaradorlikka olib kelmagan. Asosan subyektning ichki eng maqbul, uyg'unlashgan, tartibga solingan sharq meditatsiya turidagi treninglar ham mavjud bo'lgan. Biroq, u bu kabi holatga erishgan holda samarali ravishda harakatlanish imkoniga ega bo'lmay qoldi, tizimning tartiblilikini uning harakatlanish tartibiga o'tkazish holati yuz bermagan. Tartiblilik, maqbullik faqatgina statikada saqlanib qolgan. Akmeologiya determinatsiyaning o'zining muayyan tushunishi va ham ichki, ham tashqi, ham bevosita usullar yordamida optimum faollikka erishish ushbu muhim ahamiyatga ega bo'lgan xulosani buzib yuboradi.

Shaxsning ijtimoiy bog'liqligi prinsipi uzoq vaqt davomida mamlatimiz psixologiyasida determinizmning ichki roli sifatidagi imkoniyat tarzida tushunish sifatida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, psixologiyada uning absolyutlashtirilishi L.S.Vigotskiy, A.N.Leontevlar maktabi bilan bog'liq, chunki ular dastavval bolaning rivojlanish muammosini ishlab chiqqanlar va uning ijtimoiylashtirilishiga, ya'ni ijtimoiy umumtarixiy tajriba, madaniyatning o'miga urg'u berganlar. Madaniy-tarixiy nazariyaning mashhur nazariyotchisi, uning ta'limdagi o'rini faollashtirish uchun ko'p ish qilgan P.Ya.Galperin, psixika biz undan nima qilgan bo'lsak, shu narsa ekanligi haqidagi tezisni ilgari surdi. Biroq, ijtimoiy tashqi determinatsiyaning hal etuvchi roli haqidagi holatlar boladan katta yoshli insonga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'chirildi va h.k. Ularga universal tabiat taqdim qilindi.

Katta yoshli shaxs uchun ijtimoiy sharoitlar endilikda madaniyat roliga, harakat usullariga, o'zini tutish ko'rinishlariga, o'zlashtiriladigan bilimlarga borib taqalmayapti. Ular ko'pincha qat'iy talablar, cheklovlar

sifatida namoyon bo'ladi, shaxs ularga moslashishga majbur. Ushbu sharoitlarning o'rni, ularga moslashishni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur, ularni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish va muxtoriyatga qarshi qo'ymaslik zarur. Muammo nisbatan murakkabroq: shaxs sotsium qo'g'irchog'iga aylanganda yoki ortda qolganda shaxs bo'la olmaydi va shaxs bo'lib qola olmaydi. U tashqi ijtimoiy determinatsiya va ichki talablar, istaklar, qobiliyatlar, o'ziga xos xususiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etishga majbur. Ushbu ziddiyatlarni hal etgan holda shaxs aynan shaxsga aylanuvchi mohiyat K.A.Abulxanova-Slavskaya asarlarida, jumladan individual va ijtimoiy qiyoslash prinsipini tahlil qilishda batafsil ochib berilgan.

Bugun ijtimoiy determinatsiya muammosi akmeologiya uchun umuman boshqa jihatdan namoyon bo'lmoqda. B.G.Ananov ham yaqin kelajakni ko'ra bilgan holda, nafaqat zarur bilimlarni etkazish, balki insonni hayotga tayyorlash zarurligi haqidagi g'oyani shakllantirdi. Ijtimoiy determinatsiya zamonaviy, ayniqsa, Rossiya jamiyati uchun uning aniqligida emas, aksincha noaniqligida, o'zgaruvchanligida, ziddiyatligida, avvaldan aytib berish imkoni mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ijtimoiy determinatsiya – bu oddiy va toifaga oid ko'rsatma emas, balki shaxs oldida turgan ijtimoiy muammolardir.

Avvaldan aytib berish sohasidagi mashhur amerikalik mutaxassis Djon Neysbit, insoniyat texnologiyaning yuqori murakkabligi va tarixdagi inson uchun eng yuqori darajadagi sinovlarga tomoni ikki yo'nalishda harakatlanayotganligini ko'rsatib o'tgan holda jamiyat va uning rivojlanishini qayta tizimlashtirishning o'n nafar asosiy tamoyillarini aniqladi: texnika qanchalik murakkab bo'lsa, sinov ham shu darajada jiddiy bo'ladi. Ushbu formula jismoniy va ma'naviy voqelik o'rtasidagi muvozanatni topish zaruratini aks ettiradi. U asosiy tamoyil barcha ijtimoiy jarayonlarni, ziddiyatlarni, qarorlarni individual darajaga o'tkazishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bundan shaxsning nafaqat mavhum-insonparvarlik talabi, balki uning ortib boruvchi va ijtimoiy roli kelib chiqadi. Neysbitning ta'kidlashicha, jamiyatning markazlashtirishdan chetlashishi, jamiyatning hududlashtirilishi, ieraraxiyalashtirilgan va markazlashtirilgan institutlarning parchalanishi bilan bir qatorda u o'z-o'ziga yordam ko'rsatish tamoyili deb atagan o'ziga xos yo'nalish rivojlanib bormoqda. Ushbu taxminda, shaxslar ijtimoiy hayotning har qanday usullar yordamida bo'lsa ham boyitish yoki yashab qolishga urinish usulini tanlashda o'z holiga tashlab qo'yilgan zamonaviy Rossiya

jamiyatining holatini ko'rish qiyin emas. Nafaqat totalitarizm prinsipidan voz kechish, balki jamiyatning o'zgarishi holati, uning qator sohalaridagi inqiroz holati, shaxsni o'zining avvalgi kasbiy, hayotiy vaziyatlarini, odatlarini (vasiylik, kafolatlangan oylik maoshi, odatiy ish va h.k. odatlarini) yo'qotib qo'ygan, murakkab, ziddiyatlarga to'la sotsiumda yana qaytadan o'z yo'lini topishga majbur bo'lgan real birlikka aylantirib qo'yganligini ko'rish qiyin emas.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy hayotiy o'zgarishlarning insonning shaxsiy xususiyatlariga *mutanosibligini* izlash kabi global muammo vujudga keldi. Modernizatsiyalash mafkurasi fundamental ilmiy bilim, fanning amaliyot bilan aloqasi, kasbiy mahorat o'rnining oshirilishi shartlariga asoslanadi. Akmeologiya shaxs haqidagi yangi fan sifatida bugungi kundagi murakkab, o'zgaruvchan sharoitlarda ushbu vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan. Insonni takomillashtirish doimo hattoki eng murakkab ijtimoiy davrlarda ham uning dunyoqarashida mavjud bo'lib kelgan. Biroq, akmeologiyada ushbu insonparvarlik g'oyasi o'z ijtimoiy talabiga ega bo'ldi, u insonni takomillashtirish vazifasini san'at uchun san'at prinsipiga ko'ra emas, balki B.G.Ananov bashorat qilganidek, uning hayotiy kuchlarini mustahkamlash maqsadida hal etadi. Cho'qqiga, malakaga, kasbiy mahoratga erishish ijtimoiy zaruratga aylandi.

Rossiyada yuz bergan o'zgarishlardan ancha avval eng ziyrak mehnat nazariyachilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar insonning, zamonaviy mehnat, texnika, ishlab chiqarish tabiatiga mos kelishi lozim bo'lgan intellektual sohasini takomillashtirish muammosini ilgari surganlar. Intellektual sohani takomillashtirish xodimlarning fan yutuqlarini, taraqqiy etuvchi texnologiyalarni ijodiy ravishda qo'llashlarini, shuningdek, ularning tajriba o'tkazish, tadqiqot olib borish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish olish imkoniyatlarini ratsionallashtirishni talab etadi.

O'tmishning asosiy ijtimoiy muammosi shundan iboratki, jamiyat alohida yirik olimlar, kashfiyotchilarning intellektual manbalaridan foydalangan holda, intellektual imkoniyatlarni oqilona rivojlantirish va ongli ravishda qo'llashga qodir bo'lmagan. Akmeologiya esa o'z navbatida shaxsning zamonaviy sotsiumdagi o'rni anglashda uning faoliyatining mustaqilligiga, uning mas'uliyatiga, tanlangan kasbga o'zining mos ekanligiga shaxsiy kafolatiga, ijtimoiy roliga yo'naltirilgan. Agar ijtimoiy determinatsiyaning avvalgi tushunilishi tashqi ta'sirlarning insonga nisbatan hal etuvchi rolini tan olishdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda akmeologiya uchun ahamiyat kasb etuvchi hodisa tamomila o'zgartirilgan. Determinatsion bog'liqliklarning o'ziga xos "inversiya

(o‘rin almashish)”si sodir bo‘lgan. Talablarga, imkoniyatlarga, psixika va hattoki shaxsning o‘ziga sotsium ta‘sir ko‘rsatmaydi, balki shaxsning o‘zi o‘z imkoniyatlari, sabablari, psixik, energetik manbalarini, o‘zining sotsium bilan munosabatini, unga nisbatan nomuvofiqligini minimallashtirish maqsadida maqbullashtirish uchun qo‘llaydi. Biz tomonimizdan u yoki bu faoliyatni yoki umuman hayot faoliyatining *psixik ta‘minoti* haqidagi formula ilgari surildi. Bir qarashda ushbu formula psixikaning “mustaqilligi”, ichki yaxlitligi bilan ziddiyat hosil qiladigandek ko‘rinadi. Oxirgisi xuddi mehnatga oid, kasbiy, hayotiy “aslaha” sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa bu ijtimoiy determinatsiyani akmeologik tushunishdan kelib chiqadigan markaziy metodologik muammodir.

Rivojlanish prinsipi. *Rivojlanish prinsipining* turli ta‘riflarida ayrim holatlarda uyg‘unlashish asosi, boshqalarida esa insonning hayot yo‘lida rivojlanishning ayrim bosqichlarining ziddiyatlari va avvaldan yozib qo‘yilgan taqdir, yoshga bog‘liq bo‘lgan inqirozlar qonuniyatlari ustun bo‘lgan. Chamasi, sotsializm davrining mafkuraviy shiori bo‘lgan shaxsning barkamol rivojlanishi prinsipini tanqid qilish, *rivojlanish mutanosibligi* muammosini chetga surib qo‘ymasligi lozim. Mamlakatimiz psixologiyasida rivojlanishning turli bosqichlarining muvofiqligini nomuvofiqligi, ularning tashqi ta‘sirler, kuchlanishlar va rahbarliklarga “ta‘sirchanligi”ni belgilab beruvchi “rivojlanish geteroxronligi”, “senzitivlik” tushunchalari ancha avval mustahkamlanib qolgan. “Geteroxronlik” tushunchasi rivojlanish notekisligini va turli psixik vazifalar, qobiliyatlar, xususiyatlarning rivojlanish sur‘atini belgilab bergan. Aynan shu ikki mumtoz tushunchalarga aylangan tushunchalar uyg‘unlashish, muvofiqlik prinsipiga asoslanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, turli sur‘atlarda va deylik, shaxsning intellektual va ma‘naviy xususiyatlari o‘rtasidagi aloqalarning ahamiyatli ravishda uzilishi nafaqat ma‘naviy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi, balki shaxs uyg‘unligining buzilishiga, rigorizmga berilganligini, his-tuyg‘ulardan ko‘ra aqlning ustunligiga, ma‘naviy garanglikka olib keladi.

L.I.Ansiferova tomonidan alohida ajratib ko‘rsatilgan diaxronik tabiat rivojlanishni ikki turga ajratadi: taraqqiyot va tanazzul. Tanazzul insonning bo‘lishi mumkin bo‘lgan uyg‘unligi buzilishini, uning parchalanishi, uning rivojlanish yo‘nalishlarining cheklanganligini ifodalaydi. Rivojlanish prinsipini ishlab chiqishning ikki yo‘nalishi faqatgina oxirgi yillarga kelib bir-biriga yaqinlashdi: rivojlanishni bosqichli, qaytmas tabiatga ega bo‘lgan jarayon sifatida hamda shaxsning S.L.Rubinshteynga ko‘ra faoliyatda harakatlanishi namoyon bo‘luvchi va

rivojlanuvchi sifatidagi rivojlanish. Otogenetik tadqiqotlarda rivojlanishning turli yoshlar bilan bog'liq bo'lgan sarhadlari, ostonalari, boshi berk holatlarini aniqlashga urinishlar sodir etilgan. Shaxsning faoliyat davomida rivojlanishi tahlil qilinganda, mehnatning foydaliligi haqidagi fikrga muvofiq keluvchi optimistik nuqtai nazar ustun bo'lgan va bu holat mehnat tabiati bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish imkoniyatiga cheklollar qo'yilmagunga qadar davom etgan. Har qanday faoliyat ham insonni rivojlantirmaydi, degan alternativ formula ilgari surildi. Ontogenez bo'yicha amalga oshirilayotgan zamonaviy ishlarda yosh mezonlari va rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lanadi. Shunday qilib, T.V.Karsaevskaya verbal intellekt bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari yoshga oid chegaraga ega bo'lmaydi. Yozuvchilar, tarjimonlar, aktyorlar umrlarining oxiriga qadar o'z ijodiy imkoniyatlarini saqlab qoladilar.

Psixologiyada rivojlanish prinsipi ko'p qirrali hisoblanadi va shu sababli u psixologik bilimning maxsus sohasiga aylanib ulgurgan. U rivojlanishning falsafiy va ontogenetik xususiyatlarini, individning hayotiy yo'lining turli bosqichlarida ushbu jamiyat bilan munosbatlarini, rivojlanishning yoshga oid bosqichlarini, shaxsning hayot yo'lidagi rivojlanishini ochib beradi.

Akmeologiya o'z predmetiga ko'ra psixologiya sohasiga yaqinlashar ekan, rivojlanish prinsipini aniqlashtirishni talab etuvchi qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu aniq (konkret)lashtirish quyidagilarni taqozo qiladi:

1) rivojlanishni takomillashtirish, etuklikka, eng maqbul oliy darajaga tomon harakat; "yuksaklikka tomon harakat";

2) yuqorida aytib o'tilganidek, rivojlanishning subyektga oid tabiatini tan olish;

3) rivojlanishni subyekt tomonidan hal etiladigan ziddiyatlar orqali amalga oshirish (va uni tahlil qilish);

4) akmeologiyada rivojlanish prinsipi rivojlanishning individual tabiatini e'tiborga oladi;

5) akmeologiyada rivojlanish hayot yo'li va faoliyat davomida rivojlanish sifatida o'rganiladi, akmeologiya birinchi marotaba shaxs vositasida shaxsning hayot yo'li va kasbida rivojlanish o'rtasidagi aloqani aniqlaydi;

6) akmeologiya shaxs rivojlanishidagi mavxum va dolzarb munosabatlarni e'tiborga oladi va uning yashirin, hozircha amalga oshirilmagan imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan;

7) akmeologiya izchil bosqichlarni qiyoslamaydi, aksincha ideal, istiqbol bilan qiyoslash natijasida mavjud bosqichni aniqlaydi.

Akmeologiya uchun rivojlanish mohiyati rivojlanish psixologiya-sidagi yoshga oid, pedagogik va boshqa muammolardan farqli ravishda, uning madaniyat tushunchasi va uning belgilovchisi sifatida namoyon bo'ladi. N.S.Avtonomova, madaniyatning turli tushunchalarini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, quyidagi tariflarni keltiradi: 1) madaniyat tabiiy bo'lmagan, inson faoliyati natijalari va mahsulotlari majmui sifatida; 2) madaniyat faoliyat usuli sifatida, bu kabi yondashuv birinchisidan dinamik ko'rsatkichlariga ko'ra farq qiladi; 3) madaniyat inson faoliyatining ijodiy ibtidosi sifatida; 4) madaniyatni faoliyat tajribasi sifatida tushunish. Gruziyalik faylasuf O.P.Djioev ushbu ta'riflarga, madaniyatning texnologik tabiatini va madaniyat u yoki bu guruh tomonidan tan olinadigan qadriyatlarni qamrab olishini ko'rsatib o'tgan holda yana ikkita ahamiyatga ega bo'lgan ta'riflarni qo'shadi va shaxs tomonidan o'z xulqini ushbu qadriyatlar nuqtai nazaridan baholay olishi insonning hayot mazmuniga bo'lgan talabi kabi muim ehtiyojini qondirishning muhim vositasini ifodalaydi.

Va nihoyat, akmeologik yondashuv uchun madaniyatning o'ta muhim bo'lgan mezonlarini V.S.Stepin ajratib ko'rsatadi. U madaniyatni murakkab tuzilmaga ega bo'lgan, ayrim darajalari qadimgi zamondan saqlanib qolgan yoki yo'qolib ketuvchi tabiatga ega bo'lgan o'zgaruvchan tizim sifatida o'rganadi, boshqalari esa inson faoliyatini ishlab chiqishning zamonaviy tizimi bilan bog'liq (va bu erda madaniyatning axborot tizimi sifatidagi xususiyati ahamiyatga ega), va nihoyat "madaniyat tizimida inson faoliyati turlari va shakllarining potensial ravishda bo'lishi mumkin bo'lgan, kelajakdagi dasturlar majmui vositasida aks ettirilgan hodisalarning uchinchi darajasini ajratib ko'rsatish mumkin". Shunga e'tibor qaratish lozimki, Avtonomovanning madaniyati tajriba sifatida, ya'ni ma'lum ma'noda avvalgi insoniy faoliyat (bugungi kunda takrorlanayotgan bo'lsa-da) sifatida namoyon bo'lsa, V.S.Stepinning ta'rifida madaniyat tushunchasi ham o'tmishni, ham bugungi kunni, ham kelajakni qamrab oladi.

Falsafiy an'ana shaxs va madaniyat muammosini bir tomondan shaxs tomonidan madaniyatni *o'zlashtirish*, boshqa tomondan esa shaxs tomonidan keyinchalik o'zining maxsus ahamiyatiga ko'ra inson madaniyatining mulkiga aylanuvchi namunalarni *ijodiy yaratish* sifatida o'rganadi. Shaxs madaniyati haqida faqat turmushga oid nuqtai nazardan o'zini tutish madaniyati sifatida so'z yuritiladi. Ya'ni, inson insoniyat

madaniyatiga kirishishi, uning asosida harakatlanishi hamda yangi madaniy namunalar yaratishi, madaniyatni ijod qilishi zarur, deb tan olinadi, biroq, uning u holatda ham, bu holatda ham shaxsiy o'zgarishi nimadan iborat ekanligi masalasi o'rganilmaydi.

Modomiki, avval aytib o'tganimizdek, akmeologiyaning tizim hosil qiluvchi asosi shaxs ekan, u holda *shaxs madaniyati muammosini* uning rivojlanishi natijasi va hayot faoliyati usuli natijasi sifatida qo'yish zarur. Ushbu muammo "shaxsning umummadaniy jihatlari", uning "madaniy darajasi"ni ajratib ko'rsatgan A.A.Derkach tomonidan qo'yilgan. Ushbu muammoni ilgari surgan holda olim uni keng hajmli va batafsil holda aniqlashtirib berdi: u madaniy shaxs ta'rifiga uning ta'lim, malakaga oid jihatlari, ilmiy-texnik yutuqlarni qo'llay olish qobiliyatini, shuningdek, uning ma'naviy madaniyatga shaxsiy munosabatini, shaxsiy innovatsion faoliyatning faollik darajasini, uning sabablar tizimini, harajatlarini, shuningdek, shaxs faoliyatining individual usulining sifat, mohiyatga oid, ma'no bilan bog'liq bo'lgan tanlash xususiyatini kiritdi. Masalani bu kabi qo'yilishining eng ahamiyatli holati madaniyat darajasiga erishgan shaxsni, shaxsга nisbatan madaniyatga o'z ulushini qo'shgan ijodkor sifatidagi, shaxs-madaniyat muammosining ikkinchi muammosi chegaralanuvchi (birinchisi madaniyatni o'zlashtirish, ikkinchisi alohida etuk shaxslarning madaniyatga qo'shgan ijodiy hissasi) ko'p sonli yondashuvlaridan farqli ravishda, hayot faoliyatining zamonaviy texnik, ijtimoiy, kasbiy sharoitlari bilan qiyoslanishidir. Shunday qilib, umuman bo'sh bo'lgan muammolar maydoni quyidagicha to'ldirildi, zamonaviy jamiyatda shaxslarning ustun ommasi madaniy jihatdan qanday harakatlanadi, shaxslarning kundalik (nafaqat ijodiy etuk) harakatlanish muammosi. Shaxs tomonidan madaniyatni o'zlashtirish haqidagi asosiy fikr o'zining ahamiyatli mohiyatiga etkazilmadi: uni o'zlashtirgan shaxs madaniy darajada qanday, qay darajada harakatlanadi? Unga ushbu jihatdan jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar qanday? Uning madaniyat asosidagi o'zgargan imkoniyatlari qanday? Sovet jamiyatiga nisbatan uning yuqori darajadagi bilimliligi ko'p marta ta'kidlab o'tilgan. Biroq, u past darajadagi madaniyat va mehnat unumdorligi bilan ziddiyatlarga kelgan. Demak, bilimlilik shaxs malakasi, kasbiy mahorati xususiyatiga ta'sir ko'rsata olmagan.

A.A.Derkach tomonidan ochib berilgan prinsipial holat shaxsning madaniyatini aniqlash, madaniyat faqatgina faoliyat usuli, o'zlashtirilgan tajriba emas, balki yangi xususiyat, *shaxsning yangidan paydo bo'lishi* bilan bog'liqligini, Bu holatni "sivilizatsion tabiiylik" tushunchasini

kiritgan holda yaqqol ko'rsatib bergan, chunki u madaniyat, sivilizatsiyalashganlikning substansional ichki tabiatini ochib beradi. Madaniy (yoki sivilizatsion) shaxs, madaniyatning quyi darajasida turuvchi shaxsdan boshqacha sabablarga, boshqacha intilishlarga, qanoatlanishning boshqa mezonlariga egaligi bilan farq qiladi. Va nihoyat, yuqorida aytib o'tilganidek, shaxsiy tashkillashtirishning to'liq qayta qurilishi yuz beradi. Tadqiqotga asos qilib akmeologiya shaxsni uning umumpsi-xologik tasvirida tabiat, tafakkur, hissiyotlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar tizimi sifatida emas, balki shaxsning nafaqat o'z psixik imkoniyatlari (va shaxsga oid xususiyatlari), balki kasbiy va hayotiy vazifalarni o'zi tomonidan egallangan ularning ichki muvofiqligi va etukligida hal etish uchun zarur bo'lgan iroda, xarakterni ham boshqaruvchi *faoliyat (mehnat, kasb, ijod) va hayot faoliyati subyektii sifatidagi shaxs tizimini* oladi.

Bizning fikrimizcha, *shaxs madaniyati mezoni uni o'z-o'zini shaxsiy ifodalash, amalga oshirishining maqbulligi va konstruktivligi va u ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi ijtimoiy kasbiy faoliyat usuli* hisoblanadi. Ularda inson tomonidan erishilgan, uning uchun fuqarolikning, mehnat layoqatining, insonparvarlikning yuqori darajasi ifodalanadi. A.A. Boddalev tomonidan o'rganiladigan toifalarda yuqori darajadagi inson yutuqlarining o'ziga xos xususiyatlari, biz quyida batafsilroq to'xtalib o'tadigan va aynan akmeologiyaga xos tushuncha bo'lgan "etuklik" tushunchasida qamrab olinadi.

Akmeologiya shakllanishni boshlagan asosiy tushunchalardan biri shaxs hayoti va rivojlanishining cho'qqisi bo'lgan "akme" tushunchasi bo'lgan. Metodologik jihatdan akmeologiya ijod psixologiyasi, buyuk kashfiyotlar va buyuk odamlarning hayotda erishgan cho'qqilarini biografik ta'riflash tizimi sifatidagi kashfiyotlarga aylanib qolmasligi juda muhim. Akmeologiya shakllanishi va institutsionallashtirilishi davri davomida gap har qanday shaxs madaniyati darajasi, unga bundan ham yuqoriroq darajalarga erishishda yordam ko'rsatish zarurati haqida va nafaqat hayot yo'lining "avj"i haqida, balki shaxsning o'z rivojlanganligiga muvofiq ravishda yashash va harakat qilish qobiliyati haqida boradi. Bu esa o'z navbatida akmeologiyaga ekzotik bilim sifatida qarashning oldini oladi, uning jamiyat hayotining kasbiy, fuqarolik, ma'naviy sohalariga tatbiq qilinishi ochib beriladi.

Insonparvarlik prinsipi. Akmeologiya asosini tashkil etuvchi metodologik prinsiplardan oxirgisi *insonparvarlik prinsipi* hisoblanadi. Inson rivojlanishidagi asosiy prinsiplardan biri bo'lgan ushbu prinsipning umumiy falsafiy-metodologik mohiyatini qisqacha ochib berar ekanmiz

(uning ko'p jihatligi, tarixiy jihatdan o'zgaruvchanligi va boshqa sabablar tufayli), shuni aytib o'tish mumkinki, dastavval jamiyat tomonidan foyda, manfaat, maqsad sifatidagi ideal yoki qadriyat toifasining o'zi ishlab chiqilgan, so'ngra esa insonning ushbu maqsadlarga erishishga intiluvchi sifatida tushunilishi ishlab chiqiladi. Oxirgi g'oya voqelik va ideal, ijtimoiy shafqatsizlik, zulm, insonning jabrdiydaligi va qadriyatlarda qamrab olingan ideallar o'rtasidagi keskin ravishda vujudga kelgan ziddiyatlar ta'siri ostida vujudga keldi. Shu sababli inson nafaqat qadriyatlar "tashuvchisi" sifatida, balki voqelik va ideal kuchlarning ziddiyatlari bilan kurashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Kant insonning ushbu zarurat, shafqatsizlik, betartiblik dunyosidan ustun bo'la olish va o'z xulqini insoniyatning oliy qonunlariga ko'ra o'zi belgilay olish kabi ma'naviy qobiliyatini ajratib ko'rsata oladi.

Pedagogik akmeologiyadagi umumiy metodologik prinsiplarini

Zamonaviy ekzistensializm, avvalambor M.Xaydegger timsolida, ushbu imkoniyatni mushohadaga asoslangan mavhumlik sifatida emas, balki mavjudligi yolg'izlikka, qarovsizlik, xavotirlik va shu kabi kechinmalarga mahkumlik bilan kechadigan hayotiy holat sifatida ifodalab berdi. Ekzistensializm ma'naviy problematikani yaxshilik va yomonlik kabi yuqori jihatlardan odatiy hayot darajasiga olib tushdi. Biroq, u hal etish kalitini taklif qilmagan holda mavjud holatni ifodalab berdi xolos. U yashirin holda ideallarni qanday saqlab qolish va ayniqsa, maydalashib ketayotgan, kundalik, ahamiyatsiz, nohaqqoniy bo'lib borayotgan hayot oldida ular uchun kurashish imkoniyati muammosini ilgari surdi.

Ekzistensializm bazo'r namoyon bo'lgan ushbu muammo ekzistensializmni hayotning kundalik falsafasi sifatida, psixotahlilni psixoterapevtik amaliyot sifatida, insonni psixoterapiyada patsient sifatida anglash qiyoslashga muvaffaq bo'linganda aniq namoyon bo'ladi. Muammo hayot qiyinchiliklariga qaramasdan ideallarga ergashishda emas, balki ushbu qiyinchiliklardan (endilikda qahramonona falsafiy g'oya ilgari surgan yovuzlik, adolatsizlik emas), hayot "mojarolari" va "muammolari"dan xalos bo'lish maqsadida psixoterapevt (vosita) topishdan iborat. Biroq, ko'rinib turibdiki, psixoterapevt o'z harakatlarini ideallar va qadriyatlarga yo'naltirmaydi, balki u patsient shaxsi bilan amalga oshiradigan noma'lum harkatlarni amalga oshiruvchi texnologiya, metodikalar bilan ishlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu erda subyekt paradigmasiga qarama-qarshi bo'lgan paradigma mavjud bo'ladi:

o'z nomukammalligini, hayot qiyinchiliklarini insonning o'zi engib o'tmaydi, balki buni boshqa kishi yordamida amalga oshiradi, aslida u mijoz, ob'ekt.

Psixoterapevt subyekt bo'lishning ushbu yaxlit qobiliyatini qanchalik tiklay olishi haqida, psixoterapiyaning samarali ekanligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib hukm chiqarish mumkin emas. Aniqrog'i, g'arb va evropa mamlakatlarida katta mablag'ga ega bo'lgan inson uchun psixoterapevt usiz hayotini tasavvur qila olmaydigan, hayotining xizmat ko'rsatuvchi tarkibiy qismiga aylanib qoladi. Shu sababli zamonaviy psixologiyada optimizm-pessimizmga, baxtga, ya'ni insonning yaxshiroq kelajakka, va shu bilan birga ideallar va qadriyatlariga ishonishga psixologik layoqatliligi-layoqatsizligiga bag'ishlangan tadqiqotlar, shuningdek, shaxsning o'zidagi nekbinlik – baxtga (uning immanent xususiyati kabi) intilishini yoki ularning hayot yo'li, uning muvaffaqiyatli-muvaffaqiyatsizligini o'rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Akmeologiya qadriyatlarni inson ongiga zo'rlab singdirgan ideologiya (mafkura)dan farqli ravishda shaxs haqidagi fan ekanligi muhim ahamiyatga ega, va aynan shu sababli u odamlarga qator tushunchalarni, ular asosida yangidan qadriyatlar o'sib chiqishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar, muammolar majmuini taklif qila oladi va taklif qilgan. Individuallik deklaratsiyasi ayblovlaridan qo'rqmagan holda akmeologiya shaxsning e'tiborini uning o'ziga, uning "men"iga, uning shaxsiy hayotiga, ya'ni totalitarizm davrida begonalashtirilgan barcha narsalarga e'tibor qaratgan holda yo'naltiradi. Masalan, insonning rivojlanish ideallari haqidagi fan bo'lgan akmeologiya nima uchun asosiy tushunchalar qatoriga "individ" tushunchasini kiritadi? Chunki insonga uning salomatligi qadrliligi ekanligi, o'zining ishga layoqatliligi haqidagi g'amxo'rlikni, organizmi uchun ijobiy va salbiy yuklamalar haqidagi tasavvurlarni singdirish, ya'ni shaxs tomonidan yupqalashib ketgan hayotiy asosni anglash orqali voqelikni tiklashni boshlash hissini qaytarish zarur.

B.G.Ananevning fikrini eslatib o'tar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, u nafaqat insonning bilimliligi va ko'nikmalari haqida qayg'urgan, balki uning asosiy muammo bo'lgan jismoniy, hayotiy, shuningdek, hissiy, shaxsga oid kuchlari jihatidan hayotga tayyorligi haqida ham qayg'urgan. Shu sababli akmeologiya uchun qadriyat prinsipi insonparvarlik prinsipiga mos keladi va inson hayoti sarhadlaridan tashqarida bo'lgan mavhumlikda emas, balki uning shaxsiy o'zligi, uning

salomatligi, nekbinligi, mehnatga layoqatida namoyon bo'ladi. Ushbu qadriyatlarni aftidan, yaqin kunlardagidek, rivojlanish uyg'unligi haqidagi quruq formula bilan bog'lamaslik zarur.

Shaxsning o'zining qadriyatlarini, uning qadr-qimmatini va ma'naviyatini (endilikda nafaqat uning salomatligini) qayta tiklashni shuningdek, tafakkurdan emas, qadriyatga oid mavhumliklardan ham emas, balki shaxsning qadriyatga oid-hissiy va avvalambor ta'lim sohasidagi asoslarini qayta tiklashdan boshlashga to'g'ri keladi. Bola shaxsiga pedagogik ta'sir ko'rsatishni insonparvarlashtirish vazifasi V.A.Ponomarenko fikriga ko'ra, uning vijdonini qiynalishga o'rgatishdan, uni boshqalarning azoblanishidan qiynalishga o'rgatishdan, uni o'zi ustidan g'alaba qozonganligidan xursand bo'lishga o'rgatishdan va itoatkorlikni hurmat qilishga o'rgatishdan iborat. Bu "sahovatning jonli etikasi"ni qayta tiklash vazifasidir.

Katta yoshli kishining ma'naviyat sohasi qanday yo'l bilan qayta tiklanishi mumkin? Ushbu savolga javob akmeologlar va psixologlar tomonidan izlanmoqda. Ushbu savolga javobni qisman hayotning o'zi, uning shaxsning eng oliy qadriyalari sinovdan o'tuvchi vaziyatlari beradi. Aynan shu sababli akmeologiyaning hayot ziddiyatlarini tahlil qilishga va ularni hal etish usullariga, inson keltiruvchi xulosalarga va u qiyinchiliklarni engib o'tish orqali aylangan shaxsiga yo'naltirilganligi muhim ahamiyatga ega.

"Inson bu dunyoga nima bilan keladi, u nimani yaratadi va ketayotib o'zining ortida nima qoldiradi? Ushbu savollarga javoblar, aslini olganda, inson hayotining asosiy jihatlarini belgilab beradi. Biroq, ular o'z ta'riflari bilan inson bu dunyoda duch keladigan, engib o'tadigan va yutib chiqadigan narsalarni qamrab olmaydilar", - deb yozgan edi S.L.Rubinshteyn o'zining nafaqat falsafiy antropologiya va ontologiya, balki akmeologiya sohasidagi asari hisoblangan, hayotidagi so'ngi asari bo'lgan "Inson va dunyo" kitobiga yozilgan izoh-kundaligida. Ushbu so'zlar akmeologlar tomonidan hayot vaziyatlarini va odamlar tomonidan ularni hal etish usullarini umumlashtirish uchun dastur, asos bo'lishi mumkin edi.

L.I.Ansiferova murakkab va inqirozli hayot vaziyatlari muammolariga bag'ishlangan jamiki jahon psixologik adabiyotini umumlashtirgan holda, shaxsning hayot qiyinchiliklari bilan "mos kelishi" strategiyalari, deb atagan qator strategiyalarni ajratib ko'rsatdi. Biroq inson hayotida murakkab, tang va qiyin vaziyatlardan tashqari, u tashqi va ichki sharoitlardan kelib chiqqan holda o'z-o'zini qadriyatga oid ravishda

o'zgartirish yoki boshqa kishini qadriyatga oid-ma'nan qo'llab-quvvatlash, o'z munosabati bilan uning insoniy mohiyatini undagi eng yaxshi, kuchli va ezguliklarni uning o'ziga ko'rsatgan holda mustahkamlashi mumkin bo'lgan qator hayotiy vaziyatlar mavjud. Boshqa kishining sevgi, insonparvarlik sifatidagi oliy mohiyatini mustahkamlash haqida S.L.Rubinshteyn ham o'z kitobida yozgan.

Shunday qilib, qadriyatlar va insonparvarlik prinsiplari shaxsni qo'llab-quvvatlashning uch ko'rinishiga yo'naltirilgan: 1) uning xislatlarini subyekt sifatida va uning hayotiy ziddiyatlarni mustaqil ravishda hal etish qobiliyatini tan olish; 2) uning intellektual imkoniyatlarini faollashtirish, "ozod qilish", uni ularni egallash shaxsiga ziddiyatlarni eng maquyul ravishda hal etish imkoniyatini beruvchi usullar sifatida anglash; 3) shaxs uchun u o'z imkoniyatlarini ochib berishning yangi darajasiga ko'tariluvchi nisbatan tabiiy yoki sun'iy vaziyatlarni modellashtirish yo'li bilan. Akmeologiyaning har uch yo'nalishdagi vazifalari insonni jamiyat yoki mehnat (ishchi kuchsi sifatida) tomonidlan talab etiladigan darajaga qadar, yoki u o'zi belgilagan darajaga qadar (individuallikka qadar) rivojlantirishdan emas, balki uning o'zi uchun rivojlantirishdan iborat. Akmeologiyaning insonparvarlik vazifasi, *inson hayotining haqiqiyligi, uning o'z-o'zini amalga oshirish to'liqligiga* imkoniyat yaratishdan iborat.

Akmenologiyada tadqiqotning muayyan metodologik prinsiplari

Akmenologiyada tadqiqotning muayyan metodologik prinsiplariga faoliyat subyektini, hayot faoliyatini, yashirin va dolzarb, operatsional-texnologik, aks aloqani o'rganish kabi prinsiplar kiradi.

Faoliyat subyektini prinsipi. Shaxs prinsipining aniq mohiyati va mazmuni akmeologiya uchun uning psixologiyada tushunilishi bilan qiyoslagan holda ochib beriladi. S.L.Rubinshteyn, shaxsiga oid prinsipni ilgari surar ekan, uni insonni ajratib qo'yilgan psixik vazifalar, imkoniyatlar va holatlarga parchalovchi funksionalizm psixologiyasiga qarama-qarshi qo'ydi. V.N.Myasishev ham S.L.Rubinshteyn kabi ushbu prinsipni o'z asarlarida amalga oshirdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu prinsipni psixologiyada qo'llash hali ham davom etmoqda, va bu holat yakunlanmagan: qabul qilish, xotira, tafakkur jarayonlarining shaxsiy tabiatini ochib berish katta qiyinchiliklar tug'diradi, garchi bu yo'lda ahamiyatli qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da.

Akmeologiyada shaxs o'zining rivojlanayotgan, *harakatlanayotgan* holatida o'rganiladi: akmeologiyadagi shaxsiga oid prinsipning o'ziga xos

xususiyati aynan shundan iborat. Ushbu prinsipning ajralmas xususiyati shundan iboratki, harakatlanar ekan shaxs hayot faoliyatining, ya'ni faoliyat, muloqot va anglashning boshqa tizimlariga "kirib boradi". Shu sababli shaxsga oid prinsipning ushbu xususiyati, shaxsning harakatlanishi ko'rsatib o'tilgan tizimlar sifatida va ularning har birining mezonlariga ko'ra amalga oshirilishi zarur. Akmeologiya *shaxsni bir vaqtning o'zida psixologik jihatdan va ularni bir-biri bilan muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan ijtimoiy professional* sifatida o'rganadi. Agar psixologiyada shaxs olg'a intiluvchi bosqichlarga ega bo'lgan rivojlanishda o'rganilsa, akmeologiyada shaxs *maqsadli, taraqqiy etuvchi, yuksaluvchi* rivojlanishda o'rganiladi. Akmeologiyada shaxs rivojlanishi bosqichli-yoshga oid, funksional-faol (kasbiy – kasbi doirasida rivojlanish, professionalga aylanish), vaziyatga oid (ziddiyatlarni qamrab olgan, murakkab vaziyatlarda, ijobiy ta'sirlarni talab etuvchi vaziyatlarda) holatda ham o'rganiladi. Akmeologiyada shaxsning rivojlanishi bir tomondan determinatsiyani – subyekt (ichki determinatsiya) va akmeologni, boshqa tomondan esa – ular tomonidan amalga oshiriluvchi shaxsni qo'llab-quvvatlash vositalarini (tashqi determinatsiya)ni amalga oshiruvchi jarayon sifatida o'rganiladi. Muammoning mohiyati ushbu *determinantlar uyg'unligiga, ularning muvofiqlashtirilishiga erishishdan* iborat. Umumiy subyektga oid prinsipdan farqli ravishda, B.G.Ananev, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.V.Brushlinskiy, A.A.Derkach, Ye.A.Klimov, V.D.Shadrikov va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan subyektga-faoliyatga oid yondashuv, umumiy va kasbiy akmeologiyani, bog'lovchi prinsipni hosil qiladi. Bir tomondan unda akmeologiyaning umumiy paradigmasi mujassamlashtirilgan. Agar subyektni umumiy jihatdan tushunish shaxsni idealga tomon yo'naltirsa, faoliyat subyektini aniq tushunish kasbda real darajada eng maqbul odatga erishishning akmeologik mexanizmlarini, subyektga xos bo'lgan o'z-o'zini boshqarish va tashkillashtirish prinsiplarini ochib beradi. Subyekt faoliyati prinsipi psixologiyada ko'p qirrali va ko'p darajali jihatdan aniqlashtiriladi. Harakatni N.V.Kuzmina tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tizimlar va ularning funksional komponentlaridan boshlagan holda A.A.Derkach faoliyatda (endilikda nafaqat pedagogik) uning prinsipial vazifa bajaruvchi makrotarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatdi: qo'llanilayotgan bilimlar tizimdan va ularni faoliyatda operatsionl, samarali ravishda qo'llash qobiliyatidan tashkil topgan gnostik; faoliyatning maqsadli tabiati bilan bog'liq bo'lgan, biroq psixologiyada maqsad, vosita, natija falsafiy tizimi orqali tariflangan loyihalashtiruvchi. A.A.Derkachning

loyihalashtiruvchi tarkibiy qism haqidagi tasavvuri faoliyatni amalga oshirish usullarini uning taxminiy bosqichlari, hodisalari, amalga oshirish darajalari bilan nisbatan aniqroq bog'lash imkonini berdi.

Tarkibiy qismlar sirasiga A.A.Derkach, tushunilishi akmeologik yondashuvning mohiyatida mavjud bo'lgan konstruktiv tarkibiy qismni ham kiritdi: konstruktivlik faoliyat tizimini va subyekt faoliyati usulini maqbullashtirish imkonini beradi, faoliyatning betartib, tasodifiy tabiatining oldini oladi, xato va "inkor"lar darajasini minimallashtiradi, faoliyatni amalga oshirish "narxini" paysaytiradi. Konstruktiv tarkibiy qismni ta'riflashda jamiki injenerlik psixologiyasining maqbul va xato tajribasi dars bo'ldi va prinsipial xulosaga kelindi.

Faoliyatning *tashkillashtiruvchi tarkibiy qismi* "faoliyat" va "tashkillashtirish" tushunchalarining boshqaruv nazariyasida namoyon bo'lib ulgurgan yaqinlashish metodologik tamoyilini ifodaladi. U bir vaqtning o'zida ham barcha tarkibiy qismlarni, barcha faoliyat bo'g'inlarini tartibga solishni, hamda prognozlovchi, loyihalashtiruvchi bog'liqliklarni, ya'ni faoliyatni tartibga solishni tashkillashtirishning intellektual usulini amaliy jihatdan amalga oshirishni ifodalaydi. Psixologik fanda birinchi marotaba, faqatgina falsafiy ta'rif doirasida o'zini oqlagan nazariy va amaliy tenglashtirish engib o'tilgan, ularning o'ziga xos xususiyatlari, aloqa usullari, faoliyatning deyarli real, ontologik mohiyati ochib berildi. Vaholanki, hatto ayrim amaliy tadqiqotlarda faoliyatning amaliy tarkibiy qismi ijro sifatida sharhlangan bo'lsa-da, aslida u faqatgina kognitiv, intellektual jihatni amalga oshirish sifatidagina o'rganilgan. A.A.Derkach "tashkillashtiruvchi" tushunchasini kiritar ekan, faoliyatni amalga oshirishning aynan amaliy darajasida hal etilishi lozim bo'lgan radikal ahamiyatli vazifasini ajratib ko'rsatdi. Va nihoyat, u tomonidan ajratib ko'rsatilgan kommunikativ tarkibiy qism psixologiyada rivojlanib borayotgan, faoliyat bu nafaqat individual subyekt faoliyati, balki u hamkorlikdagi kooperativ tabiatga ham ega, degan fikrga muvofiq kelgan.

K.A.Abulxanova S.L.Rubinshteyn g'oyalari asosida subyekt toifasining umumslubiy tushunilishini ishlab chiqqan holda va uning psixologiya uchun asosiy ma'nosini ochib bergan holda faoliyat subyekti prinsipini aniqlashtirdi. Birinchidan, faoliyat subyekti – bu shaxsning nafaqat qobiliyatlari, maqsadlarining harakatga kelishi va uning ehtiyojlariga muvofiqligi, balki uning psixik tashkillashtirilishining jamiki tizimini to'liq qayta qurilishini anglatuvchi yangi, o'zgartirilgan xususiyatidir. Subyektning ushbu xususiyati shaxsning mavjud imko-

niyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, intilishlari, sabablari hamda jamiyat tomonidan faoliyatning bajaruvchisiga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etish orqali yuzaga keladi. Agar tafakkur va faoliyat birligi prinsipi rivojlanishning dastlabki bosqichlarida asosan shaxsning o'zi tomonidan aks ettiriluvchi, ijodiy tabiati alohida ta'kidlangan bo'lsa va faqatgina shu kabi faoliyat psixologiyaning o'rganish predmeti hisoblangan bo'lsa (A.V.Brushlinskiy), u holda avval aytib o'tilganidek, reallikning anglanishi nafaqat ushbu optimistik formulaning cheklanishiga, balki shaxs faoliyatni belgilamasligi kabi, faoliyat ham shaxsni belgilamasligini, balki faoliyat subyekti tashqi va ichki determinatsiya, zarurat va erkinlik, qat'iy belgilash, me'yoriylik, standartlashtirish va individuallashtirish o'rtasidagi nisbatlarni belgilashini tushunishga asos bo'ladi. Subyektning vazifasi ayni vaqtdagi (ayni vaqtda amalga oshirilayotgan) va o'zining faoliyatga oid-kasbiy hayoti davomidagi faoliyatdagi ushbu qarama-qarshilikni hal etishdan iborat.

"Subyektga aylangan holda, deb yozadi K.A.Abulxanova-Slavskaya, – shaxs faoliyatni tashkillashtirishning individual usulini ishlab chiqadi. Ushbu usul shaxs xususiyatlariga, uning faoliyat va talablarga, faoliyatning aynan shu turining ob'ektiv xususiyatlariga mos keladi. Faoliyat usuli ushbu yangi jihatlarning u yoki bu darajadagi eng maqbul integrali, kompozitsiyasidir. Subyekt faoliyatning o'zgartiruvchi, markazlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi instansiyasi hisoblanadi. U individga oid, psixofiziologik, psixik va nihoyat, shaxsiy imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarining butun tizimini faoliyatning sharoitlari va talablari bilan alohida-alohida emas, balki bir butun holatda muvofiqlashtiradi". Shaxs subyekt sifatida, – deya ta'kidlaydi u, – faoliyatning ayni vaqtdagi boshqaruvini amalga oshiradi". Bir tomondan hodisalar, talablar, faoliyat vazifalarini, boshqa tomondan shaxsiy imkoniyatlarni, qobiliyat holatini o'zaro muvofqlikka olib keluvchi bu kabi tashkillashtirishning asosiy funksional mexanizmi – u o'z-o'zini boshqarish mexanizmidir. O'z-o'zini boshqarish tufayli salbiy holatlarning (charchoq, ruhiy zo'riqish) oldi olinadi, yuqori darajadagi psixik sarflar faoliyatning kalit davrlari bilan moslashtiriladi, faoliyat goh sababiy, goh irodaga oid mexanizmlar yordamida qo'llab-quvvatlab turiladi.

Vaqt davomida (mehnat, kasb kabi) faoliyatning amalga oshirilishi faoliyatning mikrotuzilmalarini emas, balki uning shaxsga oid kvantlarini ajratib ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunda shaxsning V.N.Misyashev tomonidan ta'kidlab o'tilgan, faoliyatga bo'lgan munosabati, A.A.Derkach nafaqat umumpsixologik, balki aynan akmeologik jihatdan ham

muhimligini alohida ta'kidlagan va o'rgangan shaxsga oid yangi hosila sifatidagi *tayyorligi* ham qamrab olinadi. Shaxsning faoliyatning kutilayotgan *natijasini avvaldan seza bilish va uni baholash mezonlaridan iborat bo'lgan* intilishlari, subyekt tomonidan olingan natijadan qoniqish-qoniqmaslik hissiyotlari ham shular sirasiga kiradi. Hozirgi kunga qadar psixologiyada faoliyat natijasini baholashning ob'ektiv-ijtimoiy yondashuvi ustun bo'lgan va faqatgina eng oxirgi yillardagina qator mualliflar subyektiv ravishda maqbul natija tushunchasini ilgari surdilar. Subyekt kategoriyasi shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatidagi hayot maqsadiga oid va undovchi-ma'noviy munosabati – tashabbuskorlik va mas'uliyatni ochib beradi. Ular K.A.Abulxanova-Slavskaya rahbarligi ostida amalga oshirilgan ishlarda batafsil o'rganib chiqilgan.

Mas'uliyat o'z navbatida faoliyatning kompleks tartibga soluvchi mexanizmi va bir vaqtning o'zida shaxsning alohida faol xususiyati sifatida ta'riflanadi. Mas'uliyat kutilmagan qiyinchiliklarga qaramasdan muayyan vaqt davomida shaxs tomonidan faoliyatning ma'lum darajasi va sifatining kafolatlanganligidir.

Muhandislik psixologiyasida, mehnat psixologiyasida va faoliyat nazariyasida inson tomonidan faoliyatni ishonchlilik, samaradorlik, energiya hajmi va boshqalar ijtimoiy me'yoriy mezonlarga mos holda bajarilishi xususiyatini qayd qiluvchi ta'riflari shakllantirilgan. Shaxsiy kafolat usullari, ushbu jihatlarni ta'minlash usullari tahlil qilindi, bu esa o'z navbatida shaxsning "tabiiy" qobiliyatlari va uning kasbni amalga oshirishga moslashtirilgan, o'zaro bog'langan, sifatga oid xususiyatlari orasidagi oraliq hosila kabi kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni o'rganishda muhim yangi qadamni anglatadi. Bundan tashqari, o'z vaqtida K.A.Abulxanova tomonidan ilgari surilgan, bir tomondan faoliyatni kvantlashning shaxsiy usulini, nafaqat sharoitlarni, balki talablarni ham ajratib ko'rsatishning ahamiyatini, boshqa tomondan esa – turli vazifalar ketma-ketligining subyektning o'zi tomonidan belgilanadigan va mantiqiy zanjirga bog'langan, faoliyatni amalga oshirish dasturlari sifatidagi strategiyani qurishni ochib beruvchi faoliyat "vazifalari" va "strategiya" tushunchalari rivojlantirilgan.

Faoliyatni longirlangan tarzda amalga oshirish tushunchasi, faoliyatning unumdorligi, mehnatning samardorligining birinchi ko'rsatkichi bo'lgan *subyekt tomonidan faoliyatni vaqt oralig'ida tashkillashtirish* kabi muhim muammoni ko'tarish imkonini berdi.

Faoliyatning muhim subyektga oid-shaxsiy xususiyatlari sirasiga akmeologiyada “kasbiy mahorat”, “malaka” va “chuqur bilimga egalik” tushunchalari kiradi. Birinchi tushuncha va uning kasblar akmeologiyasi uchun prinsipial tizim hosil qiluvchi ahamiyatiga biz keyinroq maxsus to‘xtalib o‘tamiz. Dastavval aytish mumkinki, har uch tushuncha ham faoliyatning mukammalligi, uni amalga oshirish sifati va darajasi yo‘nalishiga, mezoniga ega, ‘ni u akmeologiya predmeti talabiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob beradi.

Sosologiyada *chuqur bilimga egalik* kasbiy mahoratning o‘ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Chuqur bilimga egalik o‘z ishini to‘liq bilish, bajarilayotgan ishning mohiyatini, undagi mavjud bog‘liqliklar, munosabatlarni, qo‘yilgan maqsadlarga erishish vositalari va usullarini anglash sifatida ta‘riflanadi. Menedjment va boshqaruv nazariyasida chuqur bilimga egalik tushunchasi sekin-astalik bilan professionallarning nafaqat faoliyatning o‘zini, balki ular tarkibidagi mavjud murakkab tizimlarni, ijtimoiy munosabatlarni ham boshqarishga tayyorligi haqidagi tasavvur bilan birlashib ketdi va boshqaruvning o‘z maqbulligiga ko‘ra ierarxik prinsipga ko‘ra qurilgan boshqaruvning u yoki bu darajadagi maqbul turlarining aniqlanishiga olib keldi.

Akmeologiya tushunchalari tizimida chuqur bilimga egalik shaxsning faoliyat va kasb haqiqiy subyektga aylangan xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Chuqur bilimga egalik haqidagi tasavvurga *shaxsning murakkab kasbiy sharoitlarda erkin harakatlanish olish, uning subyektiv va ob‘ektiv tarkibiy qismlarini boshqara olish, faoliyatni, texnologiyalarni amalga oshirishning yangi usullarini joriy qilish* ko‘nikmalari kiritilishi mumkin.

Akmeologiyada subyekt faoliyati prinsipini tahlil qilgan holda xulosa qilar ekanmiz, shuni aytish lozimki, uning asosida akmeologiya bir tomondan *ijodning sharti hisoblangan shaxsning kasbda o‘zini to‘liq va qoniqtiruvchi ravishda namoyon qilish yo‘llarini* ochib beradi. Boshqa tomondan esa u akmeologiyaga faoliyat va turli kasblar mutaxassislarining eng yuqori darajadagi ijtimoiy, kasbiy samaradorligini ta‘minlash imkonini beradi.

Hayot faoliyati prinsipi. Hayot faoliyati prinsipi akmeologiya uchun ham tarixiy, ham nazariy, ham mantiqiy jihatdan muayyan va asosiy jihat hisoblanadi. P.A.Florenskiy va N.A.Ribnikovlar tomonidan shakllantirilgan va B.G.Ananev tomonidan yanada mazmunan boyitilgan “akme” tushunchasi shaxsning hayot yo‘li bilan, uning hayot cho‘qqilari bilan bog‘langan. Mamlakatimiz an‘anasi va kasb psixologiyasi uchun ham

yangi bo'lgan kareraning "cho'qqisi" tushunchasi bilan bir qatorda Ananev "cho'qqi" yoki hayot cho'qqisi tushunchalarini kiritadi. Ushbu tushunchaning kelgusidagi rivojlantirilishi A.A.Bodalev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Insonning hayot bosqichlarini yoshga oid va ijtimoiy davriylashtirilishida u inson individualligining maksimal darajada rivojlanishi, uning hayotda maksimal darajada amalga oshiriluvchi etukligi haqidagi tasavvur shu davrga mos keladi.

Hech qachon akmeologiya vakillari sirasiga kiritilmagan, biroq, o'zining "Inson va dunyo" kitobida hayot falsafasi muammolarini ishlab chiqqan S.L.Rubinshteyn o'z hayoti davomida hayot "cho'qqisi" tushunchasiga bir necha marotaba murojaat qilgan. Juda yosh chog'ida, u birinchi marotaba N.N.Langening o'limi munosabati bilan nekrolog yozadi va aynan shu nekrologda u odamlarning turli tiplarini ajratib ko'rsatadi – hayot cho'qqisiga har zamon-har zamonda ko'tarilgan va ushbu yutuqlarida o'zining barcha kuch va imkoniyatlaridan batamom foydalanib bo'lganlar Bu erda A.A.Bodalev o'ta nozik va dialektik ravishda muhokama qilgan cho'qqining uchi kabi metodologik jihatdan o'ta muhim bo'lgan muammo emas, balki inson tomonidan erishilgan maksimum va shu holatda ham uning hali to'liq sarflanmagan, ijodiy imkoniyatlarining nisbati muammosi ilgari suriladi. Ikkinchi marotaba S.L.Rubinshteyn ushbu muammoni o'limi oldidan yozgan o'z kundaliklarida ifodalashga uringan.

U o'z hayotida ko'plab qiyinchiliklar va tushkunliklar bo'lganligi, biroq u yuqoriga qarab intilgani haqida yozadi. O'z imkoniyatlari cho'qqisiga yoshligida erishgan insonlar hayotlarining keyingi davrlarida o'zlari erishgan yutuqning mevalaridan foydalanishlari mumkinligi haqida yozadi; ularning katta ustunligi aynan shunda. Hayotlari ilgarilab borayotgan va hayotlarining katta qismida yutuqlari cho'qqisi hali ham ko'rinmagan insonlar bu kabi imkoniyatga ega emaslar. Ularning hayoti kamroq yutuqqa ega, biroq unda yuksak, doimiy ravishda o'sib borish kabi tengsiz hissiyot mavjud.

Bu erda boshqa metodologik qimmatli bo'lgan jihatlar mavjud: insonning o'z-o'zini takomillashtirishi va namoyon qilishi nuqta, natija emas, balki doimiy o'sish jarayoni ekanligi haqidagi fikr, shuningdek, insonning hayotda eng maqbul jihatdan namoyon bo'lishi, u tomonidan cho'qqiga erishish o'ziga xos aks bog'liqlik akmeologi qonuniga bo'ysunishi haqidagi fikr insonga ustunlik taqdim qiladi.

Shaxslarning hayotiy qarashlarini ta'riflar ekan, K.A.Abulxanova, ayrim odamlar yayov ketayotgan, ayrimlari poezdda, boshqalari esa

samolyotda uchib ketayotganlari ifodalangan obrazli qiyoslashdan foydalangan. Erishilgan daraja insonning kuchini orttirgan holda unga yangi ob'ektiv imkoniyatlarni ochib beradi.

Hayot faoliyati va hayot yo'li prinsipi K.A.Abulxanova-Slavskaya-ga hayot strategiyasi tushunchasini uning subyekt haqidagi yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi, o'z hayot yo'lini tashkillashtiruvchi subyekt haqidagi tasavvur bilan bog'liq ravishda ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu tushuncha, shuningdek, akmeologik toifalar sirasiga kiradi. Aynan unda individuallashtirish, turlarga ajratish prinipi mujassamlangan: hayot strategiyasi – bu shaxsning turiga mos bo'lgan hayot uslubini tanlashdir. Unda hayotning empirikligi emas, balki maqbullashtirish, tashkillashtirilganligi, o'ziga xos konstruktivligi mujassamlangan. Strategiya faollik, intilishlar, shaxsning “men” konsepsiyasi hamda hayot sharoitlari va vaziyatlariga moslashish o'rtasidagi ziddiyatlarning hal etilishini taqozo qiladi. Strategiya – bu nafaqat yuqoriga chiqish, balki konformizm, vaziyatlarga bo'ysunish sifatida tushunilmasligi lozim bo'lgan chekinish hamdir. Hayotning strategikligi – bu uning nafaqat determinatsiya qilingan, balki hayot davomida amalga oshirilgan qadriyatlarga mosligi, uning insoniylik prinsiplariga muvofiqligi hamdir.

Akmeologiya uchun hayot faoliyati prinsipi, hayot yo'li nazariyasi, biografik yondashuv kabi, shaxsning *hayot subyekt*i sifatidagi prinsipi ham markaziy muammoga aylanib bormoqda. U shaxs tomonidan o'z hayoti sharoitlarini “egallash”, u tomonidan hayot yo'lining ikkilamchi sharoitlarini alohida hayot tayanchlari, hayot munosabatlari va qarashlari asosida yaratishni anglatadi.

Yuqorida muhokama qilinganidek, faylasuflar madaniyat tushunchasini “tajriba” tushunchasi bilan tenglashtirishga moyil. Shubhasiz, hayotiy tajriba hayotiy etuklik, hayotiy donishmandlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Akmeologiya nuqtai nazaridan nafaqat o'tmishdagi “tajriba” tushunchasi, balki bugungi kun bilan bog'liq bo'lgan, shaxs tomonidan hayotda egallangan “o'rin”ning o'ziga xos xususiyatlari, S.L.Rubinshteyn ta'rifiga ko'ra hayotiy kuchlarning joylashtirilishini belgilab beruvchi hayotda egallagan “vaziyat”lar tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Shaxsning o'rni yoki “vaziyati” – bu uning amalga oshirib bo'lgan (va qaytmas holda amalga oshirilmagan) va kelajakdagi imkoniyatlari, unga ushbu vaziyat ham ob'ektiv, ham subyektiv ravishda beradigan imkoniyatlari tizimidir. Nattin, Kastenbaum va boshqa ko'plab psixologlar tomonidan ilgari surilgan va aniqlangan holda u K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan empirik jihatdan o'rganildi va turli jihatlarga ko'ra

aniqlashtirilgan – *kognitiv* (kelajakdagi nazariy aqliy rejalarga bog'liq), *shaxsga oid* (kelajakni hayotiy va shaxsga oid, hali amalga oshirilmagan zahiralarda kelajakni asoslashdan iborat), shuningdek, nafaqat kasbda, balki hayotda ham karera qila olgan shaxsning ijtimoiy imkoniyatlari va istiqbollariga bog'liq bo'lgan *hayotiy* istiqbollar.

Hayot va hayotiy faoliyat subyekti prinsipi vazifasi shundan iboratki, u faoliyatning, mehnatning shaxsning hayot yo'lidagi o'rni, vazifasi, mohiyati va ahamiyatini tushunish, hayotni faqatgina ishdan bo'sh vaqt emas, balki shaxsning avvalambor o'z hayotining mazmuni bo'lgan ish jarayonida amalga oshiruvchi o'z-o'zini namoyon qilish vazifasi sifatida anglash. Bu eng maqbul usul. Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning voqeligi akmeologlarni hayot yo'li va kasbiy hayotning nomuvofiqligi muammosi bilan yuzma-yuz qiladi.

Uchuvchi kasbiy hayotining muqarrar yakuni hayotiy fojeaga olib keladi. Insonni o'z joniga qasd qilish, hayot ma'nosini yo'qotish holatlariga olib keluvchi majburiy ravishda ish bilan bandlikdan mahrum qilish sifatidagi ishsizlik vaziyatlari fojeali. Qayta kasb tanlash muammolari ham oson emas, ayniqsa, ularni hayot yo'lining nisbatan kechki pallasida hal etishga to'g'ri kelsa. Bu akmeologik fanining nafaqat insonning imkoniyatlarini oshirishga, balki unga ushbu imkoniyatlarni yo'qotmaslikka sharoit yaratishga yo'naltirilgan muammoli maydonidir.

Yashirin va faol prinsipi. Akmeologik muammolar sirasiga S.L.Rubinshteyn va uning maktabi asarlarida rivojlantirilgan *yashirin va faol, implitsit va eksplitsit prinsipini* kiritish mumkin. Ushbu ko'rinishdan umumfalsafiy bo'lgan prinsip dastavval psixologiyada shaxsning o'zini mavjud ma'lumotlarga ko'ra to'liq anglash imkoni mavjud bo'lmagan, proektiv, istiqbolli tizim sifatida anglash imkonini berdi.

Akmeologiya uchun u ikki xil vazifani bajaradi: 1) shaxsning kelajakda uning o'zi yoki akmeologik qo'llab quvvatlashi yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan zahiralari, imkoniyatlariga metodologik yo'naltirish; 2) amaliy-dagnostik yo'naltirish. U shaxsning ayni vaqtdagi holatini diagnostika qilishda nafaqat tasdiqlovchi, o'lchovchi, balki loyihalashtiruvchi jarayonlardan foydalanishni talab etadi. Akmeologik qo'llab-quvvatlash bosqichida (o'yinlar, treninglar) u subyektni, uning refleksiyasini shaxs tomonidan o'z imkoniyatlarini oshirish, uning tafakkurini kengaytirish vositasi sifatida yo'naltiradi.

"Implitsitlik" tushunchasining oddiy ma'nosi, shuningdek, "*foydalanilmaganlik*", "*ta'minlanmaganlik*" tushunchalariga tenglash-tiriladi. Oxirgi yillarda ijtimoiy tafakkurni o'rganishga bag'ishlangan

tadqiqotlar, shaxs o'z intellektual manbalari va imkoniyatlaridan har doim ham va to'liq foydalanmaydi, o'z intellektini "zo'riqtirmaydi", nisbatan oson yoki standart vazifalarni hal etishga intiladi. Aynan shu sababli akmeologiyaning vazifasi inson tomondan o'z psixik manalaridan tasodifiy, betartib ravishda foydalanishga qarshilik qilish, o'z-o'zini to'liq namoyon qilish uchun yo'l ochib berishdan iborat.

Modellashtirish prinsipi. Modellashtirish prinsipi o'tgan asrning o'rtalarida ijtimoiy, ishlab chiqarish va boshqa tizimlar sohalarida ishlab chiqildi va ularning har birida aniqlashtirildi va tasniflandi. Fan metodologiyasida modellashtirish prinsipi ma'lum darajada ilmiy bilim tizimida izlash, tadqiqotchilik va operativ modellarini bir xillashtirish ma'lum darajada formallashtirilgan.

Modellashtirish tabiatini tushunishning asosi sifatida aks ettirish nazariyasi namoyon bo'ladi. Ushbu fikr ko'p tadqiqotchilar tomonidan yoqlanadi. Biroq, modellashtirish aynan qay tarzda aks ettirish bilan nisbatlanishi ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Aks ettirishning universal xususiyatlarini, uning inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'lishini tahlil qilish, shaxsiy tizimlarning modellashtirish tabiatini aniqlashdan ta'sirlanishidagi o'rni o'rganish imkonini berdi. Natijada aks ettirish jarayonida bir tizimlarning zaruriy jihatlari ichki o'zgarishlarda va tashqi harakatlarda, boshqa tizimlarniki esa ularning tuzilmasi va vazifasida namoyon bo'luvchi ta'sirlanishning o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'sirlanish – haqiqiy tizimli xususiyatdir, chunki uning jarayonida "ob'ekt-hodisa", "aks ettiruvchi subyekt – aks ettirilayotgan ob'ekt – aks ettiruvchi subyekt" tizimlariga xos bo'lgan umumiylik aks ettiriladi. "Ta'sirlanish" tushunchasi aks ettirishning mohiyati sifatida o'rganilayotgan "o'zaro munosabat" tushunchasidan aniqroqdir. Bu ham, albatta, o'zaro munosabat, uning tarkibiga kirayotgan tarkibiy qismlarning o'zgarishini taqozo qiluvchi munosabatdir.

Nazorat savollari

1. Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlar, majmuaviy, tizimli, subyektga oidligini tushuntiring.
2. Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlarni aytib bering.
3. Pedagogik akmeologiyadagi umumiy metodologik prinsiplarini tushuntiring.

4. Pedagogik akmenologiyada tadqiqotning muayyan metodologik prinsiplarini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Tayanch tushunchalar: *metodologiya, umumilmiy ta'limot, muayyan-ilmiy ta'limot, majmuaviy yondashuv, tizimli yondashuv, subyektga oid yondashuv. determinizm, rivojlanish, insonparvarlik prinsiplari. faoliyat subyektini, hayot faoliyatini, yashirin va dolzarb, operatsional-texnologik, aks aloqani o'rganish prinsipi.*

Pedagogik akmeologiyadagi metodologik yondashuvlari

Pedagogik akmeologiya o'ziga xos ilmiy metodologiyaga egadir.

– *metodologiya (ta'limot)* – nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirish va qurish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, ushbu tizim haqidagi ta'limot;

– *umumilmiy ta'limot* – ilmiy fanlarning etarli darajadagi katta majmuaga tarqaluvchi umumilmiy mohiyatga oid qarashlar tizimi, prinsiplar, yondashuvlar, umumilmiy tushuncha va toifalar;

– *muayyan-ilmiy ta'limot* – u yoki bu maxsus ilmiy fanda qo'llaniladigan prinsiplar, usullar, jarayonlar.

Pedagogik akmeologiyadagi umumimetodologik yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Majmuaviy yondashuv. XX asrda majmuaviy yondashuvning rivojlanishi polideterminatsiyalangan, murakkab tizimlashtirilgan ob'ektlar va mavjudlik sohasining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib qoldi. U bilim va fanlarning turli sohalarining o'zaro munosabatlarining ortib borishi tamoyilini, fanlararo tadqiqotlarning zarurligini ifodalaydi. Majmuaviy (kompleks) yondashuvning dastlabki rivojlanishi yondash biokimyo, geobiokimyo, psixofiziologiya kabi fanlarning tadqiqot sohaları paydo bo'lishi bilan bog'liq. Keyinroq, bilimlarning ushbu yangi chegara sohalaridan tashqari, inson hayot faoliyatining chegaradoshlik prinsipi bilan ifodalanmagan turli sohalarini qamrab oluvchi muammolar vujudga kela boshladi. Ushbu muammolarning ko'pchiligi gipotetik mavhum tabiatga ega bo'lmagan, balki insoniyatning XX asrdagi rivojlanishining amaliy vaziyati tufayli vujudga kelgan. Bu atom va ekologik halokatlar, insonning kosmosga uchishi, OITS va saraton kabi o'lim darajasi yuqori bo'lgan kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishi, shuningdek, inson omilining turli jihat va o'zgarishlaridagi muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnik taraqqiyotining uzluksiz o'sib borishi.

Insonni anglashning yangi sohasiga olib kelgan majmuaviy yondashuvni ishlab chiqish taniqli pedagog olim B.G.Ananevning nomi bilan bog'liq. U insonni to'laqonli o'rganish va u haqidagi bilimlarni bilimning mustaqil sohasiga aylantirish yondashuvini izlash maqsadiga to'liq javob bergan. U tashkil etgan va rahbarlik qilgan kompleks tadqiqotlar ham aynan shu maqsadga yo'naltirilgan. Biroq, tabiatning turli jihatlarini va insonning ijtimoiy mohiyatini o'rtasida izlanayotgan aloqalar umumiy metodologik-nazariy andozalarga tayanmaganda, ular ushbu andozani izlash usullariga aylanib qolgan bo'lar edi. B.G.Ananev tomonidan ishlab chiqilgan kompleks yondashuvni tarixiy-psixologik jihatdan retrospektiv tahlil qilar ekan, uning o'quvchisi N.A.Loginova kompleks yondashuvning ko'p jihatlilik, ko'p omillilik, ontologik determinant va ontologik tarkibiy qismlar kabi ayrim umumiy ta'riflarini keltirib chiqardi. Uning nuqtai nazariga ko'ra ob'ektning yoki uning faoliyat sohasining umumiylik, tartiblilik va tashkillashtirilganligidan iborat bo'lgan tizimli yondashuvdan farq qiladi.

Kompleks yondashuvning psixologiyadagi o'ziga xosligini ochib berar ekan, B.F.Lomov, uni rivojlantirish tamoyili kompleks ravishda o'rganishni talab etuvchi fundamental muhim muammolarni aniqlash bilan bog'liq, degan fikrni ilgari surdi. Qator mualliflar kompleks yondashuvning jamlanmaligini, ko'p jihatlilikini, muammoga oid ekanligini darajalarga ajratadilar.

Akmeologiyaning mantiqqa to'g'ri kelmasligi shundan iboratki, umumiy metodologik prinsiplar va yondashuvlar unda yo'naltiruvchi vazifasini, uning predmetini aniqlovchi vazifasini bajargan holda osongina o'z ifodasini topadi.

Akmeologiyada kompleks yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u insonni o'rganishdagi umumiylik va haqiqiy amaliy takomillashtirilishida yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. U haqiqiy va ideal holat, tabiiy ravishda shakllangan va optimal xususiyatlar kabi turli jihatlarga ega bo'lgan aniqlovchilarni taqqoslashga yo'naltiradi. U rivojlanishning shaxsiy darajasini oliy, eng maqbul darajaga o'zgartirish usullarini taqdim qiladi, u ko'pincha inson faoliyati va uning rivojlanishining tarqoq jihatlarini birlashtiradi. Akmeologiyadagi kompleks yondashuv individuallik va subyekt sifatidagi istiqbollarni ochib beradi. U hayot va faoliyatdagi shaxs haqidagi tasavvurlarni birlashtiradi. Boshqacha aytganda, akmeologiyadagi kompleks yondashuvning asosiy vazifasi inson mavjudligining turli xislatlari, xususiyatlari, holatlari, modalliklarini rivojlantirishdan iborat. Shu jihatidan u Ananevning inson

haqidagi fanlarni insonni anglashning alohida sohasiga qadar rivojlan-tirish fikrlarining bevosita davomi sifatida o'rganilishi mumkin. Biroq, agar insonni anglashda, Ananevning fikriga ko'ra, kompleksning asosi *inson* bo'lsa, akmeologiyada kompleksning asosi inson mavjudligining eng murakkab va aniq darajasi sifatidagi *shaxs* hisoblanadi.

Akmeologiyadagi kompleks yondashuv nafaqat inson haqidagi fanlar, bilimlarning birligini, balki uning ontologik jihatdan turlicha bo'lgan xislatlari aloqalarining birligi va usullarini aniqlashga yo'naltirilgan. U gnoseologik emas, balki ontologik rolni bajaradi. Akmeologik kompleksdagi eng murakkab holat, tadqiqot va diagnostika yordamida shaxs rivojlanishining jarayon-amaliyotga oid bo'g'imi uning eng maqbul ravishda o'zgartirilishi bo'lgan dastlabki bosqichini aniqlashdir. Tadqiqot odatdagi kabi amaliyotga tatbiq qilinmaydi, yoki u tomonidan tasdiqlanmaydi, balki keyingi bosqichi akmeologik qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan kompleksning vazifaga oid mustaqil bo'g'imi bo'lib xizmat qiladi. Akmeologik qo'llab-quvvatlash diagnostik va tadqiqot bosqichi kabi, shaxsning hozirda mavjud bo'lmagan, biroq, kelajakdagi maqbul holati, maqbul modeli bilan ham bog'liq. Kompleks bo'g'implari izchil ravishda va bir vaqtning o'zida nazariy maydonda ochib berilgan.

Tizimli yondashuv. *Tizimli yondashuv*ni ishlab chiqish XX asrning Bertalanfi, Eshbi, Parsons (sotsiologiyada) nomlari, hamda kibernetika, semantika, sotsiologiya, psixologiya bilan bog'liq bo'lgan asosiy modernistik tamoyilni ifodalaydi. Tizimlilik prinsipi dastavval qonuniyatlar, aloqalar, tuzilmalarni izlashda ifodalagan holda muvofiq fanlar metodologiyalarida implitsit ravishda mavjud bo'lgan. Ma'lum bosqichda, fan metodologiyasining maxsus sohasida rivojlanishida u refleksiya predmetiga, ilmiy bilimning o'ziga xos mantig'iga aylanadi. N.F.Ovchinikov, V.N.Sadovskiy, G.P.Shedrovskiy, E.G.Yudin va mamlakatimizning boshqa faylasuflari va ta'limotchilari tizimlilik prinsipini anglash va aniqlashtirishga ulkan hissa qo'shdilar.

Psixologiyada tizimlilik prinsipining rivojlanishi, uning asosiy holatlarini psixologiya muammolarini hal etish bilan birgalikda ishlab chiqqan L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev-larning nomi bilan bog'liq. B.F.Lomov tizimlilik prinsipining muayyan refleksiyasi, rasmiylashtirilishini amalga oshirgan holda mamlakatimiz psixologiyasida tizimli yondashuvning mashhur etakchisiga aylandi. Birinchidan, u psixologik bilimni tartibga keltirish, tizimlashtirish vazifasida amalga oshirdi. Ikkinchidan, tizimli yondashuv darajalarida

qator muammolarning aniqlanishi tufayli u yangi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini ochib berdi.

Akmeologiyadagi tizimli yondashuvning o'ziga xosligi, uning predmeti aniq darajaga oid tuzilmaga ega emasligidan iborat va ontologik jihatdan bir xil bo'lmagan, biroq, vazifasiga ko'ra yagona, maqbul holatga tomon harakatlanuvchi tizimni aks ettiradi. Tizimlar umumiy nazariyasida, ilmiy bilim sohasi mezonlariga ko'ra ijtimoiy, biologik va boshqa tizimlarga klassifikatsiya qilinishi bilan bir qatorda, sun'iy va tabiiy tizimlar bo'limlari ham mavjud. Akmeologiya sun'iy tizim bilan ham, tabiiy tizim bilan ham ishlamaydi, balki u tizimning tabiiy ravishda shakllangan holati va xususiyatidan maqbul holatga, oxirgisining mohiyatini modellashtirish vositasida haqiqiydan idealga o'tish va unga amaliy ravishda erishish mexanizmi va usuli bilan ishlaydi. Akmeologik tizim maqsadli, loyihalashtiruvchi modellashtiruvchi tabiatga ega. Ushbu tizim mohiyatiga kirib borish, tizimning o'zgarishi yo'nalishiga urg'u bergan holda tizimlarning tashkillashtirilganlik yuqoriligi va darajasiga ko'ra qiyoslash jihatini ajratib ko'rsatgan M.I.Setrov g'oyalarini o'rganish imkonini beradi. Tashkillashtirilganlik darajasining yuqoriligi nisbatan yuqoriroq sifatga oid darajaga o'tish, ya'ni vertikal bo'ylab tashkillashtirishning o'zgarishiga, tashkillashtirish darajasi esa ushbu xususiyat sarhadlarida, ya'ni gorizontal bo'yicha o'zgarishga olib keladi. Boshqacha aytganda, u tomonidan darajalar ierarxiyasi sifatidagi tizim emas, balki jamiki tizimning eng maqbulga o'tishi, o'zgarishi demakdir, ya'ni *nisbatan yuqoriroq darajada tashkillashtirilgan holat*. Bu erda akmeologiyadagi tizimlilik mohiyati o'z vaqtida A.A.Malinovskiyning sharhlari K.A.Abulxanov-Slavskiyning e'tiborini unga jalb etgan "tashkillashtirish" tushunchasi vositasida aniqlashtiriladi. Bu tushuncha juda muhim, chunki gap, B.G.Ananevning ta'rifiga ko'ra sotsium, ijtimoiy munosabatlar tizimiga, mehnat, kasb, shaxsiy hayot tizimiga "qo'shilib ketgan" shaxs tizimi haqida boradi. Ushbu tushunchaning afzalligi shundan iboratki, u shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan tashkillashtirish usullarini, ya'ni o'z-o'zini tashkillashtirishni, va unga bog'liq bo'lmagan, anglangan va anglanmagan, ob'ektiv, shuningdek, tashqi va ichki tashkillashtirilganlikni taqozo qiladi. Tizimni tashkillashtirishning yangi usuli ortiqchalik, betartiblikni minimallashtirgan holda nisbatan oddiy, yoki o'ta murakkab bo'lishi mumkin. Akmeologiyada tashkillashtirishning, quyida o'rganib chiqiladigan maqbullik yoki maqbullashtirish prinsipini ochib beruvchi *eng maqbul usuliga erishish talab etiladi*. Tizimning o'zgarishi jarayonida eng maqbul holatga erishish o'zgarishlar

konstruktivligi, algoritmlar, akmeologik ko'makning vositaga oid-operativ vositalarining mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Subyektga oid yondashuv. Agar akmeologiyadagi kompleksning asosi avval aytib o'tilganidek, shaxs bo'lsa, akmeologik tizimning *tizim hosil qiluvchi omili* (B.F.Lomov ta'rifiga ko'ra) *subyekt*, ya'ni *subyekt sifatida namoyon bo'luvchi shaxs* hisoblanadi. Bu akmeologiya shaxsni ob'ekt sifatida o'rganmaydi, degani emas, biroq, bu faqatgina ma'lum chegaralarga qadar shunday demakdir: uning dastlabki holatini o'rganish, diagnostika qilish, malakalashtirish. Shaxsni ob'ekt sifatida diagnostik jihatdan o'rganish natijalari shaxsni amaliy, real takomillashtirish jarayonlarining, ham subyektning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan (I.N.Semenovga ko'ra, o'z-o'zini takomillashtirishning refleksiv usullar asosi sifatida) takomillashtirish jarayoni kabi, ham akmeolog tomonidan subyekt bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan akmeologik qo'llab-quvvatlash, treninglar, o'yin texnikalari kabi zahiralari, manbalariga aylanadi. Pedagogika o'zining ta'sir ko'rsatuvchi, vazifa bajaruvchi, shakllantiruvchi yo'naltirilganligi bilan akmeologiyaga yaqin. Yaqin kunlarga qadar aynan pedagogika nafaqat shaxsda takomillashtirish jarayoni subyektini ko'rmagan, balki uni hattoki, shakllantiruvchi ta'sirlarni shaxsning real, mavjud xususiyatlari va xislatlariga bog'lash uchun tadqiqot, o'rganish ob'ekti sifatida ham nazarda tutmagan.

Subyekt prinsipi akmeologiya uchun paradigmal hisoblanadi. Shaxs bevosita takomillashtirish kabi, o'z faoliyati va akmeologik texnologiyalari vositasida bilvosita ifodalangan takomillashtirish subyektiga aylanadi. O'z-o'zini takomillashtirish muammosi faqatgina bir qarashda o'ta oddiy bo'lib ko'rinadi. S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra inson ichidagi mohiyatga oid dunyo uning hayoti va faoliyati natijasidir. Aslini olganda insonni o'z-o'zini takomillashtirish muammosiga ham aynan shu narsa taalluqli: o'zini yaxshilash emas, balki hayotda nimadir yaxshilik qilish zarur, maqsad shunday bo'lishi lozim, o'z-o'zini takomillashtirish esa faqatgina uning natijasidir.

Avval aytib o'tilganidek, *subyektga oid yondashuv* yoki prinsip akmeologiya paradigmasi hisoblanadi. Falsafa tarixida, mamlakatimiz psixologisi doirasida asrlar davomida u yoki bu darajadagi sur'atlar bilan o'rganib kelinayotgan subyekt prinsipi S.L.Rubinshteyn tomonidan uning ko'p jihatli va shu bilan birga tizim hosil qiluvchi sifatida faollashtirilgan va ishlab chiqilgan. Subyektning Gegel ta'rifiga ko'ra tafakkur faolligi manbai sifatida tushunishdan farqli ravishda Rubinshteyn uning ta'rifi-ning boshqa toifalari, jihatlarini ajratib ko'rsatdi. XX asrning 20-yillari-

dayoq u subyektini insonning dunyodagi chekka emas, balki markaziy holatini ko'rsatib bergan holda mavjudlikni tashkillashtirish markazi sifatida belgilab berdi. U uning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini aniqlashtirish, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini ochib berdi. Subyektning asosiy jihati sifatida Rubinshteyn uning takomillashtirish qobiliyatini, insonning o'z rivojlanishi, idealining eng maqbul darajasiga erisha olish qobiliyatini ajratib ko'rsatdi. Shu vaqtdan boshlab rivojlanish ta'limoti gorizontal bo'ylab harakatlanish, bosqichma-bosqichlikka bog'lanmaydigan bo'ldi. Inson rivojlanishidagi "vertikal", uning yuqoriga yo'naltirilgan tabiati namoyon bo'ldi. Shubhasiz, subyektini bu kabi anglash g'arbning insonning loyiha sifatidagi falsafiy g'oyasiga, Sh.Blyurning shaxsning o'z-o'zini amalga oshirishga bo'lgan tug'ma ehtiyoji haqidagi g'oyasiga juda yaqin. Biroq, S.L.Rubinshteyn tomonidan subyektga takomillashishga bo'lgan talabi va qobiliyati orqali berilgan falsafiy ta'rifi, gap shaxs haqida borganda psixologik va akmeologik jihatdan aniqlashtirishga muhtoj. Shaxs sifatida o'sish, shaxsni "etishtirish" (V.V.Davidov g'oyasiga ko'ra) g'oyasi avval aytib o'tilganidek, inson e'tiborini o'z "Men"iga yo'naltirishni anglatmaydi, o'z yutuq-kamchiliklarini refleksiv tarzda qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmaydi, o'z-o'zini takomillashtirishni bevosita hayot maqsadiga mujassamlashtirmaydi.

L.S.Vigotskiy shaxsni insoniyat madaniyatiga olib kirish kabi muhim vazifani qo'ydi, biroq, uni o'rgatish, ta'lim berish vazifasiga bog'ladi. Aslida, shaxsni takomillashtirish bu nafaqat shaxs tomonidan insoniyat madaniyatini egallash, balki shaxs tomonidan "madaniy darajaga" erishish, shaxs tomonidan madaniyatni ishlab chiqish deb aytish mumkin. Ushbu vazifa faqatgina subyektning o'zi tomonidagina hal etilishi mumkin. Insoniyat uchun subyektlilik prinsipi tarixiy taraqqiyot g'oyasida namoyon bo'ldi (garchi tarix na xukmdorlar, na xalqlar, umuman tarixiy jarayon taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olmasligini isbotlab bergan bo'lsa-da). Shaxs uchun subyektlilikka erishish avvaldan belgilab qo'yilgan me'yorga erishish emas (garchi shaxsga oid madaniyat mezonlari akmeologi va unga yaqin bo'lgan yo'nalishlarda izohlangan bo'lsa-da), balki *uzluksiz ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga intilish* demakdir. Shu nuqtai nazardan "akme" tushunchasi hayotiy harakat va rivojlanishning yakuniy nuqtasini emas, balki kelgusida harakatlanish uchun yangi sarhadlarni ochib beruvchi cho'qqini anglatadi. Bir vaqtning o'zida subyekt bu muxtorit, mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyat demakdir.

Subyektning ko'plab turli yondashuvlari va ta'riflari shakllantirilgan. Subyektning falsafadagi, madaniyatdagi, revolyusiyaga qadar, Rossiya va chet el psixologiyasidagi turli konsepsiya va tushunchlarni tahlil qilish V.A.Tatenko tomonidan "Subyektga oid o'lchamlar psixologisi" kitobida keltirilgan. Psixologiyadagi subyekt muammosiga bag'ishlangan monografiya muallifi A.V.Brushlinskiy, shaxs doimo subyekt bo'ladi, deb hisoblaydi. Subyektning akmeologik prinsipining o'ziga xosligi egotsentrizm bilan ham emas, o'z-o'ziga munosabat bilan ham emas, tahlil qilish qobiliyatiga ham emas, va hattoki tashabbuskorlik va mas'uliyat faolligining namoyon bo'lishi bilan ham emas, balki avvalambor turli ko'rinishdagi qarama-qarshiliklarni hal etish bilan, ya'ni K.A.Abulxanova shaxsni subyekt sifatida baholashda birinchi va asosiy sifatda ajratib ko'rsatgan mezoni bilan bog'liq. Aynan qarama-qarshiliklarni hal etish subyektga erkinlik, o'ziga ishonch, mustaqillik kabi tajribalarni taqdim qiladi, mutanosiblikka erishishiga sabab bo'ladi.

Qanday qarama-qarshiliklar nazarda tutiladi? Shaxs rivojlanishining mavjud holati, sifati, darajasi o'rtasidagi, uni tashkillashtirish va ijtimoiy sharoitlar hamda ideal bilan muvofiqlashtirish o'rtasidagi ziddiyatlar demakdir. Bu ushbu shaxs qobiliyatlari, individualligi, o'ziga xosligi, ehtiyojlari va u tegishli bo'lgan jamiyat va hayot talablari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Bu shaxsning genetik jihatdan belgilab qo'yilgan ehtiyojlari, uning imkoniyatlari va ularni amalga oshirish me'yori, u erisha olgan o'z-o'zini amalga oshirish darajasi o'rtasidagi ziddiyatlardir. Bu shaxs faoliyati, intilishlari va ularning natijalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va h.k. Ularni hal etar ekan shaxs subyekt sifatida o'z etukligiga erishadi.

Akmeologiya uchun subyektililikning *ikkinchi mezoni* o'z hayot faoliyatining tashqi va ichki sharoitlariga egalik qilish erkinligi, shaxsning o'zini va boshqa odamlarni hayot munosabatlarining tarixiy etuk munosabatlari subyekt sifatidagi eng maqbul rivojlanishini qurish qobiliyati hisoblanadi. Shaxsning hayotiy munosabatlari tizimi va uning rivojlanishining umumiy psixologik-pedagogik prinsipi. Va nihoyat, shaxs subyektililigining eng muhim mezoni, shubhasiz bazaviy shaxsiy ta'limni aks ettiruvchi "Men-konsepsiyasi"ning mavjudligi, biroq, u o'zining muayyan arxitektonikasida, o'zining mutanosibligida shaxsning subyektililigi darajasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. O'z davrida shaxsga oid tuzilmaning asosiy tarkibiy qismlarini o'zining "Umumiy psixologiya asoslari" asarida ta'riflar ekan, Rubinshteyn uning tarkibiy qismlari sirasiga uch jihatni kiritadi: inson nimani *xohlaydi* (bu uning

talablari, sabablari, faoliyati), u nima *qila oladi* (uning qobiliyatlari, imkoniyatlari, manbalari), va nihoyat uning *o'zi nima* (uning dunyoqarashi, tabiati qanday va h.k.). Agar istaklar qobiliyatlarga mos kelmasa, tabiat esa qobiliyatlarni istaklarni amalga oshirish yo'lida qo'llash imkonini bermasa, shaxsiy ziddiyatlar sotsium bilan qarama-qarshiliklarga olib keladi. Ushbu tarkibiy qismlarni uyg'unlashtirish subyektning yuqori darajadagi imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Psixoijtimoiy yondashuv mamlakatimiz fani uchun, garchi u chet el asarlarida ancha yildan buyon o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, etarli darajadagi yangi metodologik tabiatga ega. Mamlakatimiz psixologiyasida K.A.Abulxanova-Slavskaya Rossiya mentaliteti va ijtimoiy tafakkur krossmadaniy tadqiqotlarini olib borish bilan bog'liq ravishda ushbu prinsipni ishlab chiqishga murojaat qildi. Psixoijtimoiy yondashuv mohiyati o'rganilayotgan ob'ektga tomon aprior andoza yoki nazariyadan emas, balki uning *haqiqiy holatining tarixiy, ijtimoiy, madaniy, shaxsga oid determinatlarini aniqlashdan, harakatlanishdan iborat*. Psixoijtimoiy tadqiqot predmeti mavhum shaxs emas, balki muayyan Rossiya, Fransiya yoki boshqa jamiyatda yashovchi shaxs, uning tafakkurining o'z hayotining tarixiy, biografik holatlari, hayotiy qarashlari, milliy, kasbiy tegishliligi, yoshi, jinsi bilan belgilanuvchi o'ziga xosligidir.

Akmeologiya aynan shu turdagi tadqiqotlarni olib boradi. Avval aytib o'tganimizdek, uni davlat xizmatchisi, boshqaruvchi, pedagog shaxsi, ushbu shaxsning kasbiy maqomi, uning ta'limi, kasbiy staji, yoshi va h.k.lar qiziqtiradi. Tadqiqotning bu kabi turi mumtoz psixologik tadqiqotlardan nimasi bilan ajralib turadi? Axir psixologiyada tanlovlar sifatida shakllangan holda goh o'qituvchilar, goh talabalar, goh vrachlar o'rganiladi, ularning yoshi va jinsi e'tiborga olinadi. Biroq, akmeologiyada tanlov asosiy emas, balki qo'shimcha o'zgaruvchi sifatida xizmat qiladi, vaholanki bunda kompleks o'zgaruvchi sifatida o'z jihatlarining jamiki majmuida kasbiy faoliyatining muayyan turi subyekti sifatidagi shaxs namoyon bo'ladi.

Pedagogik akmeologiyaning umumiy metodologik prinsiplari

Pedagogik akmeologiyaning umumiy metodologik prinsiplariga determinizm, rivojlanish, insonparvarlik kabilar kiradi.

Determinizm prinsipi. Subyektgacha oid paradigmaning hukmronligiga, subyekti toifasi rolining tan olinishiga, asr boshida fizikada tanqidiy ravishda engib o'tilgan, biroq, psixologiyada hukmronlik qilishda davom etib kelayotgan determinizm prinsipining mexanik chiziqli tushunilishini

engib o'tish kabi murakkab jarayon sabab bo'lgan. Biroz oldinga o'tgan holda, shaxsning gumanitar fanlarda ijtimoiy determinatsiyasi prinsipiga murojaat qilar ekanmiz, aytish mumkinki, mamlakatimiz dunyoqarashida mexanistik determinizm, qat'iy tashqi determinatsiyaning tan olinishi ijtimoiy determinatsiyaning hal etuvchi rolini mafkuraviy tan olinishiga, marksistik mafkuraga asoslangan holda mavjud bo'lgan. S.L.Rubinshteyn determinizmning yangicha, psixika, shaxs tabiatining o'ziga xos xususiyatlari talablariga javob beruvchi prinsipini shakllantirdi.

Bu kabi prinsipga ko'ra, tashqi sharoitlar ob'ekt mohiyatini va unga ta'sir ko'rsatish natijasini qat'iy va bir ma'noda emas, balki ichki sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilab beradi. S.L.Rubinshteynga ko'ra, har bir hodisaning boshqasiga har qanday ta'siri, ushbu ta'sir ko'rsatilayotgan hodisaning ichki xususiyatlari orqali o'zgartiriladi. Hodisa yoki predmetga ko'rsatiladigan ushbu ta'sir natijasi nafaqat unga ta'sir ko'rsatayotgan hodisa yoki jismga bog'liq bo'ladi, balki ushbu ta'sir ko'rsatilayotgan predmet yoki hodisaning shaxsiy ichki xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Inson hayotiga nazar tashlar ekanmiz, biz psixik hodisalar unga qay tarzda o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'lovchi sifatida, hayot sharoitlariga bog'liq bo'lgan va insonlar xulqini belgilab beruvchi ravishda kirib borishi hamda ular vositasida ushbu sharoitlarning o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

S.L.Rubinshteyn, deb ta'kidlaydi K.A.Abulxanova-Slavskaya, nafaqat tashqi ta'sirning ichki ta'sir roliga o'zgartiruvchi, bilvosita ta'siriga, balki uning faollik, o'ziga xoslik, tanlab olish kabi xususiyatlariga ham e'tibor qaratadi. Determinizm prinsipini bu kabi izohlashda nafaqat sabab va oqibatlarining aloqasi qonuniyatga aylanadi, balki ichkining roli ham qonuniyatga aylanadi.

Akmeologiyada determinizm prinsipining o'ziga xosligi bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. *Birinchi* yo'nalish shundan iboratki, dastavval "ichki" holat "tashqi" bilan o'z birligida va statik, ayni vaqtda berilgan, betartib yoki avvalroq tasodifiy ravishda shakllangan jihatda o'rganiladi. Akmeologiya "ichki"ni uning eng maqbul yo'nalishda rivojlanish mantig'i sifatida ochib beradi. Rivojlanish qonuniyatlari bu chiziqli gorizontol rivojlanish emas, balki yuksalish qonuniyatlaridir, bu haqda quyida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Ushbu ichki qonuniyatlarni, rivojlanish mantig'ini bilish, rivojlanish jarayonini tezlashtirish, uni amalga oshirish usulining konstruktivligi uchun qo'llanishi mumkin.

Determinizmning ikkinchi o'ziga xos xususiyati akmeologiyada shundan iboratki, rivojlanishni tizimli tashkil qilish omili yoki harakatga

keltiruvchi kuch shaxsning o'zi hisoblanadi, uning mexanizmi sifatida esa o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tashkillashtirish namoyon bo'ladi (rivojlanish jarayonini tashqaridan boshqarishdan farqli ravishda).

Uchinchisi, shaxsni takomillashtirish jarayoni qo'shaloq, ya'ni ham ichki, ham tashqi determinatsiyaga ega ekanligidan iborat, bunda hal etuvchi rolni ichki determinatsiya, ichki harakatga keltiruvchi kuchlarning ozod etilishi, implitsit imkoniyatlarni aniqlash o'ynaydi. Biroq, tashqi akmeologik yordam faqatgina u shaxsga subyekt sifatida yo'naltirilganligi sababli ko'rsatilishi mumkin, ya'ni ichki mexanizmlar, sharoitlarning hal etuvchi rolini tan olishga quriladi. Manipulyatsiya, odamlarni qattiqqo'llik bilan boshqarish, o'rgatish (dressura) turidagi o'qitishlar, ko'pincha qisqa muddatlarda natijaga erishish imkonini bergan holda, hech qachon odamlarning mustaqil faoliyati sohasida, dressura bilan qamrab olinmagan, murakkab vaziyatlarda hech qachon samaradorlikka olib kelmagan. Asosan subyektning ichki eng maqbul, uyg'unlashgan, tartibga solingan sharq meditatsiya turidagi treninglar ham mavjud bo'lgan. Biroq, u bu kabi holatga erishgan holda samarali ravishda harakatlanish imkoniga ega bo'lmay qoldi, tizimning tartibli- ligini uning harakatlanish tartibiga o'tkazish holati yuz bermagan. Tartiblilik, maqbullik faqatgina statikada saqlanib qolgan. Akmeologiya determinatsiyaning o'zining muayyan tushunishi va ham ichki, ham tashqi, ham bevosita usullar yordamida optimum faollikka erishish ushbu muhim ahamiyatga ega bo'lgan xulosani buzib yuboradi.

Shaxsning ijtimoiy bog'liqligi prinsipi uzoq vaqt davomida mamlakatimiz psixologiyasida determinizmning ichki roli sifatidagi imkoniyat tarzida tushunish sifatida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, psixologiyada uning absolyutlashtirilishi L.S.Vigotskiy, A.N.Leontevlar maktabi bilan bog'liq, chunki ular dastavval bolaning rivojlanish muammosini ishlab chiqqanlar va uning ijtimoiylashtirilishiga, ya'ni ijtimoiy umumtarixiy tajriba, madaniyatning o'rniga urg'u berganlar. Madaniy-tarixiy nazariyaning mashhur nazariyotchisi, uning ta'limdagi o'rmini faollashtirish uchun ko'p ish qilgan P.Ya.Galperin, psixika biz undan nima qilgan bo'lsak, shu narsa ekanligi haqidagi tezisni ilgari surdi. Biroq, ijtimoiy tashqi determinatsiyaning hal etuvchi roli haqidagi holatlar boladan katta yoshli insonga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'chirildi va h.k. Ularga universal tabiat taqdim qilindi.

Katta yoshli shaxs uchun ijtimoiy sharoitlar endilikda madaniyat roliga, harakat usullariga, o'zini tutish ko'rinishlariga, o'zlashtiriladigan bilimlarga borib taqalmayapti. Ular ko'pincha qat'iy talablar, cheklovlar

sifatida namoyon bo'ladi, shaxs ularga moslashishga majbur. Ushbu sharoitlarning o'rni, ularga moslashishni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur, ularni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish va muxtoriyatga qarshi qo'yimaslik zarur. Muammo nisbatan murakkabroq: shaxs sotsium qo'g'irchog'iga aylanganda yoki ortda qolganda shaxs bo'la olmaydi va shaxs bo'lib qola olmaydi. U tashqi ijtimoiy determinatsiya va ichki talablar, istaklar, qobiliyatlar, o'ziga xos xususiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etishga majbur. Ushbu ziddiyatlarni hal etgan holda shaxs aynan shaxsga aylanuvchi mohiyat K.A. Abulxanova-Slavskaya asarlarida, jumladan individual va ijtimoiy qiyoslash prinsipini tahlil qilishda batafsil ochib berilgan.

Bugun ijtimoiy determinatsiya muammosi akmeologiya uchun umuman boshqa jihatdan namoyon bo'lmoqda. B.G.Ananev ham yaqin kelajakni ko'ra bilgan holda, nafaqat zarur bilimlarni etkazish, balki insonni hayotga tayyorlash zarurligi haqidagi g'oyani shakllantirdi. Ijtimoiy determinatsiya zamonaviy, ayniqsa, Rossiya jamiyati uchun uning aniqligida emas, aksincha noaniqligida, o'zgaruvchanligida, ziddiyatliligida, avvaldan aytib berish imkoni mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ijtimoiy determinatsiya – bu oddiy va toifaga oid ko'rsatma emas, balki shaxs oldida turgan ijtimoiy muammolardir.

Avvaldan aytib berish sohasidagi mashhur amerikalik mutaxassis Djon Neysbit, insoniyat texnologiyaning yuqori murakkabligi va tarixdagi inson uchun eng yuqori darajadagi sinovlarga tomoni ikki yo'nalishda harakatlanayotganligini ko'rsatib o'tgan holda jamiyat va uning rivojlanishini qayta tizimlashtirishning o'n nafar asosiy tamoyillarini aniqladi: texnika qanchalik murakkab bo'lsa, sinov ham shu darajada jiddiy bo'ladi. Ushbu formula jismoniy va ma'naviy voqelik o'rtasidagi muvozanatni topish zaruratini aks ettiradi. U asosiy tamoyil barcha ijtimoiy jarayonlarni, ziddiyatlarni, qarorlarni individual darajaga o'tkazishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bundan shaxsning nafaqat mavhum-insonparvarlik talabi, balki uning ortib boruvchi va ijtimoiy roli kelib chiqadi. Neysbitning ta'kidlashicha, jamiyatning markazlashtirishdan chetlashishi, jamiyatning hududlashtirilishi, ieraraxiyalashtirilgan va markazlashtirilgan institutlarning parchalanishi bilan bir qatorda u o'z-o'ziga yordam ko'rsatish tamoyili deb atagan o'ziga xos yo'nalish rivojlanib bormoqda. Ushbu taxminda, shaxslar ijtimoiy hayotning har qanday usullar yordamida bo'lsa ham boyitish yoki yashab qolishga urinish usulini tanlashda o'z holiga tashlab qo'yilgan zamonaviy Rossiya

jamiyatining holatini ko'rish qiyin emas. Nafaqat totalitarizm prinsipidan voz kechish, balki jamiyatning o'zgarishi holati, uning qator sohalaridagi inqiroz holati, shaxsni o'zining avvalgi kasbiy, hayotiy vaziyatlarini, odatlarini (vasiylik, kafolatlangan oylik maoshi, odatiy ish va h.k. odatlarini) yo'qotib qo'ygan, murakkab, ziddiyatlarga to'la sotsiumda yana qaytadan o'z yo'lini topishga majbur bo'lgan real birlikka aylantirib qo'yganligini ko'rish qiyin emas.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy hayotiy o'zgarishlarning insonning shaxsiy xususiyatlariga *mutanosibligini* izlash kabi global muammo vujudga keldi. Modernizatsiyalash mafkurasi fundamental ilmiy bilim, fanning amaliyot bilan aloqasi, kasbiy mahorat o'rining oshirilishi shartlariga asoslanadi. Akmeologiya shaxs haqidagi yangi fan sifatida bugungi kundagi murakkab, o'zgaruvchan sharoitlarda ushbu vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan. Insonni takomillashtirish doimo hattoki eng murakkab ijtimoiy davrlarda ham uning dunyoqarashida mavjud bo'lib kelgan. Biroq, akmeologiyada ushbu insonparvarlik g'oyasi o'z ijtimoiy talabiga ega bo'ldi, u insonni takomillashtirish vazifasini san'at uchun san'at prinsipiga ko'ra emas, balki B.G.Ananov bashorat qilganidek, uning hayotiy kuchlarini mustahkamlash maqsadida hal etadi. Cho'qqiga, malakaga, kasbiy mahoratga erishish ijtimoiy zaruratga aylandi.

Rossiyada yuz bergan o'zgarishlardan ancha avval eng ziyarak mehnat nazariyachilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar insonning, zamonaviy mehnat, texnika, ishlab chiqarish tabiatiga mos kelishi lozim bo'lgan intellektual sohasini takomillashtirish muammosini ilgari surganlar. Intellektual sohani takomillashtirish xodimlarning fan yutuqlarini, taraqqiy etuvchi texnologiyalarni ijodiy ravishda qo'llashlarini, shuningdek, ularning tajriba o'tkazish, tadqiqot olib borish, hamkorlik aloqalarini o'mata olish imkoniyatlarini ratsionallashtirishni talab etadi.

O'tmishning asosiy ijtimoiy muammosi shundan iboratki, jamiyat alohida yirik olimlar, kashfiyotchilarning intellektual manbalaridan foydalangan holda, intellektual imkoniyatlarni oqilona rivojlantirish va ongli ravishda qo'llashga qodir bo'lmagan. Akmeologiya esa o'z navbatida shaxsning zamonaviy sotsiumdagi o'rini anglashda uning faoliyatining mustaqilligiga, uning mas'uliyatiga, tanlangan kasbga o'zining mos ekanligiga shaxsiy kafolatiga, ijtimoiy roliga yo'naltirilgan. Agar ijtimoiy determinatsiyaning avvalgi tushunilishi tashqi ta'sirlarning insonga nisbatan hal etuvchi rolini tan olishdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda akmeologiya uchun ahamiyat kasb etuvchi hodisa tamomila o'zgartirilgan. Determinatsion bog'liqliklarning o'ziga xos "inversiya

(o‘rin almashish)”si sodir bo‘lgan. Talablarga, imkoniyatlarga, psixika va hattoki shaxsning o‘ziga sotsium ta‘sir ko‘rsatmaydi, balki shaxsning o‘zi o‘z imkoniyatlari, sabablari, psixik, energetik manbalarini, o‘zining sotsium bilan munosabatini, unga nisbatan nomuvofiqligini minimallashtirish maqsadida maqbullashtirish uchun qo‘llaydi. Biz tomonimizdan u yoki bu faoliyatni yoki umuman hayot faoliyatining *psixik ta‘minoti* haqidagi formula ilgari surildi. Bir qarashda ushbu formula psixikaning “mustaqilligi”, ichki yaxlitligi bilan ziddiyat hosil qiladigandek ko‘rinadi. Oxirgisi xuddi mehnatga oid, kasbiy, hayotiy “aslaha” sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa bu ijtimoiy determinatsiyani akmeologik tushunishdan kelib chiqadigan markaziy metodologik muammodir.

Rivojlanish prinsipi. *Rivojlanish prinsipining* turli ta‘riflarida ayrim holatlarda uyg‘unlashish asosi, boshqalarida esa insonning hayot yo‘lida rivojlanishning ayrim bosqichlarining ziddiyatlari va avvaldan yozib qo‘yilgan taqdir, yoshga bog‘liq bo‘lgan inqirozlar qonuniyatlari ustun bo‘lgan. Chamasi, sotsializm davrining mafkuraviy shiori bo‘lgan shaxsning barkamol rivojlanishi prinsipini tanqid qilish, *rivojlanish mutanosibli* muammosini chetga surib qo‘ymasligi lozim. Mamlakatimiz psixologiyasida rivojlanishning turli bosqichlarining muvofiqligi-nomuvofiqligi, ularning tashqi ta‘sir, kuchlanishlar va rahbarliklarga “ta‘sirchanligi”ni belgilab beruvchi “rivojlanish geteroxronligi”, “senzitivlik” tushunchalari ancha avval mustahkamlanib qolgan. “Geteroxronlik” tushunchasi rivojlanish notekisligini va turli psixik vazifalar, qobiliyatlar, xususiyatlarning rivojlanish sur‘atini belgilab bergan. Aynan shu ikki mumtoz tushunchalarga aylangan tushunchalar uyg‘unlashish, muvofiqlik prinsipiga asoslanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, turli sur‘atlarda va deydik, shaxsning intellektual va ma‘naviy xususiyatlari o‘rtasidagi aloqalarning ahamiyatli ravishda uzilishi nafaqat ma‘naviy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi, balki shaxs uyg‘unligining buzilishiga, rigorizmga berilganligini, his-tuyg‘ulardan ko‘ra aqlning ustunligiga, ma‘naviy garanglikka olib keladi.

L.I.Ansiferova tomonidan alohida ajratib ko‘rsatilgan diaxronik tabiat rivojlanishni ikki turga ajratadi: taraqqiyot va tanazzul. Tanazzul insonning bo‘lishi mumkin bo‘lgan uyg‘unligi buzilishini, uning parchalanishi, uning rivojlanish yo‘nalishlarining cheklanganligini ifodalaydi. Rivojlanish prinsipini ishlab chiqishning ikki yo‘nalishi faqatgina oxirgi yillarga kelib bir-biriga yaqinlashdi: rivojlanishni bosqichli, qaytmas tabiatga ega bo‘lgan jarayon sifatida hamda shaxsning S.L.Rubinshteynga ko‘ra faoliyatda harakatlanishi namoyon bo‘luvchi va

rivojlanuvchi sifatidagi rivojlanish. Ototogenetik tadqiqotlarda rivojlanishning turli yoshlar bilan bog'liq bo'lgan sarhadlari, ostonalari, boshi berik holatlarini aniqlashga urinishlar sodir etilgan. Shaxsning faoliyat davomida rivojlanishi tahlil qilinganda, mehnatning foydaliligi haqidagi fikrga muvofiq keluvchi optimistik nuqtai nazar ustun bo'lgan va bu holat mehnat tabiati bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish imkoniyatiga cheklovlar qo'yilmagunga qadar davom etgan. Har qanday faoliyat ham insonni rivojlantirmaydi, degan alternativ formula ilgari surildi. Ontogenez bo'yicha amalga oshirilayotgan zamonaviy ishlarda yosh mezonlari va rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lanadi. Shunday qilib, T.V.Karsaevskaya verbal intellekt bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari yoshga oid chegaraga ega bo'lmaydi. Yozuvchilar, tarjimonlar, aktyorlar umrlarining oxiriga qadar o'z ijodiy imkoniyatlarini saqlab qoladilar.

Psixologiyada rivojlanish prinsipi ko'p qirrali hisoblanadi va shu sababli u psixologik bilimning maxsus sohasiga aylanib ulgurgan. U rivojlanishning falsafiy va ontogenetik xususiyatlarini, individning hayotiy yo'lining turli bosqichlarida ushbu jamiyat bilan munosbatlarini, rivojlanishning yoshga oid bosqichlarini, shaxsning hayot yo'lidagi rivojlanishini ochib beradi.

Akmeologiya o'z predmetiga ko'ra psixologiya sohasiga yaqinlashar ekan, rivojlanish prinsipini aniqlashtirishni talab etuvchi qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu aniq(konkret)lashtirish quyidagilarni taqozo qiladi:

1) rivojlanishni takomillashtirish, etuklikka, eng maqbul oliy darajaga tomon harakat; "yuksaklikka tomon harakat";

2) yuqorida aytib o'tilganidek, rivojlanishning subyektga oid tabiatini tan olish;

3) rivojlanishni subyekt tomonidan hal etiladigan ziddiyatlar orqali amalga oshirish (va uni tahlil qilish);

4) akmeologiyada rivojlanish prinsipi rivojlanishning individual tabiatini e'tiborga oladi;

5) akmeologiyada rivojlanish hayot yo'li va faoliyat davomida rivojlanish sifatida o'rganiladi, akmeologiya birinchi marotaba shaxs vositasida shaxsning hayot yo'li va kasbida rivojlanish o'rtasidagi aloqani aniqlaydi;

6) akmeologiya shaxs rivojlanishidagi mavxum va dolzarb munosabatlarni e'tiborga oladi va uning yashirin, hozircha amalga oshirilmagan imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan;

7) akmeologiya izchil bosqichlarni qiyoslamaydi, aksincha ideal, istiqbol bilan qiyoslash natijasida mavjud bosqichni aniqlaydi.

Akmeologiya uchun rivojlanish mohiyati rivojlanish psixologiya-sidagi yoshga oid, pedagogik va boshqa muammolardan farqli ravishda, uning madaniyat tushunchasi va uning belgilovchisi sifatida namoyon bo'ladi. N.S.Avtonomova, madaniyatning turli tushunchalarini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, quyidagi tariflarni keltiradi: 1) madaniyat tabiiy bo'lmagan, inson faoliyati natijalari va mahsulotlari majmui sifatida; 2) madaniyat faoliyat usuli sifatida, bu kabi yondashuv birinчисidan dinamik ko'rsatkichlariga ko'ra farq qiladi; 3) madaniyat inson faoliyatining ijodiy ibtidosi sifatida; 4) madaniyatni faoliyat tajribasi sifatida tushunish. Gruziyalik faylasuf O.P.Djioev ushbu ta'riflarga, madaniyatning texnologik tabiatini va madaniyat u yoki bu guruh tomonidan tan olinadigan qadriyatlarni qamrab olishini ko'rsatib o'tgan holda yana ikkita ahamiyatga ega bo'lgan ta'riflarni qo'shadi va shaxs tomonidan o'z xulqini ushbu qadriyatlar nuqtai nazaridan baholay olishi insonning hayot mazmuniga bo'lgan talabi kabi muim ehtiyojini qondirishning muhim vositasini ifodalaydi.

Va nihoyat, akmeologik yondashuv uchun madaniyatning o'ta muhim bo'lgan mezonlarini V.S.Stepin ajratib ko'rsatadi. U madaniyatni murakkab tuzilmaga ega bo'lgan, ayrim darajalari qadimgi zamondan saqlanib qolgan yoki yo'qolib ketuvchi tabiatga ega bo'lgan o'zgaruvchan tizim sifatida o'rganadi, boshqalari esa inson faoliyatini ishlab chiqishning zamonaviy tizimi bilan bog'liq (va bu erda madaniyatning axborot tizimi sifatidagi xususiyati ahamiyatga ega), va nihoyat "madaniyat tizimida inson faoliyati turlari va shakllarining potentsial ravishda bo'lishi mumkin bo'lgan, kelajakdagi dasturlar majmui vositasida aks ettirilgan hodisalarning uchinchi darajasini ajratib ko'rsatish mumkin". Shunga e'tibor qaratish lozimki, Avtonomovanning madaniyati tajriba sifatida, ya'ni ma'lum ma'noda avvalgi insoniy faoliyat (bugungi kunda takrorlanayotgan bo'lsa-da) sifatida namoyon bo'lsa, V.S.Stepinning ta'rifida madaniyat tushunchasi ham o'tmishni, ham bugungi kunni, ham kelajakni qamrab oladi.

Falsafiy an'ana shaxs va madaniyat muammosini bir tomondan shaxs tomonidan madaniyatni *o'zlashtirish*, boshqa tomondan esa shaxs tomonidan keyinchalik o'zining maxsus ahamiyatiga ko'ra inson madaniyatining mulkiga aylanuvchi namunalarni *ijodiy yaratish* sifatida o'rganadi. Shaxs madaniyati haqida faqat turmushga oid nuqtai nazardan o'zini tutish madaniyati sifatida so'z yuritiladi. Ya'ni, inson insoniyat

madaniyatiga kirishishi, uning asosida harakatlanishi hamda yangi madaniy namunalar yaratishi, madaniyatni ijod qilishi zarur, deb tan olinadi, biroq, uning u holatda ham, bu holatda ham shaxsiy o'zgarishi nimadan iborat ekanligi masalasi o'rganilmaydi.

Modomiki, avval aytib o'tganimizdek, akmeologiyaning tizim hosil qiluvchi asosi shaxs ekan, u holda *shaxs madaniyati muammosini* uning rivojlanishi natijasi va hayot faoliyati usuli natijasi sifatida qo'yish zarur. Ushbu muammo "shaxsning umummadaniy jihatlarini", uning "madaniy darajasi"ni ajratib ko'rsatgan A.A.Derkach tomonidan qo'yilgan. Ushbu muammoni ilgari surgan holda olim uni keng hajmli va batafsil holda aniqlashtirib berdi: u madaniy shaxs ta'rifiga uning ta'lim, malakaga oid jihatlarini, ilmiy-texnik yutuqlarni qo'llay olish qobiliyatini, shuningdek, uning ma'naviy madaniyatga shaxsiy munosabatini, shaxsiy innovatsion faoliyatning faollik darajasini, uning sabablar tizimini, harajatlarini, shuningdek, shaxs faoliyatining individual usulining sifat, mohiyatga oid, ma'no bilan bog'liq bo'lgan tanlash xususiyatini kiritdi. Masalani bu kabi qo'yilishining eng ahamiyatli holati madaniyat darajasiga erishgan shaxsni, shaxsga nisbatan madaniyatga o'z ulushini qo'shgan ijodkor sifatidagi, shaxs-madaniyat muammosining ikkinchi muammosi chegaralanuvchi (birinchisi madaniyatni o'zlashtirish, ikkinchisi alohida etuk shaxslarning madaniyatga qo'shgan ijodiy hissasi) ko'p sonli yondashuvlaridan farqli ravishda, hayot faoliyatining zamonaviy texnik, ijtimoiy, kasbiy sharoitlari bilan qiyoslanishidir. Shunday qilib, umuman bo'sh bo'lgan muammolar maydoni quyidagicha to'ldirildi, zamonaviy jamiyatda shaxslarning ustun ommasi madaniy jihatdan qanday harakatlanadi, shaxslarning kundalik (nafaqat ijodiy etuk) harakatlanish muammosi. Shaxs tomonidan madaniyatni o'zlashtirish haqidagi asosiy fikr o'zining ahamiyatli mohiyatiga etkazilmadi: uni o'zlashtirgan shaxs madaniy darajada qanday, qay darajada harakatlanadi? Unga ushbu jihatdan jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar qanday? Uning madaniyat asosidagi o'zgargan imkoniyatlari qanday? Sovet jamiyatiga nisbatan uning yuqori darajadagi bilimliligi ko'p marta ta'kidlab o'tilgan. Biroq, u past darajadagi madaniyat va mehnat unumdorligi bilan ziddiyatlarga kelgan. Demak, bilimlilik shaxs malakasi, kasbiy mahorati xususiyatiga ta'sir ko'rsata olmagan.

A.A.Derkach tomonidan o'chib berilgan prinsipial holat shaxsning madaniyatini aniqlash, madaniyat faqatgina faoliyat usuli, o'zlashtirilgan tajriba emas, balki yangi xususiyat, *shaxsning yangidan paydo bo'lishi* bilan bog'liqligini, Bu holatni "sivilizatsion tabiiylik" tushunchasini

kiritgan holda yaqqol ko'rsatib bergan, chunki u madaniyat, sivilizatsiya-lashganlikning substansional ichki tabiatini ochib beradi. Madaniy (yoki sivilizatsion) shaxs, madaniyatning quyi darajasida turuvchi shaxsdan boshqacha sabablarga, boshqacha intilishlarga, qanoatlanishning boshqa mezonlariga egaligi bilan farq qiladi. Va nihoyat, yuqorida aytib o'tilganidek, shaxsiy tashkillashtirishning to'liq qayta qurilishi yuz beradi. Tadqiqotga asos qilib akmeologiya shaxsni uning umumpsixologik tasvirida tabiat, tafakkur, hissiyotlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar tizimi sifatida emas, balki shaxsning nafaqat o'z psixik imkoniyatlari (va shaxsga oid xususiyatlari), balki kasbiy va hayotiy vazifalarni o'zi tomonidan egallangan ularning ichki muvofiqligi va etukligida hal etish uchun zarur bo'lgan iroda, xarakterni ham boshqaruvchi faoliyat (mehnat, kasb, ijod) va hayot faoliyati subyekti sifatidagi shaxs tizimini oladi.

Bizning fikrimizcha, shaxs madaniyati mezoni uni o'z-o'zini shaxsiy ifodalash, amalga oshirishining maqbulligi va konstruktivligi va u ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi ijtimoiy kasbiy faoliyat usuli hisoblanadi. Ularda inson tomonidan erishilgan, uning uchun fuqarolikning, mehnat layoqatining, insonparvarlikning yuqori darajasi ifodalanadi. A.A.Bodalev tomonidan o'rganiladigan toifalarda yuqori darajadagi inson yutuqlarining o'ziga xos xususiyatlari, biz quyida batafsilroq to'xtalib o'tadigan va aynan akmeologiyaga xos tushuncha bo'lgan "etuklik" tushunchasida qamrab olinadi.

Akmeologiya shakllanishni boshlagan asosiy tushunchalardan biri shaxs hayoti va rivojlanishining cho'qqisi bo'lgan "akme" tushunchasi bo'lgan. Metodologik jihatdan akmeologiya ijod psixologiyasi, buyuk kashfiyotlar va buyuk odamlarning hayotda erishgan cho'qqilarini biografik ta'riflash tizimi sifatidagi kashfiyotlarga aylanib qolmasligi juda muhim. Akmeologiya shakllanishi va institutsionallashtirilishi davri davomida gap har qanday shaxs madaniyati darajasi, unga bundan ham yuqoriroq darajalarga erishishda yordam ko'rsatish zarurati haqida va nafaqat hayot yo'lining "avj"i haqida, balki shaxsning o'z rivojlanganligiga muvofiq ravishda yashash va harakat qilish qobiliyati haqida boradi. Bu esa o'z navbatida akmeologiyaga ekzotik bilim sifatida qarashning oldini oladi, uning jamiyat hayotining kasbiy, fuqarolik, ma'naviy sohalariga tatbiq qilinishi ochib

Nazorat savollari

1. Akmeologiyaning metodologik prinsiplari va yondashuvlarini tushuntiring.
2. Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologik yondashuvlarini tushuntiring.
3. Pedagogik akmeologiyaning metodologik printsiplarini tushuntiring.
4. Pedagogik akmeologiyadagi umummetodologiyasini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya". M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARINI TURKUMLASH

Tayanch tushunchalar: *akmeologik tadqiqotlar, kasbiy mahorat, ilmiy-uslubiy yo'naltirilganligi.*

Akmeologik tafakkurning ijtimoiy-madaniy tizimi

Akmeologiyaning rivojlanishining ijtimoiy-madaniy konteksti XX asr oxiri va uchinchi Mingyillik arafasida global-inqiroz muammolari (ekologik, demografik, ijtimoiy) yuzaga kelganda, ularni oqilona hal etish uchun yangi imkoniyatlar va resurslarni izlash alohida ahamiyatga ega. Konstruktiv yo'llardan biri nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish sohasida, balki inson faoliyatining boshqa sohalarida, xususan, akmeologiya sohasida ham innovatsion yuqori texnologiyalarni yaratish bilan bog'liq. Mutaxassislarining yuksak professionalligi va ijodiy mahorati inson resurslarining eng muhimlaridan biri bo'lib, bu dolzarb global – inqiroz muammolarini maqbul hal etish omiliga aylanadi. Ushbu ijtimoiy-madaniy kontekstda yangi integral-kompleks fan akmeologiyasi alohida ahamiyatga ega.

Boshqaruv nazariyasi, pedagogika va psixologiya fanlari bilan o'zaro ta'sir natijasida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan akmeologiya kasbiy mahoratni shakllantirish ishida asosiy e'tiborni uzluksiz ta'lim tizimiga qaratmoqda. Akmeologik yondashuvda mutaxassislarining tayyorgarligi va ular malakasini oshirish muammosi eng dolzarb masala darajasiga ko'tarilmoqda va bunda quyidagi jihatlariga ahamiyat beriladi:

- Shaxsning iqtidori va qobiliyatlarini diagnostika qilishda pedagogiya, androgogika va gerontologiya vositalariga yo'naltirilganlik, akmeologiyaning yoshga xos jihatiga yo'naltirilganligidir;

- O'rta umumta'lim, kasb-hunar ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilishga yo'naltirilganlik, akmeologiyaning ta'limiy jihatidir;

- Mazkur mehnat faoliyati turiga kasbiy layoqat va psixologik tayyorlikni aniqlashga yo'naltirilganlik, akmeologiyaning kasbiy jihatini ifodalaydi;

- Ijodiy faoliyat jarayonida qo'lga kiritilgan ijtimoiy ahamiyatga innovatsiyalar (yangiliklar)ni baholash, kasbiy mahoratga erishishga sarflanadigan sa'yi-harakatlar tizimi, akmeologiyaning kreativ jihatidir;

- Kishining kasbiy mahorat darajasiga erishishida akmeologik jihatlarining samarali o'zaro ta'sirini ta'minlovchi omillar yig'indisi, akmeologiyaning refleksiv jihatidir.

Akmeologiyada shaxsning o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'q-qisiga erishuvi muayyan bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Ana shu shaxs taraqqiyotining bosqichlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Kattalik tushunchasiga to'g'ri berilgan ta'rifga ko'ra, u inson hayotining alohida davri bo'lib, u 18 – 20 yoshdan boshlanadi. Akmeologik yondashuvdagi eng ustun muammolardan biri bu – mutaxassislar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish muammosidir.

Yoshlik davri 23 – 28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:

1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining xususiyatiga moslashish (ko'nikish) – mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi 3 yildan 8 yilgacha – ish staji nazarda tutiladi) yoki kasb-korlik, mahoratni egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy etuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida 10 va undan ortiq yillar davomida ishlab, sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish.

Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsada, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovvut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart.

Hozirgi mutaxassislarning ko'pchiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z mohiyatiga ko'ra uch xildir. Ular:

a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhit shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kishilarning xarakter xislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlarini, ma'naviyati, an'analari va hokazo;

b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning etishmasligi va boshqalar;

v) mutaxassislik bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar: ishlab chiqarishning mohiyati, xususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko'nikmaning bo'shlig'i yoki ular bilan etarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to'la anglab etmaslik, xavfsizlik texnikasi, mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik ifodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni engish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayonlari va xususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananov o'zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va nonverbal aqliy (mantiqiy va mnemik funksiyalar) sodda jarayonlarga (organizmda issiqlik paydo bo'lishidan metabolizm – modda almashinuvigacha), hatto shaxsning xususiyatigacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko'rsatib o'tadi.

Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishish eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu hol odamlarning 45,4 foizida bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto, u 45 yoshda 3 foizga teng bo'ladi.

23 – 28 yoshgacha davrda qator vazifalar darajasining o'zgarishi, takomillashuvi: ko'rish maydonining ko'lami, ko'z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarmasligining o'sishi boshqa faoliyat va ko'rish ta'sirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo'ladi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

1) mehnat jamoasi – mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma'naviyat olami, barqaror emaslik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki

salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo'shilgan a'zo unda o'z o'zni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsa-da chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini emiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir.

Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari hislar, shaxsiy nuqtai nazar bo'shashib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

2) oila mikromuhiti – yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar otanasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart. Oiladagi shaxslararo munosabatning ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanish kerak. Lekin oila tinchligi, totuvligi va ahilligiga xalal bermaslik niyatida yosh yigit va qizlar (kelinlar) vijdon amriga qarshi xatti-harakat qilishga ham majbur bo'ladilar, o'z maslaklari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan umumiy «til» topishga intiladilar. Shunga ko'ra oila muhiti ham yigit va qizlarning ruhiyati hamda ma'naviyatini o'zgartiradigan omil vazifasini o'taydi.

3) norasmiy ulfatlar – inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va xulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar ra'yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida o'zgarishlar yuzaga keladi. Yuksak hislar, barqaror e'tiqod, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyg'ulari poymol bo'ladi, ya'ni «Do'sting uchun zahar yut» qabilida ish tutiladi. Natijada mas'uliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafoqlik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarni ishbilarmonlikni, amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyati ham bo'ladi. Shu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtai nazaridan

yondashmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanishga ham harakat qilish ayni muddaodir.

Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'l-ko'lchiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati – yoshlarga bog'liq, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma'naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Yetuklik davrining birinchi bosqichi shaxsning kamol topishi hisoblanib, bu bosqichga 28 – 35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari etkilaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashi, dinamik stereotipida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi. U endi faqat o'zining xatti-harakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari uchun ham javobgarligini anglay boshlaydi, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarning, o'z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi uchun ham jon kuydiradi, ularga imkoniyat boricha yordam berishga intiladi.

Boshqa yosh davrlaridagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqiroz bo'ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli, ko'ngilsizliklar vujudga kelganligini anglay boshlaydi. O'ziga o'zi hisob berish shu davrning muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Organizmdagi ayrim o'zgarishlar, umrning tez o'tishi kishini qattiq tashvishga va iztirobga soladi. U bundan keyingi hayotning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi. Ayrim orzu-istaklarini amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlari etishmasligini anglash uning psixikasida «turg'unlik» tuyg'usini vujudga keltiradi.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu hol butun kuch-quvvat, aqliy, zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi hisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi.

Yetuklikning turli davrlarida kamol topish jabxalarining o'zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G.Ananov laboratoriyasi xodimlari 29 – 32 yoshlarda funksional darajaning oshishi 46,2; barqarorlashuvi 15,8;

funksional darajaning pasayishi 38,0; 33 – 35 yoshlarda esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 11,2; 33,3 foiz, 55,5 foizni tashkil qilishini aniqlashgan.

Yu.N.Kulyutkin tadqiqotining natijasiga qaraganda, 30 – 35 yoshlarda diqqat 102,8; xotira 99,5; tafakkur 102,3 birlikka baravardir. Yetuklik davri faoliyatining mahsuldorligini o'rgangan G.Leman uning cho'qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30 – 34, geologlar va astronomlarda 30 – 35 yosh ekanligini va o'rtacha mahsuldorlik cho'qqisi 37 yoshda bo'lishini qayd qilgan.

Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo'ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy kamolotda ayollar ilgarilab kelgan bo'lsalar, endi erkaklar oldinga o'tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi.

Yetuklik davrida ijodiy faoliyatning mahsuldorligini F.Yesareva quyidagi mezonlar bilan o'lchashni lozim topadi:

- 1) e'lon qilingan ilmiy ishlarning miqdori;
- 2) chop qilingan asarlar ichida o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalarning mavjudligi;
- 3) ilmiy tadqiqotda yangi yo'nalishning ochilishi;
- 4) ilmiy muammoni hal qilishda yangi usulning kashf etilishi;
- 5) ilmiy maktabning tashkil qilinishi;
- 6) boshqa mualliflarning ishlariga murojaat qilish va ilova berish miqdori;
- 7) o'qituvchining ilmiy ma'lumotlaridan talabanning mustaqil ishlarida foydalanish ko'lami;
- 8) o'qituvchi rahbarligidagi diplom va dissertatsiya ishlarining miqdori va sifati;
- 9) o'qituvchining ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyati mukofot bilan taqdirlanishida;
- 10) dotsent va professor ilmiy pedagogik unvonlarga sazovor bo'lish kabilar.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag'rurlik hislari paydo bo'ladi, o'zining boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko'rinishga ega bo'lgan ruhiy holat ham oila a'zolari, tengqurlari, mehnat jamoasi a'zolarining ta'siri orqali asta-sekin muayyan yo'nalishga tushib qoladi.

Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir-chikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do'stlik, dunyo lazatlaridan oqilona foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar. Yetuklik davri 36 – 55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yangi xislat namoyon bo'ladi.

Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo'lsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o'zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar. Har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qo'ldan boy bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda etti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuyg'usini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrning biror-daqiqasi behuda o'tishiga achinadilar, yoshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45 – 50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bu chegara turlicha, masalan, u bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga, jo'g'rofiy iqlim va hokazolarga ham bog'liqdir. Mazkur yosh davrining o'zgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va ta'limiy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz ta'limiy ta'sir) belgilaydi.

Shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida ma'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtiradi. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o'zligini anglashdagi «Men» uch xil ko'rishdan ifodalanadi: «Men» ko'pincha «Men – obraz» shaklida o'zi tomonidan talqin qilinadi. Shaxsning «Men – obrazi». 1) retrospektiv «Men»dan iborat bo'lib, o'tmishdagi o'zligini aks ettiradi; 2) aktual «Men» sifatida tasavvur etilib, o'zining hozirgi davrini ifodalaydi; 3) ideal «Men» obrazi esa yaqin kelajakda o'zining qanday tasavvur qilish tuyg'usi bilan bog'liq holda yaratiladi. Shuning uchun o'z imkoniyatlarini hayotda to'la safarbar qilish istagi

ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o'zining o'tmish obrazini hozirgisi bilan solishtirib, shaxsiy ideal modelini vujudga keltiradi, shaxs mazkur modelga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-harakat maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o'tmishidan hozirgi kunga, hozirgi kundan kelajakka intilishi o'zini anglashning bosh mezonini hisoblanadi. O'zligini anglashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, ular o'zini o'zi baholash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish, o'ziga buyruq berish kabilarda aks etadi. O'zini anglash ko'pincha, o'ziga boshqa kishilar: a) yoshi ulug' odamlar; b) tengdoshlari; v) o'zidan kichik odamlar nuqtai nazaridan qarashda ko'rinadi.

Qator olimlar (Klapared, Mayls, Bellis, Filip) mazkur yoshdagi-larning tovush va yorug'likdan ta'sirlanish vaqti o'zgarishini o'rgan-ganlar. Olingan ma'lumotlar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'z qimmatini hozirgacha saqlab kelmoqda. Fulds, Raven, Pako kabi tadqiqotchilar intellektning mantiqiy qobiliyatini tekshirishib, 30 yoshda 96, 40 yoshda 87, 50 yoshda 80, 60 yoshda esa 75 foiz bo'lishini aniqlaganlar.

Z.F.Esareva oliy maktab o'qituvchilarining ijodiy faoliyati xusu-siyatlarini o'rganib, doktorlik dissertatsiyalarini matematiklar 33, psixo-loglar 46, filologlar 46, tarixchilar 47, fiziklar 37, biologlar 40 yoshda yoqlashlarini aniqlagan.

Umuman etuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlariga bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, his-tuyg'ularga seroblighi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi. Qanday qarorga kelish, ya'ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan chetlashish muayyan holatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishini XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim-ikki marta uzayganligi, etuklik davridagi erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, ma'naviyati va ruhiyati tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy mahorati, turmush tajribasi, ongining yuksakligi, ma'naviyatining boyligi, ruhiyatining sofligi yangi zafar, mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

Akmeologik tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy-uslubiy yo'naltirilganligi

Akmeologiya rivojlanishining to'rtta asosiy bosqichi mavjud. Birinchisi *yashirin*, ilmiy bilimlarda insoniyatning yangi sohasini tanlash uchun tarixiy, madaniy, ijtimoiy, falsafiy, ilmiy, amaliy, pedagogik zaruriyatlar shakllanganda. Ikkinchi bosqich *nominal* bo'lib, unda ushbu turdagi bilimlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj aniqlandi va N.Ribnikov tomonidan 1928 yilda "akmeologiya" maxsus atamasi kiritilishi bilan ko'rsatildi. Uchinchi bosqich – *inkubatsiya*, uning boshlanishi N.Kuzminaning insoniyat fanining yangi sohasi sifatida akmeologik muammolar bo'yicha tadqiqot turkumiga ehtiyoj haqida kontseptual g'oyasi paydo bo'lishidan boshlanadi. To'rtinchi – *institutsional* bosqich bo'lib, u bir qator ijtimoiy tuzilmalarni yaratish bilan bog'liq: akmeologiya bo'limi, universitetlardagi laboratoriyalar va h.k.

Akme-formalarni o'rganish va tahlil qilish, muvaffaqiyatli va ijodiy kasbiy mahorat va kasbiy mahoratni rivojlantirishning optimal texnologiyalarini ishlab chiqish uchun akmeologiya turli mutaxassislar tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonlari va usullarini har tomonlama o'rganadi, buning uchun boshqa insonparvarlik fanlari, birinchi navbatda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, genetika va pedagogika bilan uzviy bog'lanadi. Akmeologiya o'zining ontologik aniqligini inson hayotidagi akme-formalarning fenomenologiyasini aniqlash, tavsiflash, tahlil qilishga, uning kasbiy faoliyatni professional, psixologik ijodiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirishda shakllantirishga qaratilganligi tufayli oladi.

Akmeologik tadqiqot va rivojlanishning ilmiy-uslubiy yo'nalishlari. Akmeologiya, ilmiy bilishning boshqa har qanday sohasi kabi, uni fan sifatida qat'iy va metodologik tashkil etadigan umumiy ilmiy tamoyillargina emas, balki uni predmet-metodik bilimlarning o'ziga xos tarmog'i sifatida tavsiflovchi o'ziga xos intizomiy xususiyatlarga ham ega. Ilmiy intizom paydo bo'lganligi uchun uning predmeti – metodologik o'ziga xosliklari va kategorial-uslubiy asoslarini belgilash maxsus loyihalash vazifasi bo'lib, uni hal etish ma'lum darajada aniq akmeologik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish yo'llariga bog'liq. Ular uchta asosiy ilmiy-metodik yo'nalishga ega:

➤ Akmeologiyadagi tabiiy-ilmiy yo'nalish, birinchidan, u mustaqil fan sifatida shakllanishga intilib, uslubiy jihatdan asosan intizomiy me'yorlarga rioya qilishida (faktlar, mexanizmlar, naqshlar, ularning matematik ishonchliligi va boshqalar bilan tajriba o'tkazish shaklida)

amal qilishida namoyon bo'ladi. Ular klassik tabiatshunoslikda rivojlangan. Ikkinchidan, bir qator akmeologik muammolarni (iqtidorning tabiati, qobiliyatlarning genetik va psixofiziologik tarkibiy qismlari, kasbiy mahoratni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari va boshqalarni) tahlil qilishda rivojlanish fiziologiyasi, psixogenetikasi va mehnat psixofiziologiyasi sohasidagi tabiatshunoslik bilimlariga murojaat mavjud.

➤ Akmeologiyada ijtimoiy va gumanitar yo'nalish yanada xilmaxil namoyon bo'ladi. Gumanitar fanlarga mansub akmeologiya, bir tomondan, tarixiy taraqqiyot jarayonida ushbu fanlar bilan genetik ta'sir o'tkazish asosida, ikkinchidan, paydo bo'layotgan mustaqil intizom sifatida ulardan ajratilgan holda o'z ontologik aniqligini oladi.

Albatta, akmeologiya paydo bo'lishidan oldin ham psixologlar, sotsiologlar va o'qituvchilar uzoq vaqt davomida kasbiy mahorat, ijodkorlik, kattalar ta'limi masalalarini o'rganib kelishgan, bu ko'p jihatdan akmeologik muammolarga o'xshashdir. Shu bilan birga, mahoratning etukligini o'rganishga, uning sammiti "akme" shakllarini o'stirishga alohida e'tibor birinchi navbatda maxsus akmeologik muammolarning paydo bo'lishiga, so'ngra asl akmeologik modellar va texnologiyalarning kontseptual va uslubiy qurilishiga, shuningdek, akmeologiyaning paydo bo'lishi va dizayniga olib keldi.

➤ Akmeologiyaning texnologik yo'nalishi nafaqat uning texnik fanlar (kibernetika, tizim muhandisligi, informatika va boshqalar) bilan bevosita o'zaro ta'sirida, balki ularning o'ziga xos algoritmik aniq standartlaridan amaliy yo'naltirilgan amaliy bilimlaridan foydalanishida ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, yodda tutish kerakki, bir tomondan, akmeologiya va texnik fanlarning o'zaro bog'liqligi o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi, balki vositachilik qiladi, xususan, ergonomika, bu texnologiyani inson omilini optimallashtirish uchun ularning muammolarini qaytarilishini ta'minlaydi (masalan, avtomatlashtirilgan odamda) mashinani boshqarish tizimlari va boshqalar). Boshqa tomondan, zamonaviy prakseologiyaning akmeologiyaga ikki tomonlama jarayon tarzidagi ta'sirini ham, masalan, psixotexnika va o'yin texnologiyasi, innovatsiya va refleksika (I.N.Semenov, 1994) va texnika fanlarini insonparvarlashtirish (bionikaning paydo bo'lishi) texnologiyasini hisobga olish kerak.

Akmeologiyaning insonni anglash tizimi bilan o'zaro munosabati

Jamiyatimiz rivojlanishining ushbu bosqichi har bir inson uchun qiyin vazifalarni qo'ydi, buning uchun, ehtimol, standart tayyor echimlar mavjud emas. Xulq-atvorni ijtimoiy tartibga solishning noaniqlik, tavakkalchilik va "xiralashgan" axloqiy me'yorlari sharoitida jamiyatning hozirgi holatiga muvofiq, shaxs o'zini o'zi kuchiga tayanib, o'zini mustaqil ifoda etishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ijrochiga qarama-qarshi bo'lgan faol va mustaqil shaxs turi shakllanishi kerak.

Mamlakatdagi ushbu keskin ijtimoiy-psixologik vaziyat akmeologiya va uning amaliy yo'nalishlarini shaxsning qadr-qimmatini, o'zini o'zi takomillashtirish, kasbiy faoliyati va ijtimoiy rolini yuqori samaradorlik bilan amalga oshirish, to'laqonli hayot kechirish qobiliyati haqidagi fan sifatida rivojlantirishning o'ziga xos ijtimoiy buyurtmasiga aylandi. Rivojlanayotgan shaxsni o'rganishda qayd etilgan yondashuv ilmiy paradigmaning akmeologiyasida, K.A.Abulxonovning obrazli ifodasida, "haqiqatdan kelib chiqadigan" hukmronlikni keltirib chiqardi, ammo, shu bilan birga, bizning fikrimizcha uni kelajakka yo'naltirgan. Shuning uchun realizm va istiqbol kabi akmeologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, uning ilmiy yo'nalishlari va insoniyat ilmi tizimidagi o'rni belgilab berdi.

Akmeologiyaning ilmiy yo'nalishlari insonning qadriyatlarini, uning ma'naviy dunyosi, ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyati haqidagi g'oyalar to'plamiga asoslanadi (A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina). Akmeologiyaning mafkuraviy asoschilaridan biri, taniqli rus olimi V.M.Bexterev ta'kidlaganidek, "... xalqning taraqqiyoti, uning sivilizatsiyasi va madaniyati birinchi navbatda shaxsning rivojlanish darajasiga bog'liq ...".

Nazariy akmeologik tadqiqotlarning aniq asosini tashkil etuvchi taniqli shaxslarning hayot yo'llari, shaxsiy, ijodiy va kasbiy yutuqlari hamda yuqorida keltirilganlar akmeologiyaning ilmiy yo'nalishi va maqomining o'ziga xosligini ham belgilaydi.

Akmeologiyaning ilmiy yo'nalishlarini o'rganish va tavsiflashda ular asosan ontologik, epistemologik, aksiologik va uslubiy rejalar yoki jihatlarida namoyon bo'lishini unutmash kerak.

Ontologik tekislik akmeologiyaning ob'ekt makonini tavsiflaydi. Ilm-fan sifatida u boshqa haqiqat fanlari tomonidan chuqur ko'rib chiqilmagan insoniyat haqiqatining bunday sohasini (birinchi navbatda, professionallik va uning rivojlanishi) qamrab oladi, shuning uchun uni

“oddiy uzatish”, akmeologiya bilan tutashgan fanlardan olingan bilimlarni tushuntirish va birlashtirish bilan tavsiflab bo‘lmaydi.

Genesologik reja tadqiqot haqiqatining mustaqilligi bilan tavsiflanadi, bunda inson haqiqatining haqiqiy akmeologik tomoni, avvalo, ushbu fanga xos bo‘lgan usullar bilan ko‘rib chiqiladi. Amaliyotda akmeologiya o‘z texnologiyalari va o‘zini rivojlantirish hamda o‘zini takomillashtirish usullaridan foydalanadi.

Aksiologik reja shaxsiyatning asosiy qadriyatlarini ifodalaydi. Akmeologik nuqtai nazardan, zamonaviy postindustrial va axborotlashgan jamiyatda inson hayotining maqsadlaridan biri, bu uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi cho‘qqilarni zabt etish, ushbu rivojlanishni insonparvarlashtirishdir.

Metodologik reja akmeologiyaning yangi mustaqil fan sifatida maqomini aks ettiradi, integral va fanlararo, shaklan murakkab va bilimlarni tashkillashtirish yo‘lida tizimli hisoblanadi.

Akmeologiyaning boshqa jihatlariga kulturologik, axloqiy, gerontologik, estetik va sinergetik kiradi.

Uslubiy muammolarni hal qilishga qaratilgan o‘tkazilgan akmeologik tadqiqotlarda akmeologiyada kamida uchta ilmiy va uslubiy yo‘nalishlar mavjudligi isbotlandi:

- tabiatshunoslik;
- ijtimoiy va gumanitar;
- texnologik.

Tabiiy ilmiy yo‘nalish empirik akmeologik faktlar va munosabatlar, klassik tabiatshunoslikka xos bo‘lgan intizomiy standartlarda tasvirlangan va talqin qilinganligi bilan ifodalanadi, chunki akmeologiya, unga nisbatan umumiy psixologiya singari, asosan aniq ob‘ektlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Akmeologiyada ijtimoiy va gumanitar yo‘nalish yanada xilma-xil namoyon bo‘ladi. U turli xil ontologik belgilashlarga ega, ammo asosiy narsa shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg‘un kombinatsiyasi bilan shaxsning izchil rivojlanishi bilan bog‘liq.

Texnologik yo‘nalish tizim muhandisligi, axborot nazariyasi va prakselogiya bilan bog‘liq holda hamda amaliy yo‘naltirilgan. Akmeologiya insonni o‘rganish majmuasi haqidagi fan sifatida boshqa fanlar bilan turli xil subyektlararo aloqalarga ega bo‘lib, unga akmeologik muammolarni hal qilishda, akmeologik qonunlarni aniqlashda yordam beradi. Akmeologiyaning fanlararo aloqalari rivojlanish predmetining balandligi va ahamiyati jihatidan mazmuni va yo‘nalishi, mavzuning

mohiyati va kengligi, uning qiymat yo'nalishlari, ob'ektning ontologik holati, ilmiy va amaliy vazifalari bilan farq qiladi.

Akmeologiya insoniyat ilmiy majmuasining bir qismi bo'lgan fanlar bilan yaqin fanlararo aloqada. Akmeologiya u erda taniqli o'rinni egallaydi va amaliy bilimlarning texnologik standartlari orqali namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Pedagogik akmeologiyaning jamiyatshunoslik va insonni anglash tizimdagi o'rini tushuntiring.
2. Akmeologik tafakkurning ijtimoiy-madaniy tizimini tushuntiring.
3. Pedagogik akmeologik tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy-uslubiy yo'naltirilganligini tushuntiring?
4. Pedagogik akmeologiyaning insonni anglash tizimi bilan o'zaro munosabatini tushuntiring?

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya". M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.edu.uz
6. tdpu-INTRANET.ped

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA FANI DOIRASIDAGI TADQIQOTLAR

Tayanch tushunchalar: *tabiiy qobiliyati, ehtiyoj, evriologiya, ergonologiya, refleksologiya, ontogenez, individ, dimorfizm, individual-tipologik xarakter, konstitutsional xususiyat, temperament, biosotsial.*

Pedagogik akmeologiyaning hozirgi kundagi rivojlanishi

Hozirgi paytda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb-hunarga layoqati va sa'y-harakatlaridan oqilona foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari, hayotiy istiqbollarini belgilab olish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, etuk professional kadrlarni ahloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda. Ushbu mexanizmlardan biri – inson resurslarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo'llarini izlab topish, ya'ni o'ta muhim echimlaridan biri – akmeologiyaning ijtimoiy-ahloqiy muammolarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Shu bois, uchinchi ming yillik bo'sag'asida shiddatli kechgan intellektual izlanishlar davrida evriologiya, ergonologiya, refleksologiya bilan bir qatorda yuksak texnologiyalarni yaratish g'oyalari, nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish, balki insonning ijtimoiy-ahloqiy faoliyatlarini o'rganuvchi fan – akmeologiyaning rivojlanishi bilan bog'landi.

Pedagogik akmeologiyaning asosiy muammolari

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananov, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi.

Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlilik va etuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi, degan nazariyalar ham yo'q emas.

Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etukligi bo'lmoq'i

lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshq.), degan qa'tiy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal etuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada «akte» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N.V.Kuzmina).

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akte» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» - bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsa-da, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni qamrab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgarish olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir.

Yetakchi faylasuf olim Xatima Shayxova bu borada:

«Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarni o'rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlari ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat», deydi.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning etuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandır. Bunda biz Sharq allomalarining «komil inson», muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Barkamol inson» g'oyalari akmeologiyaning ob'ekti «akmeshaxs» tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundamenti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z ifodasini topgan va bugungi kunda

bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, «akme» tushunchasini, albatta, yuksak cho‘qqi, avj nuqta, eng oliy hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo‘lib, insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamolikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro dialektik munosabatlarning shakllanishiga olib keladi. Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun zarur qonuniyatlarni o‘rganuvchi fan bo‘lgani uchun «akmeologiya» atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Buning boisi, birinchidan, akmeologiya sohasida ilk davrlarda asosan pedagoglar, psixologlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlar, etika ixtisosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari fanning yoki bu jihatlarinigina qamrab olganligi sababli ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz o‘zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalaridan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatilib kelingan bo‘lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va ahloqiy nuqtai nazardan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida to‘la o‘rganilmagan.

«Akmeologiya», agar ularni hududga moslashtirilsa, insonshunoslikdagi barcha tajribalardan o‘zining yuqori samaradorligi va ta‘lim berishdagi ayrim qulayliklari bilan ajralib, o‘quv jarayonining sifatini pedagogik mahoratdan ozod qiladi va ta‘lim-tarbiya jarayonining faqat yaxshi va a‘lo darajada bo‘lishligini kafolatlashi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini beradi.

Pedagogik akmeologiya fani doirasidagi tadqiqotlar

Akmeologiya quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi:

Birinchisi, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb

etadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni ta'lim olishda sog'lom ijtimoiy-ahloqiy muhitni yaratish, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e'zozlash, ahloqan pok, intellektual etuk, yuksak professional mutaxassis, ilg'or fikrli, salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash hozirgi paytda ustuvor vazifalardan bo'lmog'i lozim.

Ikkinchisi, zamonaviy tafakkur rivojida akmeshaxs qiyofasiga ahloqiy munosabat zarur. Zero, yurt ravnaqi, millat rivoji, barqarorligini akmeshaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekistonda barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatlar kabi uch asosiy jihatga e'tibor berish o'ta muhim va dolzarb masala bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning faol kechishida muhim omillardan hisoblanar ekan, shaxsning intellektual boy, yuksak ma'naviyatli akmeshaxs bo'lib etishishi «vaqt o'zagi» elagidan o'tgan ma'naviy merosga bog'liqligi yoshlar ongiga singdirib borilishi lozim.

Uchinchisi, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan bir davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda yoshlar muammosini respublika oldidagi umumiy vazifalardan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Shu bois, yoshlar shaxsining shakllanishi, kamol topishi muammosini o'rganishda akmeologik bilimlardan foydalanish usuvor vazifalardan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Umuman olganda, B.G.Ananevning fikriga ko'ra, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin» va bularning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlilik va etuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etukligi bo'lmog'i lozim.

Inson xulq-atvorini qanday qilib tushunish mumkin? Nega insonlar turli qobiliyat egasi bo'ladilar? "Ruh" nima va uning tabiati qanday? Bu va shu kabi savollar hamisha insoniyatni qiziqtirib kelgan.

Ratsional yondashuvga ko'ra bizni o'rab turgan voqelik ongimizdan holi ravishda mavjud bo'ladi, bu ko'pgina tadqiqotlarda o'z aksini topgan va kuzatish ishlari o'z ilmiy asosiga ega. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun tadqiqot predmeti haqida tushunchaga ega bo'lish zarur. Turli fan yo'nalishlari vakillari bir necha bor inson haqida to'liq

tasavvurlarni shakllantiruvchi g'oyalarni ishlab chiqishga uringanlar. Bunday tasavvurlar psixologiyada ham mavjud.

B.G.Ananevning shaxs konsepsiyas.

Shaxsni o'rganishga qaratilgan izlanishlar jahon psixologiyasida mashhur bo'lgan B.G.Ananev ishlarida uchraydi. B.G.Ananevning jahon psixologiyasi taraqqiyoti uchun qo'shgan xizmatlari haqida gapirganda uning shaxs psixologiyasini tadqiq qilishga yangicha metodik yondashuvni ishlab chiqqanligini alohida ta'kidlash zarur. Shaxs haqidagi ilmiy bilimlar taraqqiyoti haqida gapirar ekan, Ananev shaxs muammosi butun fan sohalari uchun yagona umumiy muammoga aylanishini ta'kidlagan. Zamonaviy ilm-fanda inson salomatligi, uning ijodkorligi, ta'lim-tarbiyasi, kechinmalari va xislari bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qiziqish kundan-kunga ortib, shaxsni o'rganish uchun kompleks tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ananev shaxs borasidagi bilimlar tizimida 4 asosiy tushunchani ajratib ko'rsatadi:

- individ;
- faoliyat subyekti;
- shaxs;
- individuallik.

“Individ” tushunchasiga bir necha ta'riflar bor. Eng avvalo individ – biologik mavjudotdir. Ushbu holatda insonning biologik xususiyatlari etakchilik qiladi. Lekin, ba'zida bu tushuncha insoniyatning alohida bir vakilini anglatish uchun qo'llaniladi. Bu vaziyatda ham insonning biologik xususiyatlari inkor etilmaydi.

Inson individ sifatida muayyan bir xususiyatlarga ega bo'ladi. Ananev individning birlamchi va ikkilamchi sifatlarini u barcha insonlarga xos bo'lgan sifatlarni, ya'ni yosh xususiyatlarini, jinsiy dimorfizm, individual-tipologik xarakterlarni, konstitutsional xususiyatlarni, katta yarim sharlarning funksional geometriyasini kiritish mumkin. Individning birlamchi xususiyatlarining o'ziga xosligi uning ikkilamchi xususiyatlari aniqlanib beradi: psixofiziologik funksiyalar dinamikasi va individning organik ehtiyojlari strukturasi. O'z navbatida bu xususiyatlarning o'zaro integratsiyasi shaxs temperamenti va layoqati uchun zamin hozirlaydi (1-rasm).



1-rasm. Ananov bo'yicha individning strukturasi

Insonni xarakterlovchi va real dunyoning ob'ektini anglatuvchi boshqa bir tushuncha – bu “shaxs”dir. Ushbu tushuncha ham “individ” tushunchasi singari bir necha ta'riflarga ega. Ko'pincha shaxs deganda ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat subyektini bo'lgan individ tushuniladi. Ayrim psixologlar shaxs deganda hamkorlikdagi faoliyat va muloqot orqali shakllangan individning tizimli xususiyatlarini tushunadilar. Ushbu tushunchaga oid ko'pgina ta'riflar mavjud, lekin ularning bari yagona g'oyaga tayanadilar ya'ni “shaxs” tushunchasi insonning ijtimoiy voqelik, mavjudot ekanligini xarakterlaydi. Ushbu tushuncha doirasida motivatsiya, temperament, qobiliyat va xarakter kabi shaxs psixik xususiyatlari ko'rib chiqiladi (2-rasm).



2-rasm. Ananov bo'yicha "shaxs" tushunchasining strukturasi

Ananov ajratib ko'rsatgan tushunchalarning yana biri – "faoliyat subyektidir". Bu tushuncha o'z mazmuniga ko'ra, "individ" va "shaxs" tushunchalari orasida joylashadi. Faoliyat subyektini biologik va sotsiologik mavjudotlarni o'zida mujassam etadi. Agar inson faoliyat subyektiga aylanamaganida u mavjudotga aylana olmas edi, shu bilan birga evolyusiyasi va ijtimoiy taraqqiyotni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Insonni faoliyat subyektini sifatida e'tirof etishdan avval "subyekt" tushunchasining falsafiy mazmunini tushunib olish dardkor. Ko'pincha bu tushuncha "ob'ekt" tushunchasi bilan birga qo'llaniladi. Ob'ekt va subyekt hamisha o'zaro aloqadordir. Ob'ekt – bu bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan predmet yoki real voqelik, shaxs-subyektning faol ta'siri va maqsadlari u bilan uyg'un bo'ladi.

Insonning atrofini muayyan bir predmetlar va voqeliklar o'rab olgan. Inson faolligiga qaratilgan u yoki bu voqelik, predmetlar ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. Inson faoliyatining o'zi ham ob'ekt bo'lishi mumkin.

Insonni subyekt sifatida boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim jihati – bu ongidir (3-rasm).



3-rasm. Ananov bo'yicha "faoliyat subyektini" tushunchasining strukturasi

Ong – bu insongagina xos bo‘lgan psixik taraqqiyotning yuqori shaklidir. U ob‘ektiv reallikni anglashga, maqsadga muvofiq xulq-atvorni shakllanishiga, atrof-muhit haqidagi bilimlarning hosil bo‘lishiga imkon beradi. O‘z navbatida atrof-muhitni bilishga qaratilgan ongli faoliyat subyektning muhim jihati hisoblanadi. Shunday qilib, subyekt – bu ong sohibi, faoliyatga qobiliyati bo‘lgan individdir.

Demak, inson birinchidan, tirik mavjudot vakili, biologik ob‘ekt sifatida, ikkinchidan, ongli faoliyat subyektini sifatida, uchinchidan, ijtimoiy mavjudot sifatida tadqiq qilinadi. Ya‘ni inson – bu biosotsial mavjudot bo‘lib, u ong egasi va faoliyatga moyildir. Bu uch darajaning birlashuvi insonning individual xarakterlarini ko‘rsatib beradi.

Individuallik – bu muayyan bir shaxsning betakrorligi, o‘zgalarga o‘xshamasligini ifodalovchi psixik, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar majmuidir. Shaxs individualligining dastlabki negizlari anotomafiziologik layoqatlarga borib taqalib, u ta‘lim-tarbiya natijasida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib boradi. Turli ta‘lim sharoitlari va tug‘ma layoqatlar shaxs individualligining variantivligini oshiradi.

Demak, shaxs real dunyoning eng murakkab mavjudotlaridan biri deb xulosa chiqarsak bo‘ladi. Shaxs tuzilishi serqirra bo‘lib, u o‘zida tabiiy va ijtimoiy jihatlarni aks ettiradi. Shu boisdan ham shaxs va uning faoliyatini o‘rganuvchi fan sohalari juda ko‘pdir.

Nazorat savollari

1. Pedagogik akmeologiyaning hozirgi kundagi rivojlanishini tushuntiring.
2. Pedagogik akmeologiyaning asosiy muammolarini tushuntiring.
3. Pedagogik akmeologiya fani doirasidagi tadqiqotlarini tushuntiring.
4. B.G.Ananevning shaxs konsepsiyasini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Ilm-Ziyo”, 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. “Akmeologiya asoslari”. T.: Tafakkur bo‘stoni.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug‘at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. “Filosofiya va akmeologiya”. M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOLARI. KASBIY KOMPETENTLILIK

Tayanch tushunchalar: *refleksiv kompetentlik, autopsixologik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy muloqot, professionalizm, kichik "akme", katta "akme", novatorlik tajribasi, kasbiy "akme"*.

Akmeologiyaning asosiy muammolari

Kasbiy rivojlanishdagi "akme" yoki kasbiy "akme" – shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonida muayyan vaqt oralig'ini uchun xos bo'lgan uchun eng yuqori daraja hisoblangan psixik holatdir. Kasbiy "akme" barcha kasbiy qobiliyatlarni safarbar etish, ro'yobga chiqarish, imkoniyatlarini maksimal tarzda namoyon etish, hayotining muayyan bosqichida ortiqcha zo'riqishlarsiz, inson imkoniyatlarining chegarasidan o'tmagan holda yutuqlarga erishishni ta'minlaydigan psixik holatdir.

Inson tomonidan eng yuqori cho'qqilarga erishishning shakli sifatida kasbiy "akme" B.G.Ananov, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, Ye.A.Zazikin, Ye.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markovalar tomonidan o'rganilgan va tavsiflab berilgan.

Kasbiy "akme" – muayyan vaqt oralig'idagi shaxsning kasbiy rivojlanishining kulminatsiyasi, eng qaynoq nuqtasidir. B.G.Ananov kulminatsiya deganda, inson tomonidan o'zi uchun eng qadrli narsalarni ijod qilishda yuksak samaradorlikka erishish davrini tushunadi. Kulminatsiyaning bosqichlari esa, B.G.Ananovning fikricha, vaqt, faoliyat, kasbiy tayyorgarlik metodlariga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy rivojlanishdagi "akme" vaqtga ko'ra kishining individ sifatidagi va shaxs sifatidagi "akme"sigacha mos kelmasligi mumkin. Insonning individ, shaxs va kasbiy faoliyat subyektini sifatidagi rivojlanishining "tig'iz" payti turli davrlarda ro'y berishi mumkin.

Har bir kishi o'z hayoti davomida turlicha ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy "akme"ga erishishi mumkin.

Ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy "akme" – alohida insonning eng yuqori darajadagi kasbiy muvaffaqiyatlari bo'lib, hamkasblari va atrofdegilar tomonidan e'tirof etilgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan natija, me'yoriy darajani ortda qoldiruvchi ko'rsatkichdir. Mehnatning bunday natijasi, odatda, kasbiy mahoratni va undan kasbiy ijodkorlikka o'tishni ifodalaydi. Agar u kasbiy tajriba chegaralaridan chetga chiqsa, kasbiy faoliyatga yangi vazifa, usul, texnologiya, umuman,

yangi natijalarni olib kirish bilan birga kasb tajribasiga o'zining yangi individual ijodiy ulushini qo'shadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy "akme" o'zida ilg'or yutuqlar (nazariy g'oyalar va kashfiyotlar), alohida ijodiy topilmalar, novatorlik tajribasi va boshqalarni aks ettirishi mumkin. Ba'zan esa yirik muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qo'rsatkichlarning pasayishi, ijoddagi tanaffuslar, quyi darajadagi natija, faoliyatning sustlashishi va boshqalar kuzatilishi mumkin. Odatda insonlar haqida ular erishgan yutuqlarga qarab fikr yuritishadi.

Shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy "akme" – alohida kishining kasbiy muvaffaqiyatining eng yuqori darajasi bo'lib, avval erishilgan natijalarni sezilarli tarzda ortda qoldirishdir. Mazkur yutuqlar hamkasblari tomonidan e'tirof etilmasligi mumkin, ammo kishining o'zi shu vaqt ichida professionalizm darajasiga erishishning maksimal imkoniyati sifatida anglanadi va baholanadi.

Individual subyektiv ahamiyatga ega kasbiy "akme" – kishining o'z ustidan g'alaba qozonishi, kuchlarini safarbar etishi, dastlab erishgan natijalaridan o'zib ketishi, o'zi uchun yangi hisoblangan professionalizm darajasiga ko'tarilishi, kasbiy mahoratning rivojlanishi uchun ilg'or shart-sharoit yaratishda namoyon bo'ladi.

Subyektiv ahamiyatga ega kasbiy "akme" xamma vaqt ham kasbdoshlar jamiyati tomonidan e'tirof etilmasa ham, mutaxassis uning imkoniyat va yangi yutuqlarini qanday baholashlariga befarq emas.

Kasbiy kompetentlilik

Kasbiy "akme"ning yuqori cho'qqilarning miqdori, "tig'izliklar", ko'tarilish darajasiga bir necha turlarini farqlash mumkin:

– katta "akme" – insonning butun hayoti davomida erishgan eng asosiy muvaffaqiyati, avvalgi ko'rsatkichlardan o'zib ketuvchi kasbiy natijalarning tig'izlashuvi, kasbiy faoliyatdagi yutuqlardan iborat bo'lib, u bir cho'qqili "akme" deb nomlanadi;

– kichik "akme" – mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi bir necha marotaba takrorlanadigan, katta "akme"dan avval ro'y beradigan muvaffaqiyat, ya'ni ko'p cho'qqili "akme".

Kasbiy faoliyatdagi "akme"lar bir-biridan quyidagi xususiyatlarga ko'ra farq qilishi mumkin:

– muddati va vaqt chegaralariga ko'ra (kunlar, haftalar, oylar, ba'zan yillar);

– masshtabi yoki ko‘lamiga ko‘ra (bir yoki bir necha kasbiy va ijtimoiy faoliyatni qamrab olishi).

Kasbiy “akme” umumiy kasbiy rivojlanish jarayonidagi o‘rniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin:

– kasbiy “akme” pasayish yoki turg‘unlik davrlaridan keyin (yashirin rivojlanayotganga o‘xshab), ba‘zan barqarorlashuvdan so‘ng namoyon bo‘lishi mumkin;

– kasbiy “akme”ning o‘zi pasayishga, bo‘shliqqa, rivojlanishdagi inqirozga sabab bo‘lishi mumkin;

– kasbiy “akme” yangi “akme”ning paydo bo‘lishiga, ko‘tarilish va innovatsiyalarga olib kelishi mumkin.

Kasbiy “akme” bir-biridan ichki tuzilishiga ko‘ra ham farq qilishi mumkin:

– barqaror darajadagi kasbiy muvaffaqiyatlar, bir maromda davom etuvchi natijalar;

– “sakrash”ga o‘xshagan bir necha faoliyatni faollashtirish bosqichlari.

Har bir kishida kasbiy “akme” mavjudligini va uning tabiatini baholash uchun mazkur kasb bilan shug‘ullanish jarayonida shakllangan professionalizm va kasbiy loyqlik yoki kompetentlik ko‘rsatkichlarini inobatga olish zarur. Kasbiy “akme”ni aniqlash va baholash alohida ijtimoiy-tarixiy davrda mazkur kasbiy faoliyatda shakllangan professionalizm va professional kompetentlikning ko‘rsatkichlari qanday tushunilishiga bog‘liqdir.

Professionalizm – inson mehnat faoliyatining integral psixologik tavsifi bo‘lib, uning kasbni qanday o‘zlashtirganligi, shu kasbning zamonaviy bosqichiga xos namunalar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Professionalizm o‘z ichiga kishining yuqori darajadagi mehnat samaradorligiga erishishi, boshqalar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajara olishi, mehnat kishisiga xos bo‘lgan muhim kasbiy sifatlarning mavjudligini qamrab oladi. Shuning uchun ham professionalizm mehnat faoliyatining uchta tomonini – kasbiy faoliyat, kasbiy muloqot va mutaxassis shaxsini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlilikni shakllantirish

Kasbiy faoliyat – kishining ijtimoiy va shaxsiy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ne'matlar yaratish uchun yo'naltirilgan, mehnat predmetlarini qayta o'zgartirishga qaratilgan faolligidir.

Kasbiy muloqot mehnat predmetlarini qayta o'zgartirish jarayonida boshqalar bilan o'zaro ta'sir etish va hamkorlik qilishga yo'naltirilgan faolligidir. U kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Mutaxassis (professional – o'z ishining ustasi) shaxsi – mehnat kishisining psixik xususiyatlari, sifatleri va holatlari yig'indisidan iborat bo'lib, u kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun imkoniyat yaratadi hamda mehnat jarayonida o'zgaradi va takomillashib boradi.

Kasbiy "akme" kasbiy faoliyatning yuqori darajasini, kasbiy muloqot va shaxs etukligini egallashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun shaxs, faoliyat va muloqot etukligi ko'rsatkichi kasbiy "akme"ning shakl va turlari mavjudligining mezoni sifatida qaralishi mumkin.

Kasbiy faoliyat samaradorligining ko'rsatkichlari quyidagilar:

1. Natijaviy ko'rsatkichlar:

➤ maqsadga muvofiqlik, natijalarning dastlabki maqsadlarga mosligi, samaradorlik;

➤ mahsuldorlik, mehnat predmetini o'zgartirishda namoyon bo'ladigan natijalar;

➤ tejamkorlik, manbalar, vaqt va ishchi kuchidan minimal darajada foydalanish;

➤ qulaylik, mazkur sharoitda eng yaxshi natijalarga erishish uchun minimal darajada vaqt va kuch sarf qilish;

➤ yuksak namunalariga mos keladigan faoliyat usullarini o'zlashtirish va natijalarga erishish;

➤ yangi vazifalar qo'yish, nostandart texnologiyalarni topish, umuman yangi mahsulot yaratish, shakllangan tajribalardan chetga chiqish (kasbiy ijod, yangiliklar yaratish).

2. Jarayonga xos ko'rsatkichlar:

➤ kasbiy faoliyat vazifalarining turli-tumanligi;

➤ ijtimoiy talablarga moslashuvchan, qulay texnologiyalardan foydalanish;

➤ kasbiy faoliyat subyekting shakllanganligi (kishining maqsad qo'ya olishi, anglashi, faoliyatni boshqara olishi);

➤ kasbiy faoliyatda deformatsiyalarning mavjud emasligi (maqsad, zveno va operatsiyalarni o'tkazib yubormaslik);

- o'tmish tajribaga asoslanish va o'zining shaxsiy tajribasiga ega bo'lish;
- aniq faoliyat turlarini egallash, ixtisoslashuv;
- bir necha oraliq faoliyat turlarini egallash, universallik);
- ixtisoslik talablariga mos keladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash.

3. *Professional muloqotning rivojlanganlik ko'rsatkichlari:*

- hamkorlikda, jamoa bo'lib bajariladigan kasbiy faoliyat samaradorligining oshishi;
- "komanda" bo'lib bajariladigan ish usullarini egallash, yuqori darajada mahsuldor kasbiy faoliyatning mavjudligi;
- yangi kasbiy muhit, ishga oid va ijodiy muloqotni loyihalash;
- hamkorlikdagi mehnat faoliyatida o'zaro bilish, o'zaro tushunish, bir-birini tuzatish;
- hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilarining psixik rivojlanishi uchun ichki zahiralarni safarbar etish uchun zarur sharoit yaratish;
- hamkorlikdagi mehnat faoliyatida funktsiya va rollarni oqilona taqsimlash;
- kommunikativ texnikaning ko'plab turlaridan foydalanish;
- hamkasblar bilan nizolansiz hamkorlik qilish;
- mehnat jarayonida boshqa kishini o'rganish, unga hamdard bo'lish;
- boshqa kishilar tomonidan samarali natijalarga erishish maqsadida to'plangan tajribani tahlil qilish;
- iste'molchilar ehtiyojlari va kasbiy faoliyat natijalarini hisobga olish;
- kasbiy faoliyatda ijobiy psixologik muhitni ta'minlash, ishtirokchilarning hamkorlikdagi faoliyatdan o'zaro qiniqishiga erishish;
- mazkur guruhda qabul qilingan kasbiy etika, me'yor va muloqot tiliga rioya qilish.

4. *Yetuk mutaxassis shaxsining ko'rsatkichlari:*

- mazkur kasbning ahloqiy qadriyatlarini va mentalitetini tushunish;
- shaxsiy kasbiy tajribasini to'plash va tahlil qilish;
- o'z kasbining ustasi sifatida namoyon eta olish, kasbiy rivojlanishi uchun eng qulay ssenariyni tashkil eta olish;
- o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalana olish va kompensatsiya qilish (o'rmini to'ldirish);

➤ kasbiy faoliyatda kishining imkoniyatlariga mos keluvchi, kasbiy topshiriq va faoliyat usullarini birlashtiruvchi individual uslubni shakllantirish;

➤ o'zini saqlab qolish uchun xavf tug'ilgan paytda ham mehnat faoliyatini blokirovka qilish (ajratib olish), xulq-atvorga xos kasbiy xatti-harakatlarning adekvatligi va tejamkorligi;

➤ o'z imkoniyatlarini maksimal tarzda safarbar eta olish, kuch-quvvatni bir joyga to'plash;

➤ mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda butun kuch-quvvatni yuqori darajada safarbar etish va to'plash, ortiqcha zo'riqlashning oldini olish;

➤ o'z kasbining ustasi sifatida mehnatga ijobiy munosabat va undan to'liq qoniqish hosil qilishni ta'minlash;

➤ har bir yangi imkoniyatni kasbiy takomillashuvga safarbar etish, foydalanilmay qolgan imkoniyatlar uchun mas'uliyatni his qilish;

➤ individual kasbiy optimumni ishlab chiqishga qobiliyatli bo'lish;

➤ kasblar dunyosi va ular uchun zarur sifatlar haqida bilimga ega bo'lish;

➤ o'zining kasbiy faoliyat ko'p qirrali ekanligi anglagan holda faoliyat hamda muloqotning turli soha va turlarida muvaffaqiyat qozonishga intilish;

➤ shaxsning kasbiy tipiga yaqinlashli, mazkur mehnat faoliyati uchun muhim bo'lgan sifatlarini rivojlantirish;

➤ shaxs deformatsiyalarining mavjud emasligi;

➤ kasb uchun muhim bo'lgan cho'qqilarni zabt etish usullarini o'zlashtirish, akmeogramma tuzish.

Kasbiy kompetentlikning mohiyati

Kasbiy kompetentlik – bu kishining kasbiy vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Professionalizm ko'plab kasbiy kompetentlikdan tashkil topgan bo'ladi. Kompetentlik tarkibida kishining bilim, ko'nikma va malakalariga bog'liq holda bu qobiliyatlardan foydalana olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikning bir necha turlari – kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o'z shaxsini namoyon eta olishdagi kompetentligi kabi guruhlarni farqlash mumkin.

Kasbiy faoliyatdagi kompetentlik va uning turlari quyidagicha:

- maxsus kompetentlik (o'z ishini yaxshi bilish);

- texnologik kompetentlik;
 - subyektiv kompetentlik;
 - professiologik kompetentlik (kasblar haqida ma'lumotga ega bo'lish);
 - huquqiy kompetentlik;
 - iqtisodiy kompetentlik va boshqalar.
- Kasbiy muloqotdagi kompetentlik va uning turlari:
- kommunikativ va muloqotchanlik kompetentligi (hamkorlik qila olish qobiliyati);
 - ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilishga qobiliyat);
 - differensial-psixologik kompetentlik;
 - diagnostik kompetentlik (boshqalarni o'rganish qobiliyati);
 - ahloqiy kompetentlik;
 - empativ kompetentlik;
 - madaniyatlararo, ijtimoiy-madaniy kompetentlik (boshqa madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik);
 - nizoli vaziyatlardagi kompetentlik va boshqalar.
- Mutaxassis shaxsining shakllanishidagi kompetentlik va uning turlari:
- psixologik kompetentlik (boshqa kishilarni o'rgana olish ko'nikmasi);
 - individual, autopsixologik kompetentlik (o'zini o'rganish ko'nikmasi);
 - madaniy kompetentlik (jamiyatda qabul qilingan madaniy normalarni qabul qilish va o'zi uchun etalon sifatida o'zlashtirish);
 - refleksiv kompetentlik va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Pedagogik akmeologiyaning asosiy muammolarini tushuntiring.
2. Kasbiy kompetentlikni tushuntiring.
3. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishni tushuntiring.
4. Kasbiy kompetentlikning mohiyatini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.

3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya". M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

PROFESSIONALIZM AKMEOLOGIYANING MUHIM TUSHUNCHASI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: *shaxsiy aspekt, kasbiy shakllanganlik, pertseptiv qobiliyat, pedagogik qobiliyat, intellektual sifat, motivatsion sifat, kommunikativ sifat, emotsional-irodaviy sifat, professiogenetik yondashuv, professiogenez, professionalizatsiya.*

Professionalizm – akmeologiyaning muhim tushunchasi sifatida

Shaxsning muayyan bir kasbda rivojlanishi jarayoni psixologiyada professionalizatsiya deyiladi. Professionalizatsiya yaxlit jarayon bo'lib, kasb tanlashdan boshlab shaxsning butun umrini qamrab oladi. Professionalizatsiyaning to'rt bosqichi mavjud:

- 1) kasbni izlash va kasb tanlash;
- 2) kasbni o'zlashtirish;
- 3) ijtimoiy va kasbiy adaptatsiya;
- 4) kasbiy faoliyatni amalga oshirish.

Ushbu bosqichlarning har birida faoliyat mexanizmi determinatlari va maqsadlari o'zgarib turadi. Masalan, agar dastlabki bosqichda subyekti kasbni o'zlashtirishni unga qo'yiladigan talablarni o'rganishni maqsad qilib olsa, keyingi bosqichlarda uning maqsadi va sharoitlari o'zgarishi mumkin. Demak, shaxsning faoliyatda rivojlanishi muayyan kasbni o'zlashtirishdan boshlanib, aniq bir faoliyatni mustaqil bajarish bosqichi bilan yakunlanadi.

Psixologiyada shaxs taraqqiyotida faoliyatning o'rni ko'p bora tadqiq etilgan. Qolaversa, faoliyat insonning ijtimoiy muhitda mavjudligi ifodasi, dunyoni anglashning o'ziga xos tomonidir. Inson va mehnat munosabatlari shaxsdagi muayyan individual xususiyatlarni psixologik xususiyatlarni, psixik jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Bu esa shaxs faoliyati munosabatlar tizimining etarlicha dinamik xarakteriga egaligini anglatadi.

Shaxs va kasbiy faoliyat tuzilishining o'zaro ta'siri va o'zaro munosabati, mutaxassis shaxsining shakllanishi, professionalizatsiya muammosi Ye.A.Klimov, T.V.Kudryasev, Yu.P.Povarenkov, O.G.Noskova, N.S.Pryajnikov, Ye.Yu.Pryajnikova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarga B.G.Ananov, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.I.Ansiferova, B.F.Lomovlarning shaxs va faoliyatning o'zaro aloqasi, shaxsning hayot yo'lida rivojlanishi, qiyin vaziyatlarda insonning rivojlanishi haqidagi qarashlari nazariy asos qilib olingan.

Mehnat subyekting kasbiy shakllanish muammosini o'rganishda eng avvalo shaxs psixologik hayot dinamikasiga asoslaniladi. Masalan, L.I. Ansifirovaning yozishicha, dinamik nuqtai nazardan shaxs taraqqiyoti shaxsning o'z xususiyatlari, yoshi, o'zgaruvchan ijtimoiy muhitdagi "harakati"dir. Ushbu yondashuvning maqsadi shaxsdan sifat o'zgarishlarni taraqqiyotdagi progressiv yoki regressiv tendensiya shakllari, shaxs transformatsiyasi sabablarini o'rganishdir. Aynan mana shu jihati bilan inson funksional-energetik o'zgarishlarni o'rganadigan konsepsiyalardan farqlanadi.

Professionalizm – inson mehnat faoliyatining integral psixologik tavsifi bo'lib, uning kasbni qanday o'zlashtirganligi, shu kasbning zamonaviy bosqichiga xos namunalar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Professionalizm o'z ichiga kishining yuqori darajadagi mehnat samaradorligiga erishishi, boshqalar bilan o'zaro ta'sir jarayonida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajara olishi, mehnat kishisiga xos bo'lgan muhim kasbiy sifatlarning mavjudligini qamrab oladi. Shuning uchun ham professionalizm mehnat faoliyatining uchta tomonini – kasbiy faoliyat, kasbiy muloqot va mutaxassis shaxsini o'z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyat – kishining ijtimoiy va shaxsiy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ne'matlar yaratish uchun yo'naltirilgan, mehnat predmetlarini qayta o'zgartirishga qaratilgan faolligidir.

Kasbiy muloqot mehnat predmetlarini qayta o'zgartirish jarayonida boshqalar bilan o'zaro ta'sir etish va hamkorlik qilishga yo'naltirilgan faolligidir. U kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Mutaxassis (professional – o'z ishining ustasi) shaxsi – mehnat kishisining psixik xususiyatlari, sifatlari va holatlari yig'indisidan iborat bo'lib, u kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun imkoniyat yaratadi hamda mehnat jarayonida o'zgaradi va takomillashib boradi.

Shaxsning hayotiy va kasbiy shakllanishining dinamik xarakterini, shaxsning o'ziga xos filogenetik va ontogenetik xususiyatlarini, qolaversa, undagi mehnat faoliyatining rolini, subyekting kasbiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bu jarayonni "professiogenez" atamasi bilan atash mumkin. Shaxs faoliyatini tashkil qilish va tahlil qilishga nisbatan professiogenetik yondashuv shaxs mehnat faoliyatini o'rganuvchi psixologiyaning qator sohalari va boshqa fan sohalari uchun metodologik, nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mutaxassis shaxsining shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari mehnat subyektining kasbiy shakllanishiga nisbatan professiogenetik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab beradi. Bu yondashuv mehnat subyektining kasbiy faoliyati davomida ijtimoiy va psixologik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish asosiga qurilgan. Bunda kasbiy taraqqiyot jarayonini faol boshqarish imkoniyatlari va shaxsning mehnat faoliyatiga yaroqliligi ko'rib chiqiladi. U faqatgina shaxs taraqqiyoti xususiyatlarini va mutaxassis shakllanishini o'rganishga qaratilgan bo'lmay, balki mavjud faoliyat turlarini, faoliyatga moslashish jarayonini psixik boshqarish mexanizmlari va shaxsning mavjud imkoniyatlari hamda kasbiy talablar orasidagi muvofiqlikni psixologik tahlil qiladi, qolaversa, obro'li kasb va faoliyat turlarining psixologik xususiyatlarini taxmin qiladi. Ommaviy va obro'li kasbiy faoliyat turlarini psixologik tahlil qilishning samaradorligi faoliyatni rejalashtirishdagi texnik va texnologik qarorlar va shu bilan bir qatorda, shaxsga nisbatan kasbiy talablar xarakteri hamda faoliyatning psixologik nazariyalari ahvoli haqidagi ma'lumotlar yordamida aniqlanadi.

Professioenezning markaziy nuqtasida mehnat subyektining kasbiy shakllanishi va uni bir necha aspektlarini keng ko'lamda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, shaxs taraqqiyoti sifatida – bu muayyan mehnat subyektining faollik darajasiga bog'liq va etakchi faoliyat xarakteriga asoslangan holda aniq bir yosh davrida namoyon bo'ladi. Psixik taraqqiyot eng avvalo, mehnat motivlarining shakllanishi, kasbiy muhim sifatning faollashishi va aniq bir faoliyat talablariga muvofiq ravishda shaxs qobiliyatlarining tarkib topishi bilan yakunlanadi.

Ikkinchidan, subyekt ijtimoiylashuvi sifatida – bu individ tomonidan ijtimoiy normalarning o'zlashtirilishida, ijtimoiy tajribani shaxsiy kasbiy ustanovkalar tizimida qo'llashda, qadriyatlar va faoliyat dasturida, ijtimoiy rollarni qabul qilish va ijtimoiy masalalarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, subyektning kasbiy o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini namoyon qilishi sifatida – bu hayot faoliyati davomida kasbiy shakllanishiga zamin tayyorlaydigan o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, hayotiy tajriba va hayot tarzi orqali namoyon bo'ladi. Hayot davomida taraqqiy etish va kasbiy shakllanish yosh davrlarida, shaxs hayot-faoliyati bosqichlarida aks etib, jamiyat talablari va shaxsning o'zini o'zi namoyon qilishga intilishi orasidagi qarama-qarshiliklarga bog'liq bo'ladi.

bu faoliyat subyektiga berilgan sifat tavsifi bo'lib, uning kasbiga oid vazifalarni hal etishi uchun zamonaviy imkoniyatlardan qay darajada foydalanishiga qarab izohlanadi. Bu imkoniyatlardan foydalanish darajasi turli odamlarda turlicha bo'lib, shuning uchun ham u yoki bu kasb egasining professionalizmi yuqori, o'rta va past darajada bo'lishi mumkin. O'qituvchining professionalizmi o'z fani orqali, ta'lim-tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt ichida o'quvchilarda vazifani samarali bajarishga tayyorlikni shakllantirish san'atini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi.

Pedagog o'qituvchi shaxsining pedagogik qobiliyat va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda "professionalizm" tushunchasi "shaxsning kasb mahorati" sifatida o'rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat, intellektual, motivatsion, kommunikativ, emotsional-irodaviy sifatlar kompleksi kiradi (E.F.Zeer, V.N.Koziev, V.A.Krutetskiy, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin).

Pedagogik mahoratni shakllantirish va maktab o'qituvchilarining psixologik-pedagogik tayyorgarligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda (I.A.Zyuzan, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, Yu.N.Kulyutkin, A.B.Orlov, G.I.Xozyainov) ham o'qituvchi shaxsi xususiyatlari "shaxsning kasb mahorati" namoyonligi va uning tarkibiy qismlari sifatida talqin etilgan. Bu tadqiqotlarda o'qituvchi professionalizmiga aniq ta'rif berilmagan bo'lsa-da, ular professionalizm shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlarini shaxsiy yondashuv va o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi nuqtai nazaridan ochib beradi.

I.A.Zyuzan ta'limotiga ko'ra pedagogik mahorat o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi shaxs xususiyatlari yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnika (o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va o'zaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz ham rivojlantira olish xususiyatiga ega to'rta o'zaro bog'liq jihatlardir. O'qituvchi professionalizmining rivojlanishi shaxsning etakchi qobiliyatlari hisoblangan kommunikativlik, kreativlik – ijodiy, pertseptiv qobiliyatlar hamda shaxs dinamizmi (irodaviy ta'sir o'tkazish qobiliyati va mantiqiy ishontira olish), emotsional chidamlilik va kelajakka ishonch kabi xususiyatlarga bog'liq.

Pedagogik mahoratning ijodiy tomonini o'rgangan tadqiqotchilar, o'qituvchining mahorat saviyasi o'z fanini chuqur bilishidagina emas, balki uning o'quvchini ijodkor shaxs qilib tarbiyalay olishida deb ta'kidlaydilar. Buning uchun pedagog, eng avvalo, o'quvchilarni ijod jarayoniga jalb eta oladigan va ularda ijodiy faollikni uyg'ota oladigan shaxs bo'lishi kerak. Ijodiy faoliyat psixologiyasi nuqtai nazaridan "o'qituvchining kasb mahorati" degan tushuncha ongni tizimli tashkil etilishi lozim. Bu esa pedagogik faoliyatni egallash va amalga oshirish jarayonida psixofiziologik ruhiy va shaxsiy o'zgarishlar jipsligi deb e'tirof etiladi.

Professionalizm shakllanishining muqaddimasi kasbda o'zini aniq anglash, o'z kelajagini tuzish, ma'naviy "etalon" – namunalarni shakllantirishdan boshlanadi. Bu jarayonning xotimasi – "superprofessionalizm" deyiladi (endi pedagog o'qituvchi bunyodkorga, novatorga aylanadi). O'qituvchi professionalizmi darajasini tavsiflash ijodiy faoliyat nuqtai nazaridan juda ko'p ilmiy maqolalarda o'rganilgani kuzatiladi. Bu maqolalar o'qituvchi mahorati va uning ijodiy salohiyati tushunchalarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Bizning nazarimizda, o'qituvchi professionalizmini tasniflashda uning shaxsi komponentlarini ham asos qilib olish lozim. O'qituvchi shaxsi komponentlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- shaxsning pedagogik faoliyatga yo'naltirilganligi (pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar, mayllar, motivlar, sabablar va e'tiqod);

- umumiy va maxsus qobiliyatlari (pedagogik, tashkiliy, kommunikativ matematik, texnik va b.);

- kasbiy va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati;

- rivojlangan pedagogik tafakkur;

- faoliyat va muloqotga emotsional kirishuvchanlik;

- pedagogik artistizm;

- pedagogik muloqotning individual uslubi;

- shaxsning ijtimoiy muhim va kasbiy zarur sifatлари;

- shaxsning ijodiy salohiyati.

Tadqiqot ishimizda o'qituvchi professionalizmi tarkibini tasniflash tizimli tahlil qilish, psixologik tiplashtirish va subyekt yondashuvi nazariyasi nuqtai nazaridan amalga oshirildi.

Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, o'qituvchi professionalizmi – bu shaxs va faoliyat subyektining murakkab va ko'p qirrali integral xususiyatlar kompleksi bo'lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

a) o'qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar;

b) o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (me'yoriy professionalizm);

v) o'qituvchining subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari (noyob professionalizm – Yu.A.). “Noyob professionalizm”ning asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni belgilash mumkin. Bular “mahorat – uslub – ijod – salohiyat” formulasida o'z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va “Noyob professionalizm”ning ko'rsatkichlari hisoblanadi.

O'qituvchi professionalizmiga doir ma'lumotlar va tushunchalar bo'yicha tizimli yondashuv nazariyasi nuqtai nazaridan o'tkazilgan qiyosiy tahlillarimiz professionalizmning nafaqat mazmun, faoliyat va shaxsiga tegishli jihatlari, balki uning yaxlit (integral) komponentlarini ham belgilash imkonini beradi.

Mazkur komponentlar quyidagilar:

- umumiy va maxsus qobiliyatlar;
- shaxsning pedagogik yo'naltirilganligi;
- kasbiy-pedagogik jihatdan kompetentlik;
- shaxsning kasbiy muhim sifatleri;
- pedagogik faoliyat va muloqotdagi individual uslubiy xususiyatlar;
- “pedagogik mahorat”;
- kasbiy-pedagogik tajriba;
- kasbiy-shaxsiy va ijodiy salohiyat.

Biz har bir komponent o'qituvchi professionalizmi shakllanishi va rivojlanishining individual xususiyatlari bilan, ya'ni o'qituvchining o'z kasbining ustasi bo'lib etishishiga bevosita ta'sir etadi deb, hisoblaymiz.

Bu fikrlar hozirgi zamon psixologiyasida ilgari surilayotgan metodologik tamoyil – subyekt yondashuvi g'oyalariga asoslanadi va yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab etadi.

Boshqa insonlar singari psixologlarning barchasi ham donishmand emas, lekin gap insoniy sifatlardan biri, ya'ni Buyuk ustoz roli xususida bo'lib, maqsad o'zgalarga yordam berishga qaratilgan bo'ladi. Aynan shu rolga da'vogar psixologlar qatori oddiy odamlar ham bisyor. Aynan ular hayot haqida o'zlarini ko'p narsa biladi va muammolarni qanday hal etish yo'llaridan xabardor hisoblaydilar. U o'z yo'lini bilishi mumkin emas, balki boshqalarga hamma qatori bo'lishga yordam berishi lozim.

Eng muhim savollardan boshlaymiz: kasbiy tanlov qanday jihati bilan boshqa hayotiy tanlovlardan ajralib turadi? Javob berishda mehnat faoliyati – eng avvalo mahsuldor faoliyat ekani, ya’ni shaxs faqatgina talab qilish, kuzatish yoki zavqlanish bilan cheklanib qolmay, balki o’zi atrofdegilar uchun foydali bo’lgan faoliyat bilan shug’ullana olishi mumkinligi hisobga olinishi lozim. Chunki shaxs o’zining o’zligini o’z imkoniyatlarini namoyon etish orqali o’zini baxtiyor his etadi.

Yuqorida aytilganlarning aksariyati psixolog kasbi uchun xos bo’lib, ularning faoliyati asosan o’zgalarga murakkab hayotiy muammolarini hal etishga yordam berishdan iborat. Shu boisdan psixolog kasbini tanlash ijtimoiy yo’nalganlikni shaxs va uning muammolariga yo’nalganlikni talab etadi, boshqa kasblarning aksariyati esa pul topish, kashfiyot qilish kabilarga yo’nalgan bo’ladi. Biroq, boshqa gumanitar soha vakillaridan farqli o’laroq, psixolog kasbi aynan shaxs muammolari, uning echimiga yo’nalgan bo’ladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida shakllanish jarayoni xususida mualliflik qarashlari keltirilgan. Ilgari ishlab chiqilgan shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishi yosh xususiyati va ish stajiga bog’liq degan qarashlardan farqli ravishda muallif tomonidan shaxsning kasbiy mahorati bu parametrlarning funksiyasi hisoblanmasligi, aksincha individning kasbiy shakllanishining qaysi bosqichida ekanligiga qarab aniqlanishini ko’rsatib bergan. Kasbiy faoliyatni turli darajada o’zlashtirgan mutaxassislar haqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib o’tilgan.

Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz ravishda rivojlantirish ehtiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida ko’p yillik ish staji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning o’z imkoniyatlarini to’liq amalga oshirmasligi shaxsni har tomonlama kasbiy faoliyatda o’zini namoyon qilish muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni hal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli, sifatli ta’limni amalga oshirish mumkin emas.

Bu muammoning amaliy ahamiyati uni turli fan doiralari qatorida psixologiya doirasida ham o’rganish muhimligini ko’rsatib berdi. Kasbiy shakllanish jarayonini o’rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo’naltirilganligidadir. Shuning uchun ham kasbiy etuklik darajasi ajratib ko’rsatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi masalasi ko'pgina mualliflar tomondan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir.

Ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi shaxsning kasbiy shakllanishini o'rganishda insonning imkoniyatlarini to'liq ochib beruvchi subyekt va ijtimoiy muhit orasidagi turli ijtimoiy aloqalar tipiga ahamiyat berish muhimdir.

Har bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bo'linishi biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi tipda subyekt o'zini "topgan", o'zida va faoliyatida o'zini o'zgartirishni xohlamasligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi tip esa subyektning o'zini o'zi "qidirishi" bilan tavsiflanadi. Bu o'tish, oraliq holat hisoblanadi. Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi.

Garmonik aloqalar uchun subyekt yaxlit shaxs sifatida namoyon bo'ladi, u subyekt-predmet tartibi – rolli niqob sharti bilan belgilanadi. Bu erda inson "taraqqiyotning absolyut harakati holatida" bo'ladi.

Keyinchalik shaxsning kasbiy shakllanishi borasidagi qarashlarga S.L.Rubinshteyn ishlari asos bo'lib xizmat qildi. S.L.Rubinshteyn insonning hayotga munosabatini ifodalovchi ikki usulni ajratib ko'rsatgan. Birinchi usul – bu insondagi barcha munosabatlar to'liq emas, balki alohida hodisalarga munosabat doirasiga kiruvchi hayotdir. Bunday munosabatda inson hayot subyektini hisoblanmaydi, shu bilan birga undan alohida ham bo'lmaydi. Bu erda hayotning o'zi "tabiiy jarayon sifatida" namoyon bo'ladi, inson hayot tarzi bilan uni to'ldiradi. Ijtimoiy hayot insonning o'rniga subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu erda ahloq, beayblik, yomonlik qilmaslik, tabiiylik, insonning tabiiy holati sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan bir qatorda bu erda yaxshilik va yomonlik o'zaro bog'liqdir. Bu usul insonning hayoti o'zidan o'zi kechadigan hayot-avtomat aloqalariga kiruvchi xususiyat sifatida tavsiflanadi.

Ikkinchi usul ichki refleksiyaning namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, u "hayotning bu uzluksiz jarayonini to'xtatib qo'yishi, uzib qo'yishi mumkin va insonning g'oyalar dunyosidan chiqarib yuboradi. Inson g'oyalar dunyosidan tashqaridagi pozitsiyani egallaydi...". Bunday refleksiyaning namoyon bo'lishi hayotiy qadriyatlar tizimini aniqlash bilan bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn aynan shu holat bilan voqelikning yangi usuliga o'tish imkoniyatini bog'laydi. Bevosita aloqalarni uzish va ularni yangi negizlar asosida tiklash ikkinchi usulga o'tish bilan yakunlanadi. Shu vaqtdan boshlab "ruhiy bo'shliqqa, negilizmga, ahloqiy

skeptizmga, ahloqiy beqarorlikka yoki boshqa – yangi anglangan sharoitda ahloqiy inson hayotini qurishga yo‘l ochila boshlaydi”.

Sanab o‘tilgan fenomenlar yangi usulning mavjudligini xarakterlamaydi, balki shaxs ilgariyidek yashash imkoniyati yo‘q bo‘lgan vaziyatda qolganda o‘zining beqaror “men” tizimini buzilishlardan saqlab qola olmasligini anglatadi. Bu vaziyat ba’zida “o‘zini safarbar etish” holati deb nomlanadi. Biroq bu holatni o‘zining namoyon bo‘lishiga ko‘ra o‘zini o‘zi safarbar etish deb nomlab bo‘lmaydi: tabiatdan, boshqalardan alohida tarzda anglanmagan voqelikni yo‘qotish mumkin emas. Shunchaki, birinchi usulda turmush tarzining hayot – avtomatdan ajratilmaganligi hech qachon ahloqiy beqarorlikni keltirib chiqarmaydi.

Aytish mumkinki, o‘z navbatida professionalizm darajasi subyektning professionalizatsiyaning yo‘nalganligi, ko‘rsatgichi va mazmuni hamda mutaxassisning professionallashuv darajasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va boshqa keng doiradagi kompetentligi bilan shartlanganidir.

Kasbiy shakllanish

“*Kasbiy shakllanganlik*” tushunchasi mehnat subyektning kasbga egalik qilish darajasi va aniq mehnat faoliyatida kasbiy muhim xususiyatlar, bilim, ko‘nikma, tajriba va mahoratlarning shakllanishi hamda namoyon bo‘lishi asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishishi sifatida qo‘llaniladi. Mehnat subyektning aniq bir faoliyat sohasida yuqori darajadagi kasbiy malakalarga egaligi *mahorat* deb yuritiladi. A.K.Markovanning ta’kidlashicha, “kasbiy shakllanganlik” tushunchasi turli ma’nolarda: kasbning shaxsga, uning kasbiy va psixologik sifatlariga bo‘lgan me’yoriy talablar sifatida va muayyan bir shaxsda mavjud bo‘lgan, uning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan kasbiy yo‘naltirilgan xususiyatlar majmuining me’yorlari sifatida qo‘llaniladi”. Muallif kasbiy shakllanganlikning quyidagi kategoriyalarini ajratib ko‘rsatgan: “shaxsning o‘zini mutaxassis sifatida takomillashtirishi; ichki kasbiy lokus nazorati; mutaxassisning anglangan sifatleri, hajmi; shaxsning o‘zini mutaxassis sifatidagi to‘liq obrazi; kasb yordamida o‘zini o‘zi rivojlantirish va etishmaydigan xususiyatlarning o‘rmini qoplash qobiliyati va x.k.”.

Kasbiy shakllanganlik darajasini aniqlash uchun shaxsning sifat va miqdor jihatidan kasbiy tayyorgarlik darajasini, faoliyat samaradorligini, ish qobiliyatini, kasbiy yaroqliligini, o‘z ustida ishlashning muvaffaqiyatliligini aks ettiruvchi mutaxassisning “*malakasi*” tushunchasi

qo'llaniladi. Bu tavsiflar aniq kasbiy faoliyatning muayyan bir shaxs xususiyatlariga (kasbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa) qo'yadigan normativ talablari bilan mutanosibdir. Yuqori kasbiy malaka mehnat subyekti etukligining shakllanishi va namoyon bo'lishining muhim sharti hisoblanadi, vaholanki, ayrim vaziyatlarda kasbiy etuklik etarli darajada bo'lmasa ham shaxs qator mehnat funksiyalarini malakali darajada bajarishi mumkin.

Ko'p qo'llaniluvchi "*kompetentlik*" tushunchasi kasbiy shakllanish va kasbiy etuklikni baholovchi me'yor bo'lib, hali aniq ta'rifga ega emas. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Umuman olganda, bu tushuncha shaxsning qandaydir hayotiy vaziyatlarda, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda avtoritarligi, shu soha bo'yicha tushuncha hamda bilimlarga egaligi bilan tavsiflanadi. A.K.Markovanning fikricha, muayyan bir shaxsning kompetentligi uning kasbiy shakllanishiga qaraganda ko'proq uchraydigan tavsifnomasidir. Bunga ko'ra, kasbiy kompetentlikning xilma-xil turlarini ajratish mumkin: maxsus (mehnat jarayonini amalga oshirishda), ijtimoiy (hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishda), shaxsiy (o'zini o'zi boshqarish va takomillashtirish malakalariga egalik) va boshqalar. Ayrim mualliflar kasbiy muloqotdagi, mutaxassis shaxsining rivojlanishidagi kompetentlikni ham ajratib ko'rsatadilar.

Kompetentlikning yuqorida sanab o'tilgan turlari, albatta, bir insonni to'liq shaklda tavsiflashi shart emas, chunki, shaxs yaxshi mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin o'zini o'zi boshqarish yoki shaxslararo kasbiy muloqot malakalariga ega bo'lmasligi mumkin, qolaversa, yuqori darajada kasbiy kompetentlikka ega bo'la turib, shaxsiy va ijtimoiy kompetentligi past bo'lishi mumkin.

Aytish joizki, o'z navbatida professionalizm darajasi subyektning professionalizatsiyaning yo'nalganligi, ko'rsatgichi va mazmuni hamda mutaxassisning professionallashtirish darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va boshqa keng doiradagi kompetentligi bilan shartlangandir.

Dj.Raven (2003) tadqiqotlari kompetentlikning tuzilishli-funksional konsepsiyani asoslashga imkon berdi va u quyidagilarda aks etadi:

- eng avvalo, shaxs qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy ishonchi va fikrini aniqlovchi shaxs motivatsion-qadriyatlar sohasini tizimli ravishda namoyon bo'lishi va shakllanishining ahamiyati;

- shaxsiy qadriyatlarning mehnat jarayonini tashkil qilish va mazmuniga nisbatan bevosita qiziqish, liderlik, tashkilotchilik kabi xususiyatlarda aks etishi;

- kompetentlikning tabiati kognitiv, emotsional va irodaviy jarayonlarning, individning maqsadga erishishini ta'minlovchi masalalarni echishga, hal qilishga tayyorligini baholash mezonini va namoyon bo'lishiga asoslangan bo'ladi;

- kompetentlik faqatgina o'zining faol komponentlari hisobiga emas, balki yangi hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan passiv komponentlari hisobiga ham shakllanib boradi;

- kompetentlik o'zining bir-biridan mutlaqo mustaqil, lekin bir-birining o'rmini ahamiyatli darajada samarali xulq-atvor omili sifatida egallab tura oladigan, ko'p sonli komponentlari yordamida aniqlanadi.

Kompetentlikning komponentlari qatoriga kognitiv, emotsional, irodaviy sifatlardan tashqari, o'ziga ishonch (o'zining kasbiy bilimlariga, liderlik qobiliyatiga; qaror qabul qilish va uning ijrosini boshqarish malakasiga ega bo'lish; qiziqarli umumiy maqsadlarni qidirish, anglash va qaytarma aloqani qo'llashdagi samarali faoliyat; o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lish; o'zini o'zi nazorat qilish, moslashganlik, murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlik va tavakkalchilikka moyillik, qat'iyatlilik, kasbiy mas'uliyatlilik va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

E.F.Zeerning ta'kidlashicha, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Aytish joizki, kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'z-o'zini anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari kiradi.

Taxmin qilish mumkinki, mehnat subyekting sanab o'tilgan professionallashuv ko'rsatkichlari, mutaxassis bo'lish (malaka, kompetentlik) va subyekting kasbiy etukligi orasida o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir mavjud.

Qat'iy talablar va shaxs faoliyati normativlari sharoitida faqatgina shakllarning turli-tumanligi, o'z-o'zini tashkil qilish, moslashish malakalari namoyon bo'libgina qolmasdan, balki faoliyatni boshqarish usullari, mexanizmlarini qidirish va ishlab chiqishdagi konstruktiv faollikda, optimal va individual o'ziga xos yo'lni topish va talab etilgan

natijalarga erishish uchun psixik jarayonni tashkil qilish holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Faoliyat muammolari va talablarida shaxs individual qulaylik, subyektiv yoqimlilik va kashf etilgan ijodiy obrazni ta'minlaydi.

K.A.Abulxanova-Slavskayaning ta'kidlashicha, shaxsning faoliyatda namoyon bo'lishi va rivojlanishi haqidagi qarashlar S.L.Rubinshteyn tomonidan ilgari surilgan bo'lib, o'zining metodologik-prinsipial ahamiyatini yo'qotmagan. Biroq, bu qarashlarga L.I.Ansyferova tomonidan shaxsning faoliyat bilan hamohang rivojlanishining optimalligi va aniqligi bilan bog'liq ayrim o'zgartirishlar kiritdi, unga ko'ra har qanday faoliyat shaxsni shakllantirmaydi va har qanday taraqqiyot shaxs taraqqiyoti bilan bir narsa emasdir. Shaxs rivojlanishi va ehtiyojlarining faoliyatda namoyon bo'lishi subyektning mehnat jarayoni va uning natijasidan qoniqqanligi bilan bog'liq, qiyinchiliklarni engishga intilishi va murakkab masalalarni hal qilishdagi muvaffaqiyat, mehnat jarayonida o'z imkoniyatlarini namoyon qilish istagi – bularning barchasi yuqori professionallikka va kasbiy etuklikka erishishning garovidir.

Professionalizmning darajalari

Shaxs professionallashuvi dinamik jarayon bo'lib, har bir bosqich o'ziga yarasha rivojlanish darajasini bosib o'tadi. Shaxsning faoliyatda o'z kasbiy potensialini amalga oshirishi aynan shu vaziyatga shaxs psixologik tuzilishining moslashishidagi o'zaro ta'sirini boshqarish negizida yuz beradi. "Shaxs taraqqiyotining har bir yangi shaxsiy-psixologik bosqichida individning ijtimoiy muhitga faol munosabati natijasida shakllanuvchi barcha – predmetli faoliyat, muloqot, o'yin, o'qish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, mehnat va shaxsning tizimli shakllanishida tartibli ravishda mustaxkamlanib boradi. Ular shaxsning vertikal va gorizontal funksional tuzilishini anglatadi".

Faoliyat subyektining professionallashuvi va uning shaxsini rivojlanishi kasbiy etuklikning shakllanishi bilan muvofiq tarzda kechadi.

Kasbiy etuklik tushunchasiga yuqori darajada shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlangan, yuqori professionalizmni o'zida namoyon qiladigan, malakali, qolaversa, ahloqiy-ma'naviy, etik, madaniy, ijtimoiy va kasbiy muhim xususiyatlarni hamda shaxsiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan mehnat subyektining xususiyati deb izohlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mutaxassisning shakllanishi faqatgina chuqur va keng doiradagi bilim, ko'nikma va malakalarga, kasbiy tajriba va mahoratga ega bo'lish bilan cheklanib qolmaydi, balki etuk shaxs taraqqiyoti ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Shaxs tomonidan shaxsiy va ijtimoiy maqsadlar, pozitiv kasbiy motivatsiyaning shakllanishi, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyat, ishchanlik qobiliyati va mehnatga tayyorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik, mehnatdan qoniqqanlik, mehnat subyektining etukligini anglatuvchi boshqa xususiyatlarni rivojlantirishga intilishini aniqlashtiruvchi faoliyat mazmuni va natijalari anglanilgandagina, mahoratning kasbiy komponentlari egallanadi, rivojlantiriladi va faollashtiriladi. Kasbiy etuklik shaxsiy ideallar, ustanovkalar, qadriyatlar, hayot va faoliyat mazmunini ijtimoiy, psixologik muhitning kasbiy talablari bilan muvofiqligida aks etadi.

Mutaxassis shaxsining kasbiy etukligi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Kasb bilan bog'liq ma'naviy qadriyat tizimini tushunish;
2. Tajriba orttirish va shaxsiy tajribani tahlil qilish;
3. Namunaviy mutaxassisning adekvat modelini qabul qilish va unga o'xshash uchun o'z ustida ishlashga intilish;
4. Oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun shaxsiy kuch va resurslarni maksimal darajada safarbar etish;
5. Mehnatdan qoniqish hissining paydo bo'lishi;
6. O'z-o'zini rivojlantirishga intilish;
7. Shaxs xulqida buzilishlarning mavjud emasligi;
8. Shaxs organizmi va psixikasining funksional imkoniyatlari va ularning kasbiy talablarga muvofiqlik darajasi haqida tasavvurlarga ega bo'lish va boshqalar.

Faoliyat subyektining malakasi kasbiy etuklikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, u o'zining funksional imkoniyatlari va ehtiyojlarini kasbiy talablar bilan muvofiqlashtiradi. Bu ko'rsatkich kasbiy "men konsepsiyasi"ning o'ziga xosligini anglatadi. Yoshlik davrida, ayniqsa, kasbiy etuklik bosqichida "men konsepsiyasi" har tomonlama boyitiladi, bir tomondan hayot va faoliyatning o'zgaruvchan talablari, ikkinchi tomondan esa o'z-o'zini baholashning shakllanishi ro'y beradi. A.A.Reanning ta'kidlashicha, etuklik davrida "men konsepsiyasi" kasbiy faoliyat ta'sirida, ko'pgina maxsus konsepsiyalarning namoyon bo'lishi hisobiga shakllanadi. Ular reallashib, professional mahoratning o'sishi bilan bog'liq ravishda rivojlanib boradi. Shaxs asta sekinlik bilan o'z imkoniyatlarini namoyon qiluvchi maqsadlarni tanlashda o'ta sinchkov va ishning natijasiga mas'uliyat bilan yondashadigan bo'lib boradi. "Shaxsning ahloqiy qoidalari va ayniqsa, muhim shaxsiy qadriyatlar

doirasida o'zini o'zi faollashtirish" "men" konsepsiyasining tub mohiyatiga singib boradi.

Kasbiy etuk shaxslarda ularning o'zlari haqidagi ma'lumotlarga asoslangan holda o'z-o'zini baholashning kognitiv komponentlari kuchayib boradi. O'z-o'zini baholashning emotsional komponenti esa biroz cheklanadi. Mutaxassisning o'zini o'zi baholashining ko'p qismi uning ichki etalonlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Shaxsda o'ziga nisbatan ongli, real munosabatlarning namoyon bo'lishi emotsiyalarni boshqarishga olib kelishidan dalolat beradi. O'z-o'zini baholash umumiy xarakterga egadir.

Professionalizmning bosqichlari

Kasbiy o'z-o'zini baholashni o'z-o'zini baholash professional mahorat va kompetentlik darajasida aks ettiriluvchi shaxsning o'zini mehnat subyekti sifatida baholashi bilan bog'liq operatsional faoliyat aspektlariga va shaxsiy sifatlarni "Men mutaxassisman" konsepsiyasi bilan mutanosibligini baholashda aks ettiriluvchi **shaxsiy aspektlarga** ajratish mumkin.

Kasbiy o'z-o'zini baholashda faoliyat natijalari va mutaxassisning shaxsiy potensial baholari ko'rib chiqiladi, birinchisida mehnat yutuqlaridan qoniqqanlik darajasi aks ettirilsa, ikkinchisida shaxsning o'z imkoniyatlarini baholash va shaxsning o'z kuchiga ishonganlik darajasi ko'rib chiqiladi. O'z-o'zini baholashning past ekanligi mutaxassisni etuk yoki "etuk emasligidan" dalolat bermaydi. O'z-o'zini baholash negizida pozitiv motivatsion o'z-o'zini rivojlantirish yotadi va shaxsning ijtimoiy, kasbiy muvaffaqiyatlari bilan korrelyatsiyalanadi.

Mutaxassis shaxsining taraqqiyotini o'rganish jarayoni "professionalizm" va "kasbiy etuklik" tushunchalarini bir-biriga chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Har ikki tushuncha faoliyat samaradorligi va mutaxassis shaxsining rivojlanishi bilan izohlanadi, biroq, ulardan birinchisida asosiy urg'u kasbiy yutuqlarga qaratilsa, ikkinchisida – faoliyat jarayoni va maqsadi ta'sirida nafaqat faoliyatning yuqori va barqaror ko'rsatkichlari, balki har tomonlama rivojlanganligi va shaxsning shakllanishi inobatga olinadi.

Shunday qilib, kasbiy etuklikning psixologik aspektlari mehnat subyektining faoliyatga yo'naltirilgan psixik jarayonlari - mutaxassisda o'z-o'zini boshqarishning shakllanishini ta'minlovchi xususiyatlar va funksiyalar kompleksiga asoslangan tizimli xususiyatlarni o'zida uyg'unlashtirgan. Psixologik tizimda kasbiy etuklikning muhim omillari

quyidagilar hisoblanadi: kasbiy faoliyatning mazmuni va qadri, kasbiy faxr, iymon va sha'n. Kasbiy etuklikning tizimlashtirilgan omillariga esa quyidagilar kiradi: kasbiy o'z-o'zini anglash (mutaxassis shaxsining taraqqiyoti samarasi sifatida) va mehnat subyektining kasbiy yaroqliligi (shaxsning kasbiy taraqqiyoti samarasi sifatida).

Oxirgi yillarda mehnat subyektining kasbiy etukligining shakllanishi muammosini o'rganishga katta ahamiyat qaratilmoqda va qator jahon psixologlarining (A.A.Derkach, E.F.Zeer, Ye.A.Klimov, A.K.Markova, Yu.P.Povarenkov, A.A.Rean va boshqalar) tadqiqot predmetiga aylanmoqda. Faoliyat tushunchasi mehnat subyektining xususiyatlari va boshqa jarayonlarning o'ziga xosligida ko'rib chiqiladi, shaxs va faoliyatning psixologik rivojlanishi hamda ularning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri negizida o'rganiladi.

Mutaxassisning etuk shaxsga aylanishi subyektning faqatgina kasbiy taraqqiyoti bosqichida amalga oshmaydi. Umuman olganda, shaxs butun umri davomida komillik sari odimlaydi, ya'ni shaxsning ma'naviy-ahloqiy, etik, psixologik dunyoqarashi va boshqa xususiyatlari jamiyat talablariga muvofiq ravishda shakllanib boradi. Shaxsning kasbiy faoliyat jarayoniga jalb qilinganligi uni yangi talablarga muvofiq ravishda shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, motivatsion qadriyatlar tizimini, mehnat ustanovkalarining shakllanishida, hayot mazmunini va faoliyatni korrektsiya qilishda aks etadi.

Kasbiy etuklik, birinchidan, mehnat subyektining kasbiy taraqqiyoti, muhim kasbiy psixologik xususiyatlarning shakllanishi va namoyon bo'lishiga asoslangan yuksak mahorat sari harakatlar nuqtai nazaridan, ikkinchidan, yuqori malakaga erishish va mutaxassis kompetentligining shaxs taraqqiyoti bilan muvofiqligi natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu jarayon shaxsning ontogenezda rivojlanishi qonuniyatlari va uning professionallashuvi bilan bog'liq ravishda amalga oshadi, bu xususiyatlarning ta'siriga bog'liq holda, ya'ni aniq faoliyat ko'rinishlariga nisbatan qo'yiladigan talablarda, taraqqiyot fazalarining geteroxronligi va betartib o'zgarishida, me'yoriy inqirozlarning yuzaga kelishi va shaxs deformatsiyasida, shaxs va kasbiy taraqqiyotning aniq bir bosqichi hamda shakllarida, etuklik davrida namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatlarning o'ziga xosligida aks etadi.

Mehnat subyektining shakllanishida faqatgina shaxsiy, psixologik (kognitiv, intellektual, emotsional va boshqalar) va kasbiy sifatlar, jarayonlar va xususiyatlar ahamiyatga molik emas, balki ijtimoiy moslashishning samaradorligini oshirish hamda hayot va faoliyatda o'zini

o'zi namoyon qilishni ta'minlash uchun shaxs va kasbiy faoliyatning o'zaro ta'sirini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Biroq, "mutaxassis shaxsining etukligi" va "kasbiy etuklik" tushunchalari adabiyotlarda va psixologik amaliyotda qo'llanilganda ular orasida ayrim tafovutlar uchraydi. Birinchi holatda ("mutaxassis shaxsining etukligi"), aynan mehnat subyekti shaxsining shakllanishiga, uning individual va ijtimoiy yo'nalganligini pozitiv va barqaror tarzda namoyon bo'lishiga asosiy e'tibor qaratilsa, ikkinchi holatda ("kasbiy etuklik"), mutaxassisning har tomonlama rivojlanganligi va aniq bir kasbiy faoliyat talablariga to'liq javob beruvchi, qolaversa, shaxsiy fazilatlar yuqori darajada taraqqiy etgan o'z ishining ustasi tayyorlanganligi nazarda tutiladi.

Umuman olganda, kasbiy faoliyat uchun mehnat samaradorligi ishonchliliigi va xavfsizligini ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning mehnatda rivojlanishiga, "Men mutaxassisman" konsepsiyasining shakllanishiga, o'zini o'zi tasdiqlashga, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga va ijtimoiy muhit hamda mehnat jamoasiga to'liq moslashishga zamin hozirlaydigan mehnat subyekting shaxsiy va kasbiy etukligi orasidagi muvofiqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari

1. Professionalizm akmeologiyaning muhim tushunchasini tushuntiring.
2. Kasbiy shakllanishini tushuntiring.
3. Professionalizmning darajalarini tushuntiring.
4. Professionalizmning bosqichlarini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X, Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya" M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.

PEDAGOGIK MAHORAT “AKME”NING TURI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: *pedagogik mahorat, pedagogik maqsad, pedagogik faoliyat, avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal (kelishuvli) uslub.*

Pedagogik mahorat kasbiy kompetentlilikning asosidir

Pedagogik mahorat bu o‘quv jarayonini tashkil etish vositasidir.

Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda (o‘quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta’kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta’lim-tarbiya) jarayonda o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o‘z faoliyati mantig‘ini o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xosligi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

✓ jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlari «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

✓ muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;

✓ o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-ahloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy ta'limchidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining ahloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari ta'limning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi.

Shuning uchun ham pedagogik mahoratga o'qituvchi shaxsi sifatleri majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmash lozim.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

➤ pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishga yo'naltirilganligi;

➤ mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimiga ega bo'lish;

➤ pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish));

➤ pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlashdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;

2. Maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilish;

3. Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;

4. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;

5. O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

Pedagogik mahorat va professionalizm

Boshqaruv uslublari va undan foydalanish usullari.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida bolalar faoliyatini boshqaradi. Ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi. Rahbarlik muloqoti 3 turga bo'linadi.

1. Avtoritar uslub – tarang tortilgan kamon. O'quvchilar bilan avtoritar munosabatda bo'luvchi o'qituvchilar odatda majburiy, qattiq talablarni qo'yishi (o'qituvchiga itoat etish, dars vaqtida asosan jim o'tirish, savollarga albatta qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berish, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish va xakozo) orqali ish yuritadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni qiziqish, layoqat, xohish-istaklarini hisobga olmay, asosan o'quv rejasiga amal qiladilar. Darsni ham o'zlarining fikrlari va xohish-istaklariga ko'ra rejalashtiradilar. Dars jarayonida baxs, munozara uchun etarli imkoniyat berilmaydi. Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari emas, balki o'rgatayotganlarini o'zlashtirishlari muhimdir. Shuning uchun dars davomida o'qituvchining o'zi gapiradi.

Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan ba'zi psixologik xususiyatlarini nazardan chetda qoldiradilar. Bunda o'quvchilar faoliyati, kim-kim bilan o'tirishi, ishlashini faqat o'qituvchi belgilaydi, ularning tashabusini o'ziga xos qiziqishlarini tan olmaydi. Asosan buyruq, ko'rsatma, yo'lanma berish va xayfsan e'lon qilish bilan o'quvchilarga ta'sir etadi. Xatto juda kam aytiladigan tashakkurnomalar ham buyruq va nafsoniyatiga tegadigan ohangda aytiladi: «Bugun yaxshi javob berding, sendan buni kutmagan edim?».

Bunda o'qituvchi o'quvchi xatosini ko'rganda uning ustidan kuladi, uning xatosini tuzatish yo'llarini ko'rsatmaydi. Bu usulda o'qituvchi boshliq ohangida gapiradi, boshqalar gapini qabul qilmaydi. Ularga qattiqqo'llik bilan boshqarish xususiyati xos. Bunday o'qituvchilarning o'quvchilari dars davomida mustaqil fikrlay olmaydigan, bironing ko'rsatmasiga ko'ra ish yuritadigan, o'ziga past baho beradigan kamgap, tortinchoq, ko'p hayojonlanadigan bo'lishlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'qituvchilarning avtoritar uslubda ishlash sabablari quyidagilardan:

1. O'qituvchi ko'p yillar davomida avtoritarizm zaminida ta'lim olganligi;

2. Ta'lim tizimida o'quvchilarga ko'proq akademik bilimlar berilishining ustuvor bo'lganligi;

3. O'qituvchilarda psixologik bilimlarning etishmasligi;

4. Boshqarish uslubida buyruqbozlik, aytganini qildirish va ortiqcha nazoratning singib ketganligi;

5. O'qituvchida o'quvchi shaxsi rivojini diagnostika qilish malakasining kamligi;

6. O'qituvchining salbiy individual psixologik xususiyati (o'z shaxsini ustun qo'yish, qattiqqo'llik, befarqlik va xokazo).

2. Demokratik uslub – bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatda ularning yosh psixik xususiyatlarini yaxshi bilishlari bilan ajralib turadi. Ularning fikriga ko'ra ta'limda o'quvchi shaxsini shakllantirish orqali bilim berish juda muhim. Ularning fikricha bola sekin o'zlashtirgani yoki qaysarlik qilgani uchun to'laligicha aybdor emas. O'qituvchi bunday bolalar muvaffaqiyatiga ishonadi va o'quvchilarni ham ishontira oladi. Dars davomida o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruviga ko'proq imkoniyat yaratadi va turli usullar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini va mustaqil o'qish, o'rganishlarini rivojlantirishga harakat qiladi. Demokratik uslubda ishlovchi o'qituvchi o'tiladigan dars rejasini o'zi hohlagancha tuzadi deb aytish qiyin, chunki ular uchun tasdiqlangan o'quv rejasidan tashqari, o'quvchilarning qiziqish, ehtiyoj va layoqatlari muhimdir.

Demokratik uslubda o'qituvchi jamoa fikri asosida ishlaydi. O'qituvchi faoliyat, maqsadni har bir o'quvchi ongiga singdirishga intiladi, muhokamada barcha o'quvchilarning ishtirok etishlarini ta'minlaydi. O'z vazifasini faqat nazorat va tuzatishlar kiritishdan emas, balki ta'limlashdan iborat, deb tushunadi. Har bir o'quvchi taqdirlanadi, unda o'ziga ishonch xislari tug'iladi. O'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish taqsimlashga harakat qiladi, faol o'quvchilarni taqdirlab boradi. Tashabbusga keng yo'l ochib beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga asosan maslahat, iltimos bilan muloqot o'rnatadi.

3. Liberal (kelishuvli) uslub – o'quvchilarni bebosh, tarbiyasiz, yalqovlikka olib boruvchi uslubdir. O'qituvchi o'quvchilar hayoti bilan qiziqmaydi, unga aralashmaydi, jonbozlik ko'rsatmaydi, masalalarni hal qilishga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni ham ma'qulayveradi. Bunday o'qituvchiga ishonmaydilar, hurmat qilmaydilar.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari va yuqorida aytilgan fikrlarga ko'ra o'quvchilar bilan munosabatda faqat demokratik uslubni qo'llovchi o'qituvchilarning o'quvchilarida bugungi davrimiz va kelajak talab qilayotgan xususiyatlar shakllanishi mumkin.

Pedagogik mahorat "akme"ning turi sifatida

O'qituvchi va o'quvchining muloqot jarayoni o'quvchilarda ikki xil hissiyot tug'dirishi mumkin, faqat ijobiy hissiyotlangan muloqotgina haqiqiy ta'limiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Salbiy hissiyotlar esa, ta'sir ko'rsatishning oqibat natijasi sifatida emas, balki ijobiy hissiy samaraga erishish yo'lidagi xususiy hol sifatida sodir bo'lishi mumkin (masalan, obro'sizlanishdan qo'rqish). Tajribalarning ko'rsatishicha, o'qituvchida aynan pedagogik takt bo'lganidagina o'quvchilar ijobiy hissiyotli muloqot va psixologik bog'lanish o'rnatishi mumkin. Pedagogik takt talablariga amal qilgan o'qituvchilarga o'zida demokratik muloqot uslubini shakllantirishi, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin.

Takt so'zini aynan ma'nosi tegib turish, daxldor bo'lish demakdir. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab turuvchi ahloqiy toifadir. Insoniylik prinsipiga asoslangan holda taktli ahloq-eng murakkab holatlarda ham inson hurmatini oqlashni talab etadi. Taktli (odobli) bo'lish har bir inson, ayniqsa, kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim ahloqiy talabdir. Pedagogik takt o'qituvchining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik taktning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat o'qituvchi shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, o'quvchini sevish, hurmat qilish) anglash, balki o'quvchi ko'ngliga to'g'ri yo'l topa olishini ham bildiradi.

Pedagogik takt – bu o'qituvchining o'quvchiga ta'sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o'lchovi, eng samarali muloqot uslub o'rnatishiga bog'liqdir. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda haddan oshib ketishga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchilik faoliyatini xarakterlab K.D.Ushinskiy shunday degan edi: «Maktabda hazilga yo'l qo'yuvchi, lekin hamma ishni hazilga aylantirmaydigan jiddiylik, faqat taltaytirmaydigan erkalatish, injiqsizlik haqqo'ylik, loqaydsizlik xushmuomala, rasmiyatchiliksiz-tartib, eng muhimi doimo oqilona faoliyatda bo'lish kerak». Bunday ta'sir ko'rsatish me'yori ta'limiy vositalardan foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Tibbiyotdagi dorilar kabi o'qituvchining so'zi va metodi ham aniq o'lchovga, foydalanish rejimiga ega bo'lishi kerak. U yuqori samarali, zo'ravonliksiz va oliyjanoblik bilan qo'lla-

nilishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar timsolida barcha bolalarni hurmat qiluvchi shaxsni ifodalashi zarur. Hurmatni anglagan o'quvchida o'z shaxsi qimmatini sezish hislari vujudga keladi, pedagogik ta'sirga berilmayotgan qaysarlarni moyillashtiradi, ularni ta'limiy jarayon katnashchilariga aylantiradi.

O'qituvchining pedagogik taktga ega ekanligi, uning yurish-turishida, vazminligida, o'zini tuta-bilishida namoyon bo'ladi va o'quvchiga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. O'quvchiga ishonchsizlik bilan qarash va buni har doim unga eslatish o'qituvchining pedagogik taktga ega emasligini bildiradi.

Kasbiy kompetentlikning mohiyati

O'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilish, uning asosiy sabablaridan biri o'qituvchining pedagogik nazokatga ega emasligi, deb topilgan. O'quvchining tashqi ko'rinishi, aqli, qobiliyatlarini qo'pol tankid qilish, ular ustidan kulish, o'qituvchini xech qanday taktga ega emasligi belgilaridir. G'azablangan o'qituvchi butun sinfga ayrim o'quvchi haqida, uni ko'chada uchratganda, kim bilan qanday yurganligini e'lon qiladi. Ko'p hollarda aynan shundan ziddiyat boshlanadi.

Pedagogik taktning amalga oshirish shartlari pedagogik takt darsning hamma bosqichlarida o'qituvchi uchun zarurdir. Ayniqsa, o'quvchilar bilimini baholashda juda e'tiborli bo'lish kerak. Bu takt – o'quvchi javobini to'la eshitishda, ya'ni javob shakli va mazmuniga diqqat bilan e'tibor berishda, o'quvchi adashganda vazminlik bilan tuzatishda, bahoni haqqoniy qo'yish va uni izohlab berishdadir. Albatta, «Sen hech narsani bilmaysan!», «O'tir!», «Har doimdagidek o'qimay kelibsan!» – degan achchiq e'tirozlar o'rinsizdir.

Mohir o'qituvchilar hatto duduqlanib javob berayotgan o'quvchining kamchiligini to'g'rilab boradilar. Taktsiz o'qituvchida esa, hatto qobiliyatli bola ham duduqlanib javob berolmasligi aniqlangan.

Barcha o'quvchilar, ularni diqqat va hurmat bilan tinglaydigan, javobni to'g'rilab, yo'llab turadigan o'qituvchiga javob berishni yoqtiradilar. Javob berayotgan o'quvchiga jilmayish, imo-ishora, bosh qimirlatish bilan ma'qullab turish juda ahamiyatlidir. Ayniqsa, baho qo'yish payti nihoyatda mas'uliyatlidir. Bahoning psixologik ta'siri haqida B.G.Ananev noto'g'ri qo'yilgan bahoning o'quvchiga salbiy ta'siri uch oygacha sezilib turishini aniqlagan.

Pedagogik takt – o'qituvchi xulqining ixcham bo'lishini, ya'ni taktikasini ham nazarda tutadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilar bilan turli

rollarda muloqot qiladi. Darsda aniqlik, uddaburonlik, qat'iylik, agar darsga tayyor bo'lmasa, soxta muloqot va hokazo. Darsdan tashqari ishlarda erkinlik, ko'ngilchanlik, bemalollik – bular ayniqsa, individual suhbatda, paxod (yurish) larda, sayohatlarda muhimdir. O'yin, kechki dam olish va gulxan atrofidagi o'tirishlarda esa o'rtoqlarga munosabat va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuning uchun ham muloqotning turli shakllari: yig'ilish, munozara, bo'sh vaqtni o'tkazish, o'qituvchidan muloqotning o'ziga xos uslubidan foydalanishni, uning ohangdorligini o'zgartirib turishni taqozo qiladi.

Nazorat savollari

1. Pedagogik mahorat kasbiy kompetentlikning asosidirligini tushuntiring.
2. Pedagogik mahorat va professionalizm haqida tushuntiring.
3. Pedagogik mahorat "akme"ning turi sifatidaligini tushuntiring.
4. Kasbiy kompetentlikning mohiyatini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X., Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo" 2021.
3. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya". M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziynet.uz

KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI

Tayanch tushunchalar: *pedagogik mahorat, pedagogik maqsad, pedagogik faoliyat, avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal (kelishuvli) uslub.*

Kasbiy kompetentlik

Kasbiy kompetentlik – bu kishining kasbiy vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Professionalizm ko‘plab kasbiy kompetentlikdan tashkil topgan bo‘ladi. Kompetentlik tarkibida kishining bilim, ko‘nikma va malakalariga bog‘liq holda bu qobiliyatlardan foydalana olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlikning bir necha turlari – kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘z shaxsini namoyon eta olishdagi kompetentligi kabi guruhlarni farqlash mumkin.

Kasbiy faoliyatdagi kompetentlik va uning turlari quyidagicha:

- maxsus kompetentlik (o‘z ishini yaxshi bilish);
- texnologik kompetentlik;
- subyektiv kompetentlik;
- professiologik kompetentlik (kasblar haqida ma’lumotga ega bo‘lish);

bo‘lish);

- huquqiy kompetentlik;
- iqtisodiy kompetentlik va boshqalar.

Kasbiy muloqotdagi kompetentlik va uning turlari:

➤ kommunikativ va muloqotchanlik kompetentligi (hamkorlik qila olish qobiliyati);

➤ ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilishga qobiliyat);

- differensial-psixologik kompetentlik;
- diagnostik kompetentlik (boshqalarni o‘rganish qobiliyati);
- ahloqiy kompetentlik;
- empativ kompetentlik;
- madaniyatlararo, ijtimoiy-madaniy kompetentlik (boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglik);

➤ nizoli vaziyatlardagi kompetentlik va boshqalar.

Mutaxassis shaxsining shakllanishidagi kompetentlik va uning turlari:

➤ psixologik kompetentlik (boshqa kishilarni o'rgana olish ko'nikmasi):

➤ individual, autopsixologik kompetentlik (o'zini o'rganish ko'nikmasi);

➤ madaniy kompetentlik (jamiyatda qabul qilingan madaniy normalarni qabul qilish va o'zi uchun etalon sifatida o'zlashtirish);

➤ refleksiv kompetentlik va boshqalar);

Professiogramma – kishining jamiyat uchun zarur bo'lgan mehnat mahsulotlarini yaratishi, ijtimoiy ahamiyatga ega muvaffaqiyatlarga erishishi uchun kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablar yig'indisidan iborat. Professiogrammada kasbiy topshiriqlar, vositalar, usullar va texnologiyalar, mehnat natijalari va xodim uchun zarur sifatlar mohiyati aks ettirilgan hujjatdir.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish

Adabiyotlarda kompetentlik tushunchasining 3 ta asosiy ahamiyatga ega, ya'ni vazifalari mosligi (muassasa yoki shaxsning huquq va burchlari), shaxs bilim va malakaga ega bo'ladigan savollar doirasi, shuningdek, tabiiy fanlarda moslik o'ziga xoslik qobiliyati.

Kompetentlik keng ko'lamda quyidagicha izohlanadi. Unga ko'ra, subyektning jamoaviy-amaliy malakasining shakllanganlik darajasi, faollikning ijtimoiy va individual shakllarini o'zlashtirganlik darajasi sifatida bu esa individga o'z qobiliyatlari doirasida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yordam beradi.

Y.F.Maysurazde kompetentlik tushunchasini aniqlashga qaratilgan yondashuvni 3 ta guruhga bo'ladi:

1. Ish boshqarish ko'nikmasini bilish kompetentligini aniqlash.

2. Kompetentlik mazmuniga ma'lumotlilik darajasini kiritish hamda mutaxassislik bo'yicha ish malakasi va mehnat stajini qo'shish.

3. Kompetentlikni bilim va amalga tatbiq etish bilan bog'lash doirasida ko'rib chiqish.

Psixologiya fanida kompetentlik muammosini ko'rib chiqishga qaratilgan bir qator yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, ijtimoiy-psixologik, psixologik-pedagogik, umumiy psixologik, psixolingvistik. Ijtimoiy-psixologik yondashuv nuqtai nazaridan (Y.N.Emilyanov, L.A.Petrovskaya, M.K.Kabardov, Ye.V.Arsishevskaya, V.G.Loos, Y.M.Jukov, N.V.Yakovleva, G.A.Kovalev, N.V.Grishina, A.A.Kidron, Y.F.Maysurazde) kompetentlikni rahbar va xodim ijtimoiy munosabatlari tizimi sifatida ko'rib chiqadi.

M.Klerstning ta'kidlashicha kompetentlik mazmunini ochib berishda turli xil tarkibiy qismlarga ajratiladi:

A) kompetentlik belgilari (qobiliyat, talant, bilim);

B) inson faoliyati jarayon sifatida (tuzilish, tavsifnoma, belgilar);

V) faoliyat natijalari (mehnatning mevasi, faoliyat ob'ektlaridagi o'zgarish).

U bir qator definityalarga olib keladi, bu esa kompetentlik mazmunini ochib beradi.

1-definitya bu rahbar shaxsiga taalluqli shaxsning intellektual salohiyatini aks ettiradi.

2-definitya bu rahbar shaxsiga taalluqli uning asosiy faoliyatida kompetentlik vazifalarining miqdori va sifatida aks etadi hamda u shaxs tomonidan hal qilinadi, shakllantiriladi.

3-definitya kompetentlik shaxs yoki shaxs xususiyatlarining tarkibiy qismlaridan biri sanaladi hamda eng muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning asosi hisoblanadi.

4-definitya kompetentlik ma'lum shaxs xususiyatlari tizimi hisoblanadi hamda u muammoli vazifalarni hal qilingan natijalarida namoyon bo'ladi.

5-definitya kompetentlik shaxs rivojlanishi va muammolarni samarali hal qilinishida namoyon bo'ladi hamda u inson faoliyati doirasida uchraydi va shu tashkilot uchun xizmat qiladi.

Y.F.Maysurazde kompetentlik tushunchasiga umumiy bilimlardan tashqari bilimlarni ketma-ketlikda qo'llash usulini ham kiritadi. Bu yondashuv boshqalari bilan farq qiladiki, unda bilishga nisbatan talabdan tashqari, subyekt va ob'ekt boshqaruvi o'rtasidagi munosabat ham talab qilinadi. Kompetentlik muammosiga N.V.Grishina ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan yondashib, u rahbar kompetentligini "qarama-qarshiliklar tabiatini tushunish, muammolarga nisbatan konstruktiv qarashning shakllanishi yuzaga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni boshqarishda deb tushunadi.

Kasbiy kompetentlikning mohiyati

Rahbarning kasbiy kompetentligini I.M.Kondakov nizoli vaziyatlarda adekvat qarorlar qabul qilishda deb tushunadi. Shu bilan bir qatorda bu xarakterning alohida xususiyatlari bo'lib qolmay, u tashkilot faoliyati xususiyatlari mehnat jamoasi a'zolari bilan real munosabat mahsuldorlik faoliyati bilan bog'liq.

M.I.Berestova rahbar kompetentligini yuqori lavozimdagi shaxs vazifalari doirasi sifatida ko'rib chiqadi hamda u amaliy vazifalarga nisbatan javobgarlikni aniqlaydi. Muallifning fikricha, ijtimoiy-psixologik kompetentlik quyidagi anglash, boshqarish, nazorat va baholash, o'ziga o'zi baho berish funksiyasiga ega. Asosiy va muhimi deb anglash va regulyativ boshqaruvchi funksiyasi deb hisoblaydi hamda ular sterjen vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik, A.V.Evseevning fikricha, rahbarning qo'l ostidagilari bilan ish va shaxsiy munosabatlarning samarali bo'lishi qobiliyatidir. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik integrativ sifat deb u rahbar faoliyati davomida yuzaga keladigan bilim, malaka va tajribada ko'rinadi.

Ko'pgina mualliflar ijtimoiy-psixologik yondashuv doirasida kompetentlik tushunchasini kommunikativ tuzilishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishadi.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi ijtimoiy-psixologik lug'atda muomalaning turli vaziyatlarida bilim va malakaga asoslangan yo'nalish deb ko'rsatilgan.

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda bu tushunchaning quyidagi umumiy va alohida xususiyatlari ko'rsatilgan:

1. Muomalada kompetentlik tushunchasi shaxslar bilan munosabat o'rnatish va uni qo'llash qobiliyati darajasi.
2. Bu qobiliyat shaxsning muomalaga ehtiyoj, o'ziga ishonish va baho berish kabi chuqur xususiyatlari bilan munosabatini ko'rsatish.
3. Bir tomondan malaka va mahoratini ajratish, boshqa tomondan shaxsni individual-psixologik tavsifnomasini ko'rsatish, ular shaxslararo munosabatni muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.
4. Shaxs kompetentligi ko'p o'lchamli va ko'p darajaliligini tushuntirish. Darajalarga ajratishda muomala tomonlari va ularga mos kompetentlikning tarkibiy qismlari olinadi ya'ni (kognitiv, ekspressiv, o'zini o'zi namoyon qilish interaksion ta'sir ko'rsatish).

M.K.Kabardov va Ye.V.Arsishevskaya xulq-atvor tavsifnomasi kommunikativ kompetentlik sifatida tushunchasini shaxs faolligida etakchi shakl sifatida izohlaydi.

Y.N.Emelyanov tomonidan "Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi quyidagicha ochib beriladi ya'ni vaziyatli adaptivlik va ijtimoiy xulq-atvorning verbal va noverbal nuqtai nazaridan erkin egallashdir.

Bunda u umumiy genetik asoslarda kasbiy va umumiy kommunikativ kompetentlikni ajratadi. Kasbiy kommunikativ kompetentlikni u ahamiyatli va hayotiy zarur deb ko'rsatadi. Uning fikricha, kommunikativ kompetentlik hosil bo'lishida hayotiy tajriba, ilmiy metodlar asos bo'lib hisoblanadi.

L.V.Petrovskaya va Y.M.Jukov "muloqotdagi kompetentlik tushunchasini qo'llashadi va uni boshqa insonlar bilan aloqa o'rnatishi va saqlash qobiliyati sifatida belgilashadi hamda uni rivojlantirish vazifasini qo'yishadi. Muloqotdagi kompetentlikni rivojlantirishning asosiy usuli L.A.Petrovskaya fikricha, muloqotning perseptiv tarkibiy qismining rivojlanganligi mazkur jarayonda ijtimoiy psixologik treningning qo'llanilishidir.

Kommunikativ kompetentlikni tahlil qilishda ba'zi mualliflar faoliyatli nuqtai nazardan yondashadilar. Bunda faoliyatning ichki xususiyatlari hamda mo'ljalga olish va bajaruvchi qismiga ajratiladi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik ichki zahiralari tizimi sifatida tushuniladi. Kommunikativ faoliyatda muallif boshqaruvchi va bajaruvchilarini ajratib ko'rsatadi. N.M.Melnikovaning fikricha, shaxs muloqotidagi kompetentlik ko'p qirrali uyg'un shaxsning vujudga kelishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Xorij psixologiyasi shaxs shakllanishida muloqot jarayonining muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishi bilan bog'liqligi quyidagi atamalar bilan belgilanadi.

1. Shaxs imkoniyatining kommunikativligi;
2. Munosabatni tashkil qilishdagi qat'iylik muomalaga tayyorgarlik;
3. Ta'sir o'tkazish xususiyatini singdirish qobiliyati;
4. "Men"-konsepsiyasi – anglash emotsional obraz uning yadrosi bu o'zini o'zi hurmat qilish.

Pedagogik faoliyatda kompetentlik muammosini tahlil qilishda psixologik-pedagogik yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, kompetentlik shaxsning u yoki bu sohaga nisbatan talablarni egallashi hamda uni yuqori darajaga ko'tarishi bilan belgilanadi.

Professiogramma – kishining jamiyat uchun zarur bo'lgan mehnat mahsulotlarini yaratishi, ijtimoiy ahamiyatga ega muvaffaqiyatlarga erishishi uchun kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablar yig'indisidan iborat. Professiogrammada kasbiy topshiriqlar, vositalar, usullar va texnologiyalar, mehnat natijalari va xodim uchun zarur sifatlar mohiyati aks ettirilgan hujjatdir.

Akmeogramma – malakali mutaxassis shaxsi va faoliyatiga qo'yiladigan talablar aks ettirilgan talablar yig'indisidir. Unda nafaqat jamiyat talab qilgan natijalarga erishish uchun zarur sifatlar va faoliyatga xos xususiyatlar, balki mutaxassisning kasbiy mahoratga erishishi, professionalizمنى egallashi uchun zarur jihatlari ham o'z aksini topgan.

O'qituvchining akmeogrammasi

O'qituvchining akmeogrammasi – bu aniq o'qituvchining professionallik cho'qqilariga ko'tarilishining individual “traektoriyasini” aks ettiradigan hujjat, professionallikning bir darajasidan boshqasiga, undan yuqori darajaga o'tish dasturi.

O'qituvchining akmeogrammasi o'qituvchini professionallik darajasiga ko'tarish, o'qituvchining kasbiy aksiyasiga erishish, shuningdek, ushbu harakatni o'zini o'zi boshqarish vositasidir.

O'qituvchining akmeogrammasini o'qituvchining professiogrammasi bilan solishtirish tavsiya etiladi. Professiogramma kasbiy faoliyatga va mutaxassisning shaxsiga bo'lgan ijtimoiy talablarni aks ettiradi. Professiogramma ijtimoiy tasdiqlangan kasbiy vazifalar, kasbiy texnikalar va texnologiyalar, shuningdek, ushbu kasb uchun orzu qilingan mutaxassis shaxsining fazilatlarini ro'yxatini aks ettiradi. Adabiyotda o'qituvchi professiogrammasining bir nechta variantlari tasvirlangan (A.K.Markov, V.A.Slastenin, L.F.Spirin va boshqalar). O'qituvchining professiogrammasida professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning xususiyatlari, ijtimoiy maqbul natijaga erishish uchun talablar ko'rsatilgan.

O'qituvchining akmeogrammasi o'qituvchini yuqori professionallik darajasiga ko'tarish usullarini belgilaydi. Shu sababli, akmeogramma o'z tarkibiga o'qituvchi malakasini oshirish vazifalarini (masalan, yangi o'qitish usullarini o'zlashtirish, shaxsiy uslubini ishlab chiqish va boshqalar), ushbu yangi kasbiy darajani o'zlashtirish usullari va texnikasini (masalan, hamkasblarining darslariga tashrif buyurish va tahlil qilish, uning pedagogik texnikasini tahlil qilish) kiritishi mumkin. O'qituvchining akmeogrammasi kasbiy faoliyatni takomillashtirish, pedagogik mahorat va ijodning yangi darajalariga ko'tarilish usullarini aniqlaydi. O'qituvchining akmeogrammalari bir-biridan maqsadlar (professionallikning yangi darajalariga erishish rejalashtirilgan), traektoriyaning tabiati va dinamikasi bo'yicha farq qilishi mumkin (bosqichma-bosqich muntazam ravishda yoki katta kuch va jadal o'sishni qo'llash orqali qanday yangi natijalarga erishish taklif etiladi).

O'qituvchining akmeogrammasini tuzishda shuni yodda tutish kerakki, kasbiy mahoratning har bir yangi bosqichini rejalashtirish, yangi kasbiy pozitsiyani ushbu bosqichda zarur bo'lgan o'ziga xos kasbiy muhim xususiyatlarni aniqlash orqali mustahkamlash kerak.

Shunday qilib, bilim darajasi o'qituvchidan nazariy pedagogik tafakkur, boshqa odamni o'rganishga qiziqish, fan va amaliyotda yangi va qiziqarli bo'lgan barcha narsalarga befarqlikni talab qiladi.

Magistrlik bosqichi pedagogik maqsadni belgilashni, pedagogik kuzatishni, pedagogik sezgi va improvizatsiyani talab qiladigan amaliy javobning eng yaxshi namunalarini amaliyotga tatbiq etish va amaliy pedagogik fikrlashga o'tishni anglatadi.

Diagnostikaning pozitsiyasi o'qituvchidan pedagogik diagnostik fikrlashni, aqliy rivojlanishning individual variantlariga e'tibor berishni, pedagogik instinktini va pedagogik prognozlashni talab qiladi.

Gumanistning darajasi o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, talabalarning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik empatiya, pedagogik xushmuomalalik, kasbiy sezgirlik bilan ta'minlanadi.

O'z-o'zini diagnostika qilish darajasi o'qituvchi shaxsiyatining etuk professional o'z taqdirini belgilash, o'zini anglash, pedagogik aks ettirish kabi xususiyatlariga asoslanadi.

Innovatsion, yaratuvchilik pozitsiyasi o'qituvchidan moslashuvchan pedagogik fikrlash, pedagogik sezgi, improvizatsiya, noaniqlik sharoitida harakat qilish qobiliyatni talab qiladi. Innovatsion o'qituvchi, shuningdek, ijodiy pedagogik qobiliyatga, yangi pedagogik fikrlashga, klik va stereotiplardan uzoqlashishga tayyor, motivatsion faoliyatga, yangiliklarga qiziqishga ega bo'lishi kerak.

Faoliyatning turli-tumanligini va natijalarning o'zgarishini kuzatib boradigan o'qituvchi-tadqiqotchi, pedagogik maqsadni belgilovchi istiqbolli ilmiy-tadqiqot madaniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ongli individuallik darajasiga ko'tarilishni istagan o'qituvchi o'zining kasbiy va hayotiy hodisalarni idrok etishida o'ziga xoslik fazilatlarini, kasbiy faoliyatda individual o'zini ifoda etishda, individual uslubni egallashda va boshqa odamlarning o'ziga xosligini hurmat qilishda rivojlanishi kerak. Pedagogik hamkorlikka a'zo bo'lishga intilayotgan o'qituvchi fazilatlarni, moslashuvchan rol pozitsiyalarini, bag'rikenglik va hamdardlikni o'zlashtirish qobiliyatini tahlil qilishi va o'rganishi kerak.

O'qituvchining akmeogrammasi yuqoridagi barcha darajalar va kasbiy darajalarni o'z ichiga olishi mumkin – mahorat, ijodkorlik, tadqiqot va innovatsion.

Yuqori darajadagi kasbiy mahoratga erishish pedagogik faoliyatning rivojlanayotgan turlarini o'zlashtirish va yangi professional muhim fazilatlarni rivojlantirish orqali rejalashtirilgan.

Akmeogramma quyidagi tuzilishga ega:

Akmeogramma

№ _____

« _____ » _____ 20 _____ yil

F.I.O. _____

Jinsi _____

Yoshi _____

Ma'lumoti _____ Mutaxassisligi _____

Xodim sifatida o'sishi _____

Ixtisoslik darajasi _____

Malakasini oshirish va qayta tayyorlash (shu jumladan mustaqil ta'lim olish orqali) _____

Qo'shimcha ma'lumotlar _____

1. Imkoniyat va qobiliyatlar osttuzilmasi:

- murakkab xususiy;
- iqtidor va talantning mavjudligi;
- shaxsning imkoniyatlari bahosi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

2. Individuallik osttuzilmasi:

- "men" obrazining tavsifi;
- muvaffaqiyatga ehtiyoj va motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari;

- o'zini o'zi baholash xususiyatlari;

- qadriyatli orientatsiyalar va qiziqishlar tavsifi;

- o'zini namoyon etish bahosi;

- qo'shimcha ma'lumotlar.

3. Yo'nalganlik osttuzilmasi:

- yo'nalganlik tavsifi (kengligi, chuqurligi);

- yo'nalganlikning mazmuni;

- kasbiy faoliyatga munosabat;

- o'zaro ta'sirga yo'nalganlik;

- qo'shimcha ma'lumotlar.

4. Xarakterologik xususiyatlar va ahloqiy sifatlar osttuzilmasi:

- maqsadga intiluvchanlik;
- tashabbuskorlik;
- irodaviy sifatlar;
- uyushqoqlik;
- mas'uliyatlilik;
- boshqalar muvaffaqiyatiga hasad qilmaslik;
- munosabatlarning insonparvarlikka yo'nalganligi;
- samimiylik;
- tartiblilik;
- qat'iyatlilik;
- xolislik;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

5. Kasbiy sifatlar osttuzilmasi:

- kasbiy kompetentlik;
- kasbiy bilim va ko'nikmalarning chuqurligi;
- kasbiy ijodkorlik;
- kasbiy ko'nikmalar tavsifi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

6. Professionalizmning akmeologik variantlari:

- shaxsning kuchi;
- antitsipatsiya darajasi;
- o'zini o'zi boshqarish darajasi;
- qaror qabul qilish va uni amalga oshirish darajasi;
- ish qobiliyatining darajasi;
- maxsus sifatlar;
- kasbiy ahamiyatga molik psixologik sifatlar;
- shaxsiy ishga oid sifatlar;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

7. Umumlashtirilgan qo'shimcha ma'lumotlar.

8. Keng umumiy xulosalar.

Nazorat savollari

1. Kasbiy kompetentlilikni tushuntiring.
2. Kasbiy kompetentlilikni shakllantirishni tushuntiring.
3. Kasbiy kompetentlikning mohiyatini tushuntiring.
4. O'qituvchining akmeogrammasini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Mirsoliyeva M.T., Djamilova N.N. Pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
2. Xodjayev B.X, Artiqova M.B. Maktabgacha pedagogik akmeologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Ilm-Ziyo", 2021.
3. Abdulkhanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va bosh. Akmeologiya. Darslik (elektron) RAGS, 2004.
4. Tillayeva S.N. "Akmeologiya asoslari". T.: Tafakkur bo'stoni.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Akmeologiya. Darslik. A.A.Derkach tahriri ostida. M., 2002.
2. Akmeologiya. Xrestomatik lug'at. Ilin V.V., Pojarskiy S.D. "Filosofiya va akmeologiya". M., 2004.
3. Kuzmina N.V. Osnovi akmeologii. M., 2007.
4. Kuzmina N.V. Predmet akmeologii. M.: SP №5, 2002.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.

Axborot manbaalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz

AKMEOLOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Tayanch tushunchalar: *akmeologik ta'sir, akmeologik texnologiya, akmetektonika, akkimetika, gumanitar texnologiya, ijtimoiy texnologiya, psixofizilogik texnologiya, psixologik texnologiya, psixotexnologik fenomen, texnologik daraja.*

Fan va amaliyot tizimidagi akmeologik texnologiyalar

Har qanday fan va amaliyot sohasi ilmiy va amaliy maqsadlarda apparatlardan foydalanadi: konseptual va instrumental.

Birinchisi, konseptual prinsiplar, tushunchalar, atamalar, toifalar tizimi, nazariyalar, qonunlar va naqshlarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchisi, instrumental – ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan usullar, texnikalar va texnologiyalardan iborat.

Texnologik daraja bizga keng miqyosdagi ijtimoiy amaliyotning ijtimoiy belgilangan tartibini qondirish imkonini beradi.

Psixologik texnologiyalar muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilganda, eksperimental bazaning va empirik ma’lumotlarning yo‘qligi sababli dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishning texnologik darajasi pastligi aniqlandi.

Ilmiy adabiyotlarda texnologiya hodisasi tahlil predmeti sifatida bevosita texnologiyalarning turlari va turlarini aniqlaydigan aniq tadqiqot maqsadlariga bog‘liq.

Zamonaviy texnologiyalar global sivilizatsiya, yangi sivilizatsiya yaratuvchi jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi rolini o‘ynaydi. Ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar “ijtimoiy”, “axborot”, “pedagogik”, “psixotexnologiyalar”, “menejment”, “prognozlash”, “muvaffaqiyat”, “martaba” texnologiyalari va boshqalardan foydalanadilar.

Amaldagi texnologiyalar jamiyatni boshqaruvni soddalashtirish, innovatsion usullardan foydalanish va natijalarga erishish uchun eng aniq algoritmlarni tanlash ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan. Bugungi kunda ijtimoiy texnologiyalar va psixotexnologiyalar faol rivojlanmoqda.

“Texnologiya” fenomenini tahlil qilishda akmeologik yondashuv zamonaviy amaliyotda ta’kidlash va uning namoyon bo‘lishining to‘rtta asosiy mohiyatini tahlil qilishga imkon beradi:

- ishlab chiqarish,
- fan sifatida,

- ijtimoiy munosabatlar,
- inson faoliyatining bir usuli sifatida.

Texnologiyalarni ishlab chiqish

Akmeologiya uchun texnologiyani inson faoliyatining usuli, turi, lahzasi sifatida o'rganish masalasini qo'yish qonuniydir. Akmeologiya inson faoliyatining mohiyati va tuzilishini o'rganib, ma'naviy, amaliy va amaliy akmeologik bilimlardan foydalanadi. Bilim darajasining o'zi inson faoliyatini tashkil qilishning tomonlaridan biridir va uning intellektual darajasini belgilaydi. Jamiyat erishgan ob'ektlar, ularning shakllanish jarayonlari, ijtimoiy qonunlarning ta'sir mexanizmi to'g'risidagi bilim darajasi odamlarning mehnat faoliyatidagi har bir amaliy faoliyat, har bir bosqich, shakl, vosita va usulni ilmiy asoslash zarurligini ko'rsatadi. Faoliyat texnologiya deb nomlanish huquqiga ega bo'lishi uchun uni ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan elementlarga bo'lish kerak. Faoliyatning psixologik nazariyasi tufayli ma'lum texnologiyalar turlarini, shu jumladan subyekt-ob'ekt o'zaro ta'sirining mexanizmlari va texnologik texnikasini amaliy rivojlantirishga o'tish mumkin.

Akmeologiya nuqtai nazaridan, texnologiya faoliyat turi sifatida barcha ijtimoiy sohalarda nisbiy mustaqillikka ega, bu erda jarayonni (ta'lim, ta'lim) optimallashtirish vazifalari hal qilinadi.

Texnologiya inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida "ijod" tushunchasiga mos keladi. Ijodiy faollik natijaning yangiligini ham ta'minlaydi, texnik esa bunday rivojlanishning va natijaga erishishning ob'ektiv va samarali usuli uchun javobgardir.

Psixotexnologiya fenomenini o'rganish, akmeologiya fani uni kasbiy faoliyatni tahlil qilish uchun talab qiladi. Psixotexnologiya deganda subyektiv vaziyatning tegishli rivojlanishi bilan yo'naltirilgan va buyurtma qilingan harakatlar majmui va ketma-ketligi tushuniladi.

Psixologik texnologiyalarning mahorati bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini izchil va maqsadli ravishda shakllantirish va undan foydalanish, stressni engish uchun eng yaxshi usullarni tanlash, professional, shaxslararo nizolarni hal qilish uchun asosli qarorlarni qabul qilish imkonini beradi.

Psixofizilogik texnologiyalar ijtimoiy texnologiyalar toifasiga kiradi. Ularning maqsadi inson organizmida sodir bo'layotgan jarayon parametrlarini o'zgartirishdir. Psixofiziologik texnologiyalarning rivojlanishi natijasida shaxs quyidagilarga qodir: ma'lum shaxsiy fazilatlardagi o'zgarishlarga munosib munosabatda bo'lish, o'zini salbiy holatlardan

himoya qilish, ichki psixofiziologik manbalardan samarali foydalanish, maqsadga erishish uchun o'zini rag'batlantirish, kelajakka bo'lgan nuqtai nazarini anglash. Psixofiziologik texnologiyalar yordamida insonning ichki psixofiziologik holatini o'zgartirish, uning haqiqiy ahamiyatini baholash, shaxsning ichki dunyosini o'lchash mumkin deb taxmin qilinadi.

Aqliy hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan psixologik va psixofiziologik texnologiyalar mustaqil texnologiyalar turi sifatida taqdim etilishi juda o'rinlidir.

Gumanitar texnologiyalar quyidagi sabablarga ko'ra akmeologik ilmiy toifaga kiradi:

➤ gumanitar texnologiyalarning maqsadli yo'nalishi va maqsadi ijtimoiy, shaxsiy, faoliyat muammolarini aks ettiradi, ularni muayyan protsedura va operatsiyalar to'plami shaklida hal qilish usulini tavsiflaydi.

➤ gumanitar texnologiyalardan foydalanish davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatning subyekt sifatida har tomonlama namoyon bo'lishi va ko'payishi uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi.

➤ davlat xizmatchisining hayotini turli xil gumanitar texnologiyalar yordamida tashkil etish insonning hayotiy va kasbiy bilim darajasida har tomonlama o'zini namoyon etishini ta'minlaydi.

Akmeologik texnologiyalarning o'ziga xosliklarini o'rganish

Shunday qilib, texnologiya fenomenini akmeologik tahlil qilish davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatida ishlatiladigan insonparvarlik texnologiyalarini rivojlantirishda qonuniy ravishda qo'llaniladigan muhim xususiyatlarni ajratib olishga imkon beradi:

Birinchidan, gumanitar texnologiyalarni jarayon sifatida o'rganish (qo'llash) mumkin; fan sifatida (ta'lim), ijtimoiy munosabatlarning bir tomoni sifatida, faoliyat usuli (turi, lahzasi) sifatida.

Ikkinchidan, gumanitar texnologiyalar nafaqat amaliy, balki ijodiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Uchinchidan, gumanitar texnologiyadagi ijodiy texnologiya etimologiyasini ifoda etadi: san'at va mahorat.

To'rtinchidan, gumanitar texnologiyaning ma'lum bir lahzasi, usuli muayyan texnikaning mazmuni va shakliga ega bo'lishi mumkin. Texnikadan ta'sir kuchi sifatida, usul sifatida, boshqarish sifatida (vaziyatlar, harakatlar, sharoitlar) foydalanish mumkin.

Beshinchidan, gumanitar texnologiyalarda ishlatiladigan akmeologik bilimlar uning muhim prognozlariga mos keladigan ma'lum mezonlar bo'yicha texnologik jihatdan takomillashtirilgan bo'lishi kerak.

Akmeologik texnologiyalar ichki salohiyatni rivojlantirishga, davlat xizmatchilarining professionalligi va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan. Ular tabiatshunoslik va gumanitar bilimlarning barcha qatorini o'z ichiga oladi, bunday texnologiyalar akmeologik asosga ega va sintez qiluvchi shaxs ma'naviyatini to'liq ochib beradi.

Shunday qilib, akmeologik texnologiyalarning *psixologik* (hissiyotlar, irodalar, idrok etish, fikrlash, aqliy tartibga solish), *fiziologik* (funktional holatlar, individual farqlar), *tibbiy* (psixoterapiya, psixogigiena, psixoprofilaktika, psixokorreksiya) aspektlari aqliy faoliyatning intellektual, hissiy, ixtiyoriy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Akmeologik texnologiyalarning tuzilishi ularning rivojlanishi uchun umumiy bo'lgan lahzalarning batafsil tavsifini o'z ichiga olgan matritsa bilan ifodalanadi:

- texnologiyaning maqsadi va vazifalari;
- uslubiy asos;
- rivojlanish tamoyillari;
- jarayon shartlari;
- muayyan vaziyatni tahlil qilish;
- texnologiya predmeti va ob'ektining xususiyatlari, ayniqsa, ularning o'zaro ta'siri;
- maqsadga erishish bosqichlari, strategik, taktik usullari, natijalarni bashorat qilish usullari, amalga oshirish.

Akmeogramma – bu insonning individual-ruhiy va psixofiziologik o‘ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo‘lib, buyuk zotlarning o‘sib-ulg‘ayishi va mukammallashuvi, o‘z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o‘rganadi. Aytish lozimki, ana shunday akmeologik tahlil natijasida insonni yoshligidanoq kasbga yo‘naltirish kelajakda samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Natijada, jamiyatimizning ilg‘or akmeshaxslari o‘tmishdagi ajdodlarimiz bosib o‘tgan yo‘l, ular erishgan cho‘qqilar – kamolot va mukamallik cho‘qqisiga erishish mexanizmlarini yaxshiroq va mukammal anglaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kun nuqtayi nazaridan istiqbolimiz yo‘nalishini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Akmeogrammik xarita asosida shaxsning mahsuldorlik qobiliyatini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi ko‘rsatiladi. Zero, samarador faoliyat akmeologiyaning tushuncha apparatini tashkil qiladi.

Akmeologiya (yunoncha *akte* – *cho‘qqi*, *kamolot*, *yuksalish*, *etuklik*, *logos* – *fan*) – ilmiy manbalarda professionalizm va ijod rivojlanishidagi qonuniyatlar va texnologiyani o‘rganuvchi integrativ kompleks fandır. U kasb-kor faoliyatida yuksaklikka erishish uchun yangi yo‘nalish va professionalizmning yuksak darajadagi muvaffaqiyatlar sari yo‘naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash usullarini ishlab chiqadi va bu jarayonni tabiiy qonuniyatlarga tatbiq etadi deyilgan. Bizningcha, tabiiy, umumjamo va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi fandır va insonning etuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmini hamda asosan bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o‘rganadi. Ushbu atama biror kasbga, biror bir sohaga mehr qo‘yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni bildiradi. Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «*akmeologik moyillik*» iborasi bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xususiyatini anglatadi.

Akmeologiyaning kreativ jihati – sarflangan kuch haqqoniyligini professionalizm, uning mahorat darajasigacha yuksaluvchi refleksiv-innovatsion potentsiali va ijod jarayonida olingan ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish yo‘li bilan belgilashga qaratilgan. Zero, eng dolzarb muammolardan biri – ta‘lim, bilim berish sohasidagi milliy davlat dasturimizni yangi bosqichga ko‘tarish va yangi mazmun bilan boyitishimiz, zamonaviy bilim olish, hayotda kerak bo‘lgan kasb-hunarga ega bo‘lish va ish bilan ta‘minlash hamda har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyat va iste‘dodini o‘z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro‘yobga chiqarish, mutaxassislik madaniyati, odobi, ijod va etuklik tajribasini chuqur egallashi bilan muntazam shug‘ullanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Akmeologiyaning professional jihati – mehnat faoliyatidagi imkoniyat va natijalarni mavjud mehnat turi, ushbu jarayonning ijtimoiy holat darajasi va natijasiga ta‘sirini kasbiy foydalilik, psixologik tayyorgarlikni tushuntirish orqali baholashga yo‘naltirilgan. Zero, shaxs mehnati o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lgan aqliy mehnat ekan, demak, bu mehnat ham o‘qishda, ham ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o‘zlashtirishda o‘z ifodasini topadi. Bu esa akmeshaxsning professional faoliyatidir.

Akmeologiyaning refleksiv jihati – xuddi rivojlanayotgan “MEN” degan shaxs o‘z ongi va ish faoliyati jarayonida hamkorlarning alohida tushunuvchanligi bilan bog‘liq inson professional-lashuvida ajratilgan akmeologik jihatlarining optimal qo‘shiluvini taminlovchi sifatida ifodalanadi. Buni akmeshaxsning *muruvvatli* yoki *sahovarli* holati bilan qiyoslash mumkin. Muruvvat va sahovatda umummanfaatdorlik yuzaga keladi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) jamiyatda insonparvarlik keng tarkib topadi; 2) mehr-oqibat va sahovat muhiti rivojlanib boradi; 3) ijtimoiy hamkorlik va birodarlik yuksala boradi; 4) ijtimoiy hamkorlik va birodarlik madaniyati shakllanadi. Demak, muruvvat va sahovat qadriyatlarining yuksalishidan ko‘pchilik manfaat ko‘radi. Bu akmeshaxsning asosiy fazilatlaridan biridir.

Akmeologiyaning ta‘lim jihati – umumiy, professional va uzluksiz ta‘lim tizimida bilim va ko‘nikmalarni aniqlashga hamda oshirishga yo‘naltiriladi.

- Akmeshaxs** – akmeologiyaning asosiy predmeti bo‘lib, uning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iborat bo‘lib, u insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy dunyosida yuksakroq cho‘qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o‘rganadi. “Akme” – insonning ko‘p o‘lchamli yuksalish holati, uning hayotini vaqt o‘lchami bo‘yicha ahamiyatli bosqichini qamrab olgan holda, uning jamiyatdagi fuqaroligi, ma’lum faoliyat doirasidagi mutaxassisligi, boy yoki kamtarona yashash turmush tarzi, oilaviy holati, ota yoki ona ekanligi bilan ajralib turadi.
- Antimanipulyativ xulq-atvor** – birovlarining shaxsiy qadr-qiyamatini, huquqini poymol etmasdan, o‘z qadrini, huquqini bilib unga rioya etish va talab qila olishdan iboratdir. Buni “assertiv” xulq deyiladi, chunki qachonki inson o‘z xatti-harakatlarining chegarasi, meyyorini bilib unga rioya etsa, birovlarining qadrini, huquqini hurmat qilib, odob doirasida uni joyiga qo‘ya oladi.
- Barkamol inson** – mustaqil va hur fikrli, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega, aqli, tafakkuri, mehnati, mas’uliyat bilan yashovchi, ongli, eski tushunchalar va aqidalardan xalos bo‘lgan inson.
- Bibliometriya** (yunoncha *biblion* – kitob va *metron* ~ o‘lchov, *metreo* – o‘lchayman) – XX asming 60-yillarida yuzaga kelgan ilmiy faoliyatda hujjatlar oqimining miqdorini tadqiq etuvchi yangi ilmiy yo‘nalish.
- Gerontologiya** (yunoncha *gerontos* – qariya, qartayish, *logos* – fan) – inson qarishini o‘rganadigan tibbiy-biologik va psixologik fanlar yig‘indisi.
- Globalashuv** – insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo‘layotgan jarayonlar tufayli olamshumul ahamiyat kasb etishidir. Uning

hozirgi davrda uch manbaya mavjud: 1) kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar; 2) investitsiyalardagi yangi jarayon; 3) dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishini ta'minlashdir. Globallashuvga to'g'ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta'minlaydi, davr zarbalaridan omon qolib yashash darajasini yuksaltiradi, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta'minlaydi hamda qo'shni davlatlar bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson faoliyatining milliy qoliplardan chiqishi, transmilliy shakllarni shu holda yaratish individlar, ijtimoiy guruh va jamoalar, xalqlar va davlatlarning turmush tarzida tub o'zgarish yasaydi.

Dinamik-o'zgaruvchan ijtimoiy muhit – doimo o'zgaruvchan jonli hayot, real borliq, ijtimoiy muhit bilan bog'liq mehnat faoliyati. Hozirgi zamon tashqi muhiti o'ta dinamik o'zgaruvchanligi, doimo almashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunda davr, zamon, hatto asr xarakterining o'ziga xos tomonlari, jumladan, ijtimoiy jarayonlar va ma'lumotlar almashinuvining tezligi, beqarorligi tendensiyasining inson taqdiriga turli xil darajada ta'sir etishi mumkinligini e'tiborga olmoq zarur.

Yevgenika – Frensis Galton tomonidan 1883-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan termin bo'lib, (yunoncha *eugenys* – zotdor, nasldor; zodagonlar, lliy tabaqa kishilariga o'xshab ketadigan) nasl, zotning irsiy tozaligini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyat turidir. Keyingi davrlarda evgenika tushunchasi ko'proq inson naslining irsiy tozaligini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy muhit – shaxsni o'rab turgan. uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, faoliyatlar va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriy.

Ijtimoiy hayot – keng va tor ma'nolarida qo'llaniladi. **Keng ma'nodagi ijtimoiy hayot** – yaxlit bir tizim hisoblanib. ijtimoiy hayot voqeligi sifatida insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar tizimiga aytiladi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma'nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi. **Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot** ~ kishining bioijtimoiy mavjudot sifatida, o'z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jabhalariga aytiladi. Bularga oiladagi

kundalik hayot, o'zining shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog'liq bolmagan barcha faoliyatlar kiradi. Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot tizimining qismlari – ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at deb nomlanishini yuqorida aytib o'tdik. Bu unsurlarning har birini alohida-alohida ilm tarmoqlari o'rganib, ular shu ilmlarning tadqiqot ob'ektlari hisoblanadi.

Ijtimoiy-ahloqiy muhit – akmeshaxs shakllanishining asosiy omili bo'lib, akmeshaxs taraqqiyotida shaxsning shaxsiy imkoniyatlar bazasi bilan bir qatorda ta'sir etuvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – individning jamiyatda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy me'yyor va qadriyatlarni o'zlashtirishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalaydi. Bu omillarning ba'zilar insonning butun hayot davrida davom etadi. Ommaviy axborot vositalari esa uning hayotining ma'lum davrida ta'sir qiladi. Ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning faolligigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, ayni pallada atrof-muhitning unga bo'lgan ta'siri hamdir. Ayrim tadqiqotchilar, ijtimoiylashuvning ikki jihatini ko'rsatadilar: *ijtimoiy moslashuv* va *interiorizatsiya*. Birinchi jihati, individning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitga, ijtimoiy hayotining turli darajalaridagi tartib-qoidalarga, insonni o'rab turgan muhit sifatidagi mavjud ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlarga, jamiyatdagi o'zining mavqeyiga moslashuvini nazarda tutsa, ikkinchi jihati esa intertorizatsiya, ya'ni ijtimoiy qadriyatlar va tartib-qoidalarning inson ichki dunyosiga singib borishi.

Imij (inglizcha *image* – timsol, shakl) – ommaviylashtirish, reklama qilish maqsadida ma'lum bir kishilarga emotsional psixologik ta'sir ko'rsatish asosida ularda aniq bir shaxs, hodisa, predmetning maqsadli yo'naltirilgan timsolini shakllantirishdir. Imijning bir necha xususiyatlarining mohiyatiga e'tiborni qaratish mumkin: birinchidan, imij – timsol, ya'ni kategoriya sifatida asosan siyosiy-psixologiyaga tegishli hodisadir; ikkinchidan, timsol maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish

natijasida shakllanar ekan. kishilar va jamiyatga ta'sir ko'rsatish jarayonining o'zini hech bir mubolag'asiz davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning ishtirokini talab etuvchi siyosiy jarayon sifatida ko'rsatish mumkin.

Inson – kishi, uning ongi, odob-ahloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-eh-tiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar-ga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bolsa, ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti. hayot gulidir. Insonning bebaholigi – uning aql-idrok va tafakkuriga egaligidadir. U aql-idrok sohibi bo'lgani uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Komil inson – inson zoti orzu qilgan jamiki ezgu xislatlar namoyandasi, u go'yo mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat, ya'ni ijtimoiy-ahloqiy ideal. Tasavvuf axli sig'ingan g'oya – komil inson, ya'ni xalq g'oyasi adabiyot g'oyasi edi. Tasavvuf shayxlari zulm va qorong'ilik lashkariga qarshi ma'rifatni qurol qilib olishdi. Komil inson tushunchasi o'rta asrlarda shakllangan bo'lib, islom Sharqida asosan islomiy nuqtayi nazardan ta'riflab kelingan.

Komil inson fazilat-lari – insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, insoniylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalilik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, haromdan hazar qilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar. Bizningcha, ayni shu xislat va fazilat-larning singdira borilishi yosh avlodni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Komil insonning xislat-lari – yoqimlilik, ko'rkamlilik, jozibaaorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, etuklik, jiddiylik, madaniylik, odoblilik va boshqalar.

Mafkura – jamiyat yoki alohida olingan ijtimoiy guruh-larning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning ma'naviyatida aks etadigan falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, badliiy va diniy qarash-larning omuxtasi-dan iborat bo'lgan, bir butun g'oyalar, nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi.

Ma'naviy yetuklik – bu insoniy sifatlarning uyg'un bo'lishi masalasidir, ya'ni nafs humjini, lazzatlarga bo'lgan moyillik o'zligini engalish. Insonning komil inson va mukarram inson martabasiga ko'tarilishi, uning ma'naviyatining yuksalishi demakdir.

Mezomuhit – inson va u yashayotgan mikromuhitdagi hayoti va faoliyati yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy tizimlar mezomuhitni tashkil qiladi. Mikromuhit mana shu tizimlar ta'sirida shakllanadi. Mikromuhit faoliyati ta'sirida mezzomuhit ham o'zgaradi. Falsafa fanida, hozirgi kungacha amal qilayotgan an'anaga ko'ra, ijtimoiy muhitni mikro va mezomuhitga bo'lish jamiyatning tarkibiy tizimini o'rganish uchun etarli emas deyish mumkin. Chunki mikromuhit yoki mikromuhitlar mezomuhit tarkibiga bevosita emas, balki oraliq tizimlar vositasida birikadi. Masalan, oila mikromuhit sifatida, bevosita jamiyatga emas, avvalo, mahalla, xalq, elat, millat, mamlakat tarkibiga kiradi va so'ngra ular jamiyatning muhim bo'lagiga, uning asosiy negiziga aylanadi.

Mikromuhit – inson o'zi yashab faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat va uni o'rab turgan dunyoning ijtimoiy jarayonlaridir. Mikro dunyo xalqlar ma'naviyatini, millatlar madaniyatini ularning o'zaro ijtimoiy aloqalari orqali ifoda etuvchi bir qobiq. Mikromuhitga davlat siyosati darajasida er sharida mavjud boshqa davlatlarda yuz berayotgan barcha voqea va hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati kiradi. Jumladan, BMT Bosh assambleyasida keyingi yillarda eng dolzarb muammolardan biri deb qayd etilayotgan: narkomaniya va narkobiznes xavfi, terrorizm balosi ularning yo'nalishini, (shaxslararo) psixologik munosabatlarini ifodalovchi jamiyatning psixosoz ijtimoiy infratuzilmasidir. Agar ijtimoiy-ekologik manbalari jamiyat taraqqiyotida tizim sifatida qaralsa, uning ierarxik ko'rinishdagi o'zaro bog'liq OITS kasalligining oldini olish, global isish xavfini solayotgan ekologik muammolar butunjahon inson taraqqiyotiga katta xavf tug'diradigan bir ziddiyatni vujudga keltirmoqdaki, shunga ko'ra er kurrasining umumiy ijtimoiy muhitini a'lo deb aytib bo'lmaydi. Bu muammolar inson ekologiyasi va mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Muhit – inson va inson onigiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ob'ektga ta'sir etuvchi jarayonlar, hodisalar va shartlar majmuasi va tizimi.

Naukometriya – ilms hunoslikning bir bo‘limidir. Naukometriyada ilm tadqiqot ob‘ekti sifatida olinadi. Oila – kishilarning tabiiy biologik jinsiy munosabatlar, uyro‘ zg‘omi boshqarish, huquqiy nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish, ma‘naviy er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg‘usi va shu kabilar munosabatlariga asoslangan birlik, kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmi. Oila kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmi. Oila – nikohning rivojlangan bosqichidir, u nikohning ichki taraqqiyoti, mustahkamlanishi natijasida vujudga keladi.

Oilaviy muhit – bu o‘zining barcha qirralari va ko‘rinishlarida butun bir jamiyat deb nomlanadigan majmuadir. U insonning o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlariga ega bo‘lgan butun moddiy va ma‘naviy, madaniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, estetik g‘oyalari, qonuniyatlari, didi va qadriyatlar yig‘indisidan iborat ijtimoiy birlikdir. Oilada, ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘lar orasida bola ilk tasavvurlarni oladi va uni o‘rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo‘ladi. Oiladagi tarbiya muhiti, avvalambor, oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni, oila boshliqlari bilan bolalarning o‘zaro yaxshi munosabatlari, o‘zaro totuvlik, mehr-oqibat, g‘amxo‘rlik, qariyalarga hurmat, e‘tibor, oiladagi bolalarning o‘zaro munosabatlari, to‘g‘ri tarbiyalan-gani, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o‘rnatilgan to‘g‘ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kabilar oila madaniyatining nozik qirralaridir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, o‘sha oiladagi sog‘lom muhitga putur etadi. Demak, oilada sog‘lom muhit va sog‘lom munosabat qaror topsa, oilada ham, millat va jamiyatda ham sog‘lom muhit mavjud boladi.

Oilaning tibbiy-ekologik muhiti – oila a‘zolarining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashdir.

Pedologiya (yunonchadan *pais (paidos)* – go‘dak, bolalar, logos ~ fan) – bola rivojining psixologik, biologik, ijtimoiy, pedagogik konsepsiyalari yig‘indisidir.

Salomatlik – inson organizmining biologik, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi. Sihat-salomatlik har bir kishi uchun baxt-saodat, uning mehnat unumdorligini, mamlakatning iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini rivojlantirishning zaruriy sharti.

Tarbiya – shaxsning hayotga, mehnatga layoqatliligini maqsadga yo'naltirilgan, tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda shakllantiruvchi faoliyat.

Turg'un ijtimoiy muhit – individning tug'ilib, doimiy ravishda aloqadorlikda bo'ladigan muhitidir. Bu muhitga oila, mehribonlik uylari kiradi. Oilada, ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar orasida bola ilk tasavvurlarni oladi va uni o'rab turgan insonlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'ladi. Shunday ekan, tarbiyaning asosiy o'zagiga oiladayoq poydevor qo'yiladi va bu tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta'lim-tarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Fenomen (yunonchadan *fainomenes* ~ hodisa) – akmeologik fenomenlar, birinchidan, murakkab tirik organizm bo'lgan insonni individ sifatida namoyon bo'lishi, avvalo, professional sifatidagi, arbob sifatidagi voqelikning turli-tuman tomonlariga insondagi paydo bo'lgan yadroviy munosabatlarning ko'rinishlari, ikkinchi jihatdan, uni jamiyatdagi bajaradigan rolga qarab, insonlarning kichik va katta birlashmalarida ko'rinadigan hayot faoliyatini yashash sharoitining konkret ko'rinishlari orqali chiqadigan hodisalar.

TESTLAR

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Akmeologiya atamasini kim va qachon ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan?

- a) 1928-yilda, N.A.Ribnikov;
- b) 1828-yilda, N.A.Ribnikov;
- c) 1928-yilda, Frensis Galton;
- d) 1938-yilda, I.Perna.

2. “Akmeologiya” qanday ma’noni anglatadi?

- a) yetuklik;
- b) kamolot, yuksalish;
- c) yuksalish, cho‘qqi;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Maqsadga etishishda biron-bir to‘siqni bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan tadbir va chora deb nimaga aytiladi?

- a) faoliyat;
- b) uslub;
- c) usul;
- d) maqsad.

4. Inson taraqqiyotidagi eng yuqori cho‘qqi (akme) bu – ?

- a) o‘z-o‘zini himoya qilish;
- b) samarali hayot, o‘z imkoniyatlari, kuchi va qobiliyatlaridan to‘liq foydalanish;
- c) insonning mukammal fe‘l-atvori;
- d) jamoatchilik e’tirofi, boshqalarning hurmati.

5. Maqsadga etishishda qo‘llaniladigan uslublar tizimi bu – ?

- a) usul;
- b) tariqat;
- c) metod;
- d) barcha javoblar tug‘ri.

6. Shaxs o'z akmesiga erishish jarayonini qanday amalga oshiradi?

- a) akmeologiyada shaxs hech qanday usullar va uslublarsiz oldiga qo'ygan maqsadiga erishish orqali;
- b) akmeologiyada shaxs muayyan bir usuldagi uslublarni qo'llash jarayonida har bir harakati, oldiga qo'ygan maqsadining ko'rsatgichlaridan kelib chiqib;
- c) shaxs o'z akmesiga erishish jarayonida faqat tadqiqotlardan foydalangan holda amalga oshiradi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Shaxsning maqsad sari qiladigan akmeologik harakati, unga shu maqsad ko'rsatgichlari bilan dialektika qonuniyatlari, sohaning qonun va qonuniyatlari tamoyili bo'lib xizmat qilishiga nima deyiladi?

- a) gnoseologiya;
- b) akmeologiya;
- c) psixologiya;
- d) metodologiya.

8. "Majmua" so'ziga to'g'ri tarif berilgan qatorni toping?

- a) yaxlit bir butunni tashkil qiluvchi va o'zaro funksional bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'lgan narsa yoki hodisaga aytiladi;
- b) maqsadga etishishda biron-bir to'siqni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan tadbir va choraga aytiladi;
- c) jamoa bo'lib qilingan ishga aytiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

9. Voyaga etganlarning ijtimoiy hayotining asosiy shakli:

- a) bilim olish;
- b) shaxslararo aloqa;
- c) bilim va ko'nikmalarni egallash;
- d) mehnat faoliyati.

10. Shaxs rivojlanish cho'qqisining ramzi bu – ?

- a) professionallik;
- b) muvozanat;
- c) rivojlanish chegarasi;
- d) akme.

11. Ijtimoiy majmua qanday qismlardan tarkib topgan?

- a) gumanitar, siyosat, madaniyat va ijtimoiy;
- b) ma'naviy, ma'rifiy, madaniyat va san'at;
- c) ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy;
- d) to'g'ri javob yo'q.

12. Rivojlanish qonunlari va mexanizmlarini o'rganadigan fan – ?

- a) ergonomika;
- b) ijtimoiy antropologiya;
- c) akmeologiya;
- d) psixologiya.

13. Shaxsning ijtimoiy faoliyatini o'zgartiruvchi hayot shakli – ?

- a) moslashuvchanlik;
- b) ishchanlik;
- c) subektivlik;
- d) professionallik.

14. Faoliyatdagi yuqori professionallikka bog'liq bo'lgan muhim holatlar bu – ?

- a) maqbul rivojlanish shartlari;
- b) rivojlanishning ijtimoiy holati;
- c) akmeologik sharoitlar;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

15. Jarayon bu – ?

- a) rivojlanishning ijtimoiy holati;
- b) uslublarning ketma-ketligi;
- c) majmua holatining ketma-ket namoyon bo'lishi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

16. «Akmeologiya» atamasi nechanchi yil ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan?

- a) 1928 yil;
- b) 1948 yil;
- c) 1938 yil;
- d) 1918 yil.

17. Voyaga etgan kishining ijtimoiylashuvi:

- a) o'z kasbiga ega inson;
- b) tabiatda subektiv, bu o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni;
- c) bu shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish jarayoni;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

18. Akmeologiyaning asosiy tadqiqot yo'nalishlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- a) pedagogik akmeologiya;
- b) akmeologiyani boshqarish;
- c) ijtimoiy akmeologiya;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

19. Majmualarni tashkil qiluvchi qismlari orasidagi aloqadorliklarni va bu majmualarning xususiyatlarining zaruriy ekanligini belgilab beruvchi inson faoliyati bu – ?

- a) tadqiqot;
- b) akme;
- c) ong;
- d) ilm.

20. Akmeologik sohadagi asosiy umumiy metodologik yondashuvlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- a) kompleks yondashuv;
- b) tizimli yondashuv;
- c) subyektiv yondashuv;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

21. Nomoddiy majmua qanday qismlardan tarkib topgan?

- a) gumanitar, siyosat, madaniyat va ijtimoiy;
- b) gumanitar, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy;
- c) ma'naviy, ma'rifiy, madaniyat va san'at;
- d) ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy.

22. Akmeologiya bu ...

- a) bola rivojlanishining psixologik, biologik, sotsiologik, pedagogik tushunchalari to'plami;
- b) individual shaxs va odamlar jamoasining rivojlanishidagi cho'qqilarni va ularga erishish shartlarini o'rganadigan fanlar to'plami;

- c) insonning qarish hodisalarini o'rganadigan biomedikal va psixologik fanlarning umumiyliigi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

23. "Akme" bu ...

- a) eng yaxshi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha kasbdagi mansab pog'onasiga ko'tarilish;
- b) insonning jismoniy va somatik rivojlanishining eng yuqori nuqtasiga ko'tarilish;
- c) shaxsiyatning somatik, fiziologik, psixologik va ijtimoiy holati, uning rivojlanishining etukligi, faollik, ijodkorlikda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishishi bilan tavsiflanadi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

24. Shaxsning professionalligi, kasbiy faoliyati, ijodkorligi bu – ?

- a) professionallik tarkibiy qismlari;
- b) kasbiy fazilatlar;
- c) kasbiy vakolatlarining tarkibi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

25. Akmeologiyaning tadqiqot ob'ekti bu – ?

- a) obektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning gumanitar jihatlarini o'rganish jarayonida akmeologik muammolarini aniqlaydi;
- b) obektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning texnologik jihatlarini o'rganish jarayonida akmeologik muammolarini aniqlaydi;
- c) obektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasb-korlikning va ijodiy faoliyatning akmeologik muammolarini aniqlaydi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

26. "Akmeologiya" atamasi kim tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan?

- a) A.A.Bodalyov;
- b) V.G.Ananev;
- c) N.A.Ribnikov;
- d) V.A.Semikov.

27. Akmeologik dunyoqarash qadimda qaysi asarlarda o‘z ifodasini topgan?

- a) “Avesto”, “Kalila va Dimna” asarlarida;
- b) “Qur’oni Karim”, “Qobusnoma” asarida;
- c) “Avesto”, “Qobusnoma” asarlarida;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

28. “Har bir yosh kasb-hunar yo‘lida ilm-bilim egallashi, aql-zakovatini charxlashi bilan birga eng oliy insoniy fazilatlariga ega bo‘lsagina yuksak maqsadlarga erisha olishi mumkinligi to‘g‘risida so‘z boradi“ – bu kimning qaysi asaridan olingan?

- a) Hind eposi “Kalila va Dimna”;
- b) Kaykovusning “Qobusnoma” asaridan;
- c) Zardushtiylik ta’limotining kitobi “Avesto”dan;
- d) to‘g‘ri javob berilmagan.

29. Akmeologiya tushunchasi kim tomonidan shakllantirilgan?

- a) A. Ribnikov;
- b) A. A. Bodalyov;
- c) A. A. Derkach;
- d) I. G. Ananev.

30. Akmeologiya tushunchasi kim tomonidan rivojlantirilgan?

- a) A. A. Bodalyov;
- b) A. A. Derkach;
- c) A. Ribnikov;
- d) I. G. Ananev.

31. Akmeologiyaning shakllanishida Frensis Galtonning xizmatlari qaysi jarayonda namoyon bo‘lgan?

- a) tabiiy fan sifatida shakllanishini izohlashda;
- b) ilmiy muomalaga kiritilgan;
- c) akmeologiya fan sifatida shakllantirilgan;
- d) akmeologiya fan sifatida rivojlantirilgan.

32. Zamonaviy akmeologiyaning vakili rossiyalik psixolog, akademik ... ning ilmiy izlanishlari bu fanni institutsional bosqichga ko'tardi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) Frensis;
- b) V.G.Ananev;
- c) A.A.Derkach;
- d) A.Ribnikov.

33. Quyidagi qaysi olim inson qobiliyatlari sifat mahsuldorligining turli psixobiologik omillarga bog'liqligini isbotladi?

- a) V.G.Ananev;
- b) Frensis;
- c) A.Ribnikov;
- d) I.Perna.

34. Akmeologiya qaysi fanlar bilan hamkorlikda o'z yo'nalishi, muammolari va ularning echimlarini topishga qaratilgan fandir?

- a) falsafa, satsiologiya, madaniyat;
- b) genetika, etika, gerentologiya;
- c) psixologiya, pedagogika, estetika;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

35. Etika va akmeologiya fanlari ob'ektiv qonunlarga asoslangan holda kasb-hunar egalarining qaysi jihatlarini tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganadi?

- a) texnologik jihatini;
- b) metodologik jihatini;
- c) gumanitar jihatini;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

36. Akmeologiya kaysi fan bilan birgalikda ob'ektiv qonunlarga asoslangan holda kasb-hunar egalari ijodiy faoliyatining metodologik, texnologik va gumanitar jihatlarini tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganadi?

- a) psixologiya;
- b) estetika;
- c) etika;
- d) sotsiologiya.

37. Akmeologiyaning asoschisi – ?

- a) B.G.Ananev;
- b) I.Perna;
- c) A.Ribnikov;
- d) Frensis.

38. Qaysi olim akmeologiya faning asoschisi bo'lib, mazkur fanning asosiy g'oyasini, shaxs oliy yutuqlari hayotining "cho'qqisi"ni o'rganishni shakllantirdi?

- a) B.G.Ananev;
- b) I.Perna;
- c) A.Ribnikov;
- d) Frensis.

39. Akmeologiya haqida berilgan ta'rifning qaysi biri to'g'ri?

- a) insonni shaxs bo'lib rivojlanishini o'rganadigan fan;
- b) inson haqidagi fan;
- c) inson o'zini anglashi to'g'risidagi fan;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

40. Pedagogik muloqot funksiyalari to'g'ri berilgan qatorni toping.

- a) o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;
- b) o'quvchilarni erkin fikr mulohaza yuritishga o'rgatish;
- c) ta'lim va tarbiya faoliyatini birgalikda tashkil etish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

41. Pedagogik muloqot qo'yidagi prinsiplarga aslanadi. Ular qaysilar?

- a) kommunikativ muloqot: bir tomonlama axborot uzatiladi;
- b) interaktiv muloqot: ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etish;
- c) perseptiv muloqot: o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

42. To'g'ri fikrni toping?

- a) akmeologiya inson haqidagi fan;
- b) akmeologiya axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan birini o'rganadi;

- c) akmeologiya muomala odobini o'rganadi;
- d) to'g'ri fikr yo'q.

43. Akmeologiya o'rganadigan fan. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) tadqiqotlar olib boradigan fan;
- b) insonning kamolot bosqichida, ayniqsa u ushbu rivojlanishning eng yuqori darajasiga etganda, fenomenologiya, naqsh va mexanizmlarni o'rganadigan fan;
- c) fanning kasbiy faoliyatini rivojlantirish haqidagi fan;
- d) idealga intilayotgan odamning ilmi.

44. "Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, "chetroqda" esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin" degan fikrni kim ilgari surgan?

- a) B.G. Ananov;
- b) I. Perna;
- c) A. Ribnikov;
- d) Frensis.

45. V.A. Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga ... jihatdan yondoshadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) interfaol jihatdan;
- b) akmeologik jihatdan;
- c) innovatsion jihatdan;
- d) to'g'ri javob A va S variant.

46. Akmeologiya haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- a) inson shaxs bo'lib rivojlanishini o'rganadigan fan;
- b) akmeologiya (akme) – yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni anglatadi;
- c) inson haqidagi fan;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

47.... akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan subyektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) V.A.Slastenin;
- b) B.G.Ananey;
- c) I.Perna;
- d) A.Ribnikov.

48.Yuksak professionalizmga erishishning omillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- a) iste'dod nishonalari, o'quvliklik;
- b) qobiliyat, iste'dod, oila tarbiyasi sharoiti;
- c) o'quv yurti, o'z hatti-harakati;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

49.Akmeologiya ilmiy nuqtaiy nazardan professionalizm va ijodiy munosabatida olib qaraladi. Bunda qaysi kategoriyalar farqlanadi?

- a) ijodiy individuallik;
- b) o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi;
- c) o'zining o'sishi va takomillashish jarayoni;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

50.Akmeologiya atamasi nechanchi yildan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan?

- a) 1928 yilda;
- b) 1828 yilda;
- c) 1926 yilda;
- d) 1938 yilda.

51.Estetika va akmeologiya fani shaxsning bu professionalizmini bilishning yuqori bosqichini egallagan subyekt sifatida Gapni davom ettiring?

- a) go'zalligini o'rganadi;
- b) mehnatini, muloqotini aniqlab beradi;
- c) ichki ruhini o'rganadi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

52. Akmeologiya olimlarning fikricha bu ilmiy tartib va ilmiy o'zlashtirishdir. Ularda mavjud usullar qaysilar.

- a) yoshlar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini qonuniy me'yor orqali boshqarishi va yuqori cho'qqiga ko'tarishi;
- b) shaxs estetikasi va intellektining yuqori bosqichiga etishidagi ob'ektiv va subyektiv birliklardagi va ziddiyatli ta'sir omillari;
- c) o'zini-o'zi o'qitish va o'zini o'zi tashkillashtirish va boshqarish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

53. O'qituvchining ijodiy individualligi nimalardan iborat?

- a) intellektual-ijodiy tashabbus, axborotlarga tashnalik;
- b) bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- c) ziddiyatlarga nisbatan hushyorlik, ijodga tanqidiy yondoshuv;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

54. Akmeologiyaning asosiy predmeti berilgan javobni toping?

- a) xayotiy o'zgarishlar mazmuni;
- b) ilm-fan tarixi;
- c) fanlar tarixi;
- d) akmeshaxs.

55. Akmeologiya fanning rivojlanishi necha bosqichdan iborat?

- a) 2 bosqich;
- b) 4 bosqich;
- c) 5 bosqich;
- d) 3 bosqich.

56. Akmeologiya rivojlanishining bosqichlari to'g'ri berilgan javob qaysi?

- a) akmeshaxs;
- b) kombinatsiya;
- c) latent;
- d) A va B javoblar.

57. Akmeologiyaning qaysi bosqichida insonshunoslikning yangi jabhalarini o'rganishda tarixiy, madaniy, falsafiy, ijtimoiy-axloqiy, ilmiy va pedagogik ko'rishda bo'ladi?

- a) kombinatsion;
- b) latent;

- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

58. Akmeologiyaning qaysi bosqichida, akmeologiya atamasi bilan asoslanadi?

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

59. Akmeologiyaning kombinatsion bosqichiga to'g'ri berilgan javob qaysi?

- a) akmeologiya atamasi bilan asoslanadi;
- b) mehnat jamoalarining samaradorlik koeffitsienti o'rganiladi;
- c) mutaxassislarning ish jarayoni o'rganiladi;
- d) muvaffaqiyatga erishish bosqichlari o'rganiladi.

60. Akmeologiyaning 2-bosqichi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

61. Akmeologiyaning qaysi bosqichida o'quv yurtlarida akmeologiya kafedralari, laboratoriyalari va Xalqaro akmeologik fanlar akademiyasi ochildi?

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

62. Akmeologiyaning qaysi bosqichida 10 – 15 kishilik katta bo'lmagan mehnat jamoalarining samaradorlik koeffitsentini baholashda tartib bo'yicha klassifikatsiya metodi etarlicha tarqalgan?

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

63. Akmeologiyaning 3-bosqichi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

64. Akmeologiyaning 4-bosqichi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- a) kombinatsion;
- b) latent;
- c) inkubatsion;
- d) institutsion.

65. Professionalizm – ?

- a) tarbiyaviy va o'quv ishlari mazmuni va tamoillarini belgilaydi;
- b) tarbiya jarayoning qonuniyatlarini belgilab beradi;
- c) tarbiya jarayoning tarkibi va uning tashkil etilish mexanizmlarini tadqiq etadi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

66.... subekt tomonida ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) innovatsiya;
- b) texnologiya;
- c) akmeologiya;
- d) modellashtirish.

67.... tushunchasi regulyativ ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

- a) innovatsiya;
- b) texnologiya;
- c) akmeologiya;
- d) modellashtirish.

68. Z.V. Manuylovning fikricha biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan qaysi jarayonda xulq ko'nikmalari oldinroq va osonroq rivojlanar ekan?

- a) o'yin jarayonida;
- b) musiqiy ta'limda;
- c) jismoniy tarbiyada;
- d) aqliy faoliyat jarayonida.

69.... o'yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) syujetli;
- b) rolli;
- c) ijodiy;
- d) A va B javoblar.

70. Bola necha yoshgacha narsalar bilan harakatlar qilishni egallaydi?

- a) 1 – 3 yoshgacha;
- b) 2 – 4 yoshgacha;
- c) 3 – 4 yoshgacha;
- d) 4 – 5 yoshgacha.

71. Qaysi olim o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondoshadi?

- a) A.A.Derkach;
- b) B.G.Ananov;
- c) V.A.Slatenin;
- d) N.V.Kuzmina.

72. Modellashtirish bosqichi o'qituvchidan nimalarni talab qiladi?

- a) auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlarini;
- b) yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni;
- c) o'qituvchining o'quv-biluv faoliyati hususiyatlarini;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

73. Qaysi bosqich sinfni tez o'quv ishiga jalb qilish texnikasi, o'zini namoyish etish va dinamik ta'sir ko'rsata olishni bilish demakdir?

- a) kommunikativ hujum;
- b) so'ngi bosqich;
- c) modellashtirish bosqichi;
- d) muomalani boshqarish bosqich.

74. Qaysi bosqichda o'quvchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, dialogik muloqotni tashkil etish, aniq yuzaga kelgan sharoitiga ko'ra o'z fikrlarini to'g'rilab borish malakalari juda muhimdir?

- a) kommunikativ xujum;
- b) so'ngi bosqich;
- c) modellashtirish bosqichi;
- d) muomalani boshqarish bosqich.

75. Muomalani tahlil qilish bosqichida sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping

- a) auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlari o'ylangan bo'lishi;
- b) sinfni tezgina o'quv ishlariga jalb etish;
- c) maqsad, vosita va natijaning o'zaro hamohangligi;
- d) yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish.

76. Muomalani boshqarish bosqichida o'quvchilarning qanaqa malakalari muhimdir?

- a) tashabbusini qo'llab-quvvatlash;
- b) dialogik muloqotni tashkil etish;
- c) aniq yuzaga kelgan sharoitga ko'ra o'z fikrlarni to'g'rilab borish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

77. "Gnoseologiya" berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- a) ma'naviyat shakllanish jarayonini dialektik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'llarini topish;
- b) bilish jarayonini bilish nazariyasi qonunlari asosida tashkil qilish usullarini yaratish;

c) bilish bilan ruhshunoslik qonunlari orasidagi aloqadorlikni aniqlash;

d) inson ma'naviyati shakllanishi bilan tashqi ijtimoiy muhit orasidagi aloqalarning kechishi qonuniyatlarini aniqlash.

78.... insonning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadiga muvofiq bosqichma-bosqich, dastlabki, o'rta va keyingi etukligida individ, shaxs sifatida va faoliyat subyekt sifatidagi yuzaga kelish fenomenologiyasi, qonuniyatlarining mexanizmlarini aniqlab beradi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- a) akmeologiya;
- b) professionalizm;
- c) dialektika;
- d) metodologiya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулханова И.А., Анисимов О.С., Деркач А.А. ва бошқалар. Акмеология. Дарслик (электрон). – М.: РАГС, 2004.
2. Акмеология. Дарслик. А.А.Деркач тахрири остида. – М., 2002.
3. Акмеология. Хрестоматик луғат. Илин В.В., Пожарский С.Д. Философия ва акмеология. – М., 2004.
4. Азизхўжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: 2003.
5. Tillaeva S.N. Akmeologiya asoslari. – Т.: Tafakkur bo'stoni, 2014.
6. Yo'ldoshev J., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Т.: O'qituvchi, 2004.
7. Бодалев А.А. Вершина в развитии взрослого человека. Характеристики и условия достижения. – М., 2007.
8. Бодалев А.А. О предмете акмеологии // Журн. "Психолог". Том 14. – №5, 2003.
9. Головкин-Гаршина Н.В. Предмет акмеологии. Акмеологическая теория специалиста образования. – СПб., 2006.
10. Кузмина Н.В. Основы акмеологии. – М., 2007.
11. Кузмина Н.В. Предмет акмеологии. – М., 2002.
12. Хозяинов Г.И. Основы акмеологии. – М., 2002.

Elektron ta'lim resurslari.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.ziyo.edu.uz
5. www.gov.uz
6. www.ziynet.uz
7. www.istedod.uz

MUNDARIJA

Kirish	
1. Pedagogik akmeologiya predmeti va uning fanlar tizimidagi o‘rni	
2. Pedagogik akmeologiyaning hozirgi kundagi rivojlanishi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi	
3. Akmeologiyaning vazifalari	
4. Pedagogik akmeologiyaning metodologik prinsiplari va yondashuvlari	
5. Pedagogik akmeologiyaning metodologik yondashuvlari ...	
6. Pedagogik akmeologiyaning asosiy yo‘nalishlarini turkumlash	
7. Pedagogik akmeologiya fani doirasidagi tadqiqotlar	
8. Pedagogik akmeologiyaning asosiy muammolari. Kasbiy kompetentlilik	
9. Professionalizm akmeologiyaning muhim tushunchasi sifatida	
10. Pedagogik mahorat “akme”ning turi sifatida	
11. Kasbiy kompetentlikning mohiyati	
12. Akmeologik texnologiyalarning o‘ziga xosliklari	
13. Pedagogik akmeologiyada modellashtirish	
14. O‘yin modeli akmeologiyaning o‘ziga xos turi sifatida	
15. Pedagoglarning innovasion faoliyatida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish	
Amaliy mashg‘ulotlar	
Keyslar	
Mustaqil ta’lim mavzulari	
Izohli lug‘at	
Testlar	
Foydalanilgan adabiyotlar	

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	3
1. Предмет педагогической акмеологии и его место в системе наук	5
2. Современное развитие педагогической акмеологии и ее связь с другими дисциплинами	22
3. Задачи акмеологии	38
4. Методологические принципы и подходы педагогической акмеологии	53
5. Методологические подходы педагогической акмеологии	84
6. Категоризация основных направлений педагогической акмеологии	102
7. Исследования в области педагогической акмеологии ...	115
8. Основные проблемы педагогической акмеологии. Профессиональная компетенция	124
9. Профессионализм как важное понятие акмеологии	132
10. Педагогическое мастерство как вид «акме»	149
11. Суть профессиональной компетентности	157
12. Особенности акмеологических технологий	167
13. Моделирование в педагогической акмеологии	177
14. Игровая модель как особый вид акмеологии	185
15. Использование игровых технологий в инновационной деятельности педагогов	190
Практическая подготовка	195
Кейс	216
Темы самостоятельных работ	225
Толковый словарь	226
Тест	235
Список литературы	251

CONTENTS

Introduction	3
1. The subject of pedagogical acmeology and its role in the system of science	5
2. Contemporary development of pedagogical acmeology and its connection with other sciences	22
3. The functions of acmeology	38
4. Methodological principles and approaches of pedagogical acmeology	53
5. Methodological approaches of pedagogical acmeology	84
6. Grouping the main sections of pedagogical acmeology	102
7. Researches in the field of pedagogical acmeology	115
8. Main issues of pedagogical acmeology Professional competence	124
9. Professionalism as the main concept of acmeology	132
10. Pedagogical skill as a main type of “acme”	149
11. Significance of professional competence	157
12. Peculiarities of acmeological technologies	167
13. Modelling in pedagogical acmeology	177
14. Gamification model as a peculiar type of acmeology	185
15. The use of game technologies in the innovative activities of pedagogues	190
Practical classes	195
Keys	216
Themes of independent works	225
Explanatory dictionary	226
Test	235
List of references	251

Ilmiy nashr

Abdullayeva Masuda Abdubannayevna

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

Darslik

Muharrir: Alijon JURAYEV
Texnik muharrir: Nikita TIXONOV
Musahhih: Madina MAMAJONOVA

Terishga berildi 10.09.2023-y.
Bosishga ruxsat etildi 10.10.2023-y.
Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Xajmi 16 bosma taboq.
Times New Roman garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«USMON NOSIR MEDIA» nashriyoti.
Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 36.
Nashriyot tasdiqnomasi raqami: 1743
2020-yil 30-sentabrda berilgan.
Tel.: +998-93-050-28-72.

“Yashin sanoat” xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko'chasi, 71A-uy.



ISBN 978-9910-743-17-7



9 789910 743177